

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 9(575.1):008 (575.1)

IRISOV SARDOR SHERBEKOVICH

MOVARAUNNAHRDA XIV-XV ASRLARDA MADANIY VA
MA'NAVIY HAYOTNING RIVOJLANISHI

Mutaxassislik: 5A 120304–Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot
asoslari (mamlakatlar bo'yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA

Ish ko'rildi va himoyaga
ruxsat berildi. "Tarixshunoslik
va manbashunoslik" kafedrası mudiri
_____ dots. Ergashev B.E.
"_____" _____ 2015 y.

Ilmiy rahbar:
_____ prof. Saidov.I.M

Samarqand – 2015

MUNDARIJA

KIRISH	3-7
I BOB.AMIR TEMUR MA’NAVIYATI VA MADANIYATI.	
1.1. Amir Temurning diniy e’tiqodi , ma’naviy - axloqiy va ijtimoiy – siyosiy tafakkuri.....	8-18
1.2. Amir Temur va Samarqand me’morchiligi	9-28
1.3. Amir Temurning o’zga yurtlardagi bunyodkorlik va me’morchilik ishlari.....	29-34
Xulosa	34-35
II BOB.TEMURIYLAR MA’NAVIYATI VA MADANIYATI.	
2.1. Shoxrux Mirzo va Hirot me’morchiligining bunyodkorlik ma’naviyati...	36-43
2.2. Shoxrux va Boysunqur Mirzo ilm – ma’rifat yo’lida.....	44-50
Xulosa	51-52
III BOB.ULUG’BEK MA’NIVIIYATI.	
3.1. Mirzo Ulug’bek va bunyodkorlik.....	53-67
3.2. Mirzo Ulug’bek ilmiy ma’naviyati va u jahon me’morlari madhida.....	68-71
XULOSA	72-78
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	79-82

KIRISH

Tadqiqotning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach keyingi tarixiy davrlar davomida jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ona yurtimiz va uning o'tmishiga qiziqish yanada ortdi, ayniqsa, uning moddiy madaniyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. O'zbekiston mustaqilligining tantana qilinishi bilan o'zbek xalqining tarixini qaytadan yaratish, uni xolisona o'rganish, yosh avlodda tarixiy dunyoqarash va milliy g'ururni shakllantirish masalalari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Yurtimiz tarixiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Prezident I.A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida tariximizning dolzarb masalalari belgilab berildi.¹ Ushbu asar tarixchi olimlarning vatanimiz tarixini to'liq va ob'ektiv yoritishlarida dasturi amal vazifasini bajaradi.

Bugunni bilish uchun o'tmishga nazar tashlamoq kerak. Qadriyatlarni belgilovchi mezon o'tmish yodgorliklari bo'lib ularga arxetektura yodgorliklari san'at, ma'naviy va moddiy boyliklar kiradi. Bu boyliklar har bir xalq tomonidan ardoqlanadi, mehr-muhabbat bilan o'rganiladi.²

Davlatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridanoq asrlar davomida ajdodlarimiz yaratgan, ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davri ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklashga katta ahamiyat berildi. O'zbekiston xalqi o'z tarixini tiklash, haqsiz unutilgan nomlarni, jahon rivojlanishida muhim rol o'ynagan tarixiy shaxslarni yorug'likka chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek "Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt saodat bo'lmaydi"³.

Amir Temur markazlashgan davlatga asos solib, uning kuch-qudratini har tamonlama mustahkamlab va rivojlantirib, shon-shuhratini butun jahonga

¹ Karimov, I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. // Biz kelaqagimizni o'z qulimiz bilan quramiz. - Toshkent 1999. 132-154 b.

² Kurbonova D. Jahon xazinalaridagi temuriylarga oid javohirlar. Toshkent. 2011. 5-6

³ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiёт yo'li. T.: O'zbekiston 1993., 33-bet.

yoydi, buyuk saltanatning hukmdori sifatida millatlar va xalqlarni birlashtirdi. Uning davrida madaniyat, ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa, she'riyat yuqori cho'qqilarga ko'tarildi. Bir so'z bilan aytganda Temuriylar davri renessansiga asos solindi⁴.

Shunga asosan Prezidentimizning farmoni bilan 1996-yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi va uning 660 yillik yubileyirespublikamizda keng nishonlandi⁵. 1996-yilning 14-martida esa Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosini barpo etish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori e'lon qilindi.

Prezidentimizning tashabbuslari bilan muzey binosi qisqa vaqt ichida bitkazilib, 1996-yilning 18-oktyabridan foydalanishga topshirildi.

Tadqiqotning o'rganilish darajasi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti S.G'ulomov, Temuriylar tarixi direktori N.Habibullayev, tarix fanlari doktori temurshunos alloma Bo'riboy Ahmedov, tarixchi olimlarimiz Ashraf Axmedov, Abdulahad Muhammadjanov, Ubaydullo Uvatov, S. Azimjonova, Hamid Ziyoyev, Turg'un Fayziev, Amriddin Berdimurodov, Ibrohim G'afurov, shuningdek, adabiyotchi va tarixshunos olimlarimiz Aziz Qayumov, Abdurashid Abdug'afurov, Malik Murodov, Botirxon Valixo'jayev, Muhammadjon Xolbekov, Hamidjon Hamidov hamda tarixchi adiblar Barot Boyqobilov, Yevgeniy Berezikov, Poyon Ravshan, To'ra Mirzo, Muhammad Ali, Xurshid Davronlar Amir Temur va temuriylar haqida yangidan-yangi maqolalar, kitoblar adabiy-tarixiy majmualar yozib, o'zbek tilida nashr etmoqdalar⁶. Mamlakatimizda istiqlol yillarida Prezidentimiz Islom Karimov tashabbuslari bilan ma'naviv –marifiy jabhada olib borilayotgan islohatlar

⁴Курбонова Д. Жаҳон дурдоналари. Ўзбекистон адабиёти ва санъати.// 2011.

⁵Ҳабибуллаев Н. Темурийлар тарихи давлат музейи. Ўзбекистон овози// . 2011. 9 август.

⁶ Абдуллаев В.А., Валиходжаев Б.Н. Дыхание веков. Самарканд, СамГУ. 1970., Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент. 2000., Алексеров Ю. Самарканд. страницы истории. Т.: 1967., Аскаров А. Темур ва Улугбек. Тошкент. Комуслар бош тахририяти. 1996., Ахмедов А. Улугбек. Т., 1991., Ахмедов Б. Мирзо Улугбек. Т. 1994., Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана.- Вкн.: Бартольд В.В. Сочинения Т. II, 4.1, М., 1963., Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч. Т. II. 1-часть. М.: 1964., Бердимуродов А. Гўри Амир макбараси. Самарканд. 1996., Засыпкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. М., 1948., Зоҳидов. П. Темур даврининг меъморий қаҳқошони. Т.: 1996., Мамадазимов М. Улугбек ва унинг расадхонаси. Т., 1994., Мамараҳимов К., Бердимуродов А. Самарканд, Т. 2000., Массон В.М., Ромодин В.А. Тимур и тимуриды. - В кн.: Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. Том I. С древнейших времен до начала XVI в. М., 1964., Мухаммаджонов А. Темур ва Темурийлар салтанати, Тошкент, 1994. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тугган ўрни ва роли. Т., 1968., Немцева А. Шахи Зинда. Т.: 1987. Пугаченкова Г.А., Ремпель А.И. Выдающийся памятник архитектуры Узбекистана. Т.: 1958. Тахиров М. Педагогические взгляды Мирзы Улугбека. Т.: 1984 Sodiqov N. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati. Т., 2010 у. Усмонов О. Камолитдин Бехзод ва унинг наққошлик мактаби.. Т.: 1997., Ҳомидов Ҳ. “Шоҳнома” нинг шухрати. Т.: 1991. Ўролов А. Ҳожихонов М. Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарканд, 1996. Ўролов А. Ҳожихонов М. Улугбек яратган маънавият. Т., 1999. Щеглов В.П. Улугбек расадхонаси. Т., 1980. Юсупова Д.Ю. Писма Гийас ад-Дина Каши к своему отцу из Самарканда в Кашан. // Из истории науки эпохи Улугбека. Т., 1979.

jarayonida tariximizni teran tadqiq etish, ulug' siymolarning hayoti va faoliyatini xolisona o'rganish va xalqimizga yetkazishga qaratilayotgan e'tibor yuksak samara berayotganini alohida ta'kidladilar .

Mamlakatimiz olimlarining ana shunday say-harakatlari samarasida Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" va Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" kabi asarlari chuqur tadqiq etilib, o'quvchilar e'tiboriga havola qilindi. "Amir Temur jahon tarixida" kitobi o'zbek, rus fransuz va ingliz tillarida nashr etildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik inistituti qo'lyozmalari saqlanayotgan tarixga oid asarlar haqidagi ma'lumotlar jamlangan Sharq qo'lyozmalari katoligi bu borada o'ziga xos qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning davriy xronologik chegaralari

Vatanimizning XIV – XV asrlar tarixini aks ettiruvchi Amir Temur va temuriylar davriga oid bunyodkorlik, arxetektura yodgorliklarini, nodir kitoblar, milliy hunarmandchilik va amaliy san'ati na'munalari o'rganishdan iborat. Xususan, Temurning shaxsan o'zi amalga oshirgan qurilishlar, madaniy, marifiy sohalarda amlga oshirgan ishlari va temuriylar tomonidan yurtimizda va boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifasi

Maqsadi – Amir Temur va temuriylar davrida ilm – fan, maorif va madaniyatning yuksak darajadagi taraqqiyotini haqqoniy aks ettirish va keng targ'ib qilish, chuqur insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan tarixiy yutuqlarimiz va an`analarimiz asosida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy istiqlol g'oyasini singdirish.

Vazifalari – tarixiy, madaniy, ma'rifiy fanlarning etakchi yo'nalishlari bo'yicha ilmiy – amaliy tadqiqotlar olib borish; respublika va xorijiy mamlakatlar jamoatchiligini temuriylar davri tarixi bilan tanishtirish; Temuriylar tarixi davriga oid manbalarni to'plash bo'yicha respublika va chet ellarda izlanish ishlarini olib

borish; Amir Temur va temuriylarning jahon fani madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasini ko'rsatib beradigan asl hujjatlar, qo'lyozmalar, moddiy-ma'naviy yodgorlik va topilmalar asosida o'zbek xalqi tarixini yoritib berish⁷.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Amir Temur va temuriylar davriga oid madaniy va manaviy boyliklarni nisbatan kamroq o'rganilgan qismi bo'lmish bunyodkorlik va mamurchilik, arxitektura sohasida amalga oshirgan ishlarinihar jihatdan ilmiy tadqiq qilish orqali yanada chuqurroq o'rganish. Oxirgi yillarda amalga oshirilgan o'zgarishlarni qiyosiy tahlil qilish orqali aniq faktlarga asoslangan ishlar, yurtboshimiz boshchiligida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik va obodonchilik ishlarini ko'rsatib berish. Prezident I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida tariximizning dolzarb masalalari belgilab berildi.⁸ Ushbu asar tarixchi olimlarning vatanimiz tarixini to'liq va ob'ektiv yoritishlarida dasturi amal vazifasini bajaradi.

Muammoni ishlab chiqish darajasi.

Amir Temur va temuriylar davri haqida ma'lumot beruvchi barcha manba va adabiyotlarni tadrijiy asosda tahlil qilish, bazi bir muammolarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish muammolariga yalpi yondashuv eng istiqbolli yondashuv hisoblanadi.

Hozirgi kungacha bazi tortishuvlarga sabab bo'layotgan muammoli masalalarni qiyosiy tahlil qilish asosida aniq ma'lumotlarga asoslangan faktlar bilan haqqoniy, adolatli baho berish va shu orqali tarixiy muammoni ilmiy jihatdan to'g'irlash, shu orqali yurtimiz tarixining eng rivojlangan davri bo'lmish temuriylar davrini aniqroq yoritib berish.

Tadqiqotning asosiy ilmiy uslublari.

Magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot etilayotgan holatlarga aniq, holisonalik bilan, tarixiy va umum bashariy yondashuvga asoslanadi. Ishni yozish jarayonida tizimlilik, mantiqiylik, tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari.

⁷Хабибуллаев Н. Буёк тарихимиз кўзгуси. Халқ сўзи//. 2010. 7 апрел.

⁸Каримов.И.А.Тарихий хотирасиз келажак йўқ.//Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қўраимиз.-Тошкент 1999..132-154 б.

Dissertatsiyada ilmiy bilimlarning obektivlik sistemalik, analiz va sintez, umumlashtirish, qiyosiy o'rganish, tarixiy va mantiqiylik, tizimli yondashuv kabi metodlarga tayanildi. Mazkur Magistrlik dissertatsiyasining metodologik asoslarini Prezident I.A.Karimov asarlari va nutqlari, muzey hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston yangi tarixini yaratish to'g'risida"gi 1996-yil 16-dekabr hamda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi va 1998-yil 23-iyul Qarorlari dissertatsiyaning me'yoriy, huquqiy asosini tashkil qiladi.

kabi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil qiladi.

Magistrlik dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi va tili. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, yettita paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro'yxatidan iorat.

Tadqiqot ishi o'zbek tilida yozilgan bo'lib 82 betni tashkil qiladi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat timsoliga aylandi. Istiqlolimizning har bir tadbirida, mustaqil davlatimizni har qadamida ul buyuk zod ruhi bizga hamroxi hamnafas bo'lib bormoqda⁹.

Dissertatsiyada jamlangan ilmiy va nazariy asoslangan materiallardan temuriylar tarixini o'rganishda ular tomonidan qoldirilgan buyuk ma'naviy va madaniy merosning naqadar bebaho ekanligini, asosiy jihatlariga baho berishga, me'morchilik obidalarini tahlil qilishda, o'zga yurtlarda amalga oshirgan ma'murchilik ishlarini ilmiy jihatdan o'rganisda talabalar uchun o'quv material, maxsus kurs, mustaqil va kurs ishlari, malakaviy bitiruv ishlari sifatida foydalanish mumkin.

⁹ И.А.Каримов. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби, 5-жилд. Тошкент. Ўзбекистон. 1997 й. 166-167 б.

I BOB. AMIR TEMUR MA'NAVIYATI VA MADANIYATI.

1.1. Amir Temurning diniy e'tiqodi, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy tafakkuri

XIII asr boshidan to XIV asr o'rtalarigacha Markaziy Osiyo hududida mo'g'ul bosqinchilari hukmronlik qildilar. Chingiziylar istilosi qariyb bir yarim asrga cho'zildi. Bu vaqt ichida Turon va turonliklar boshiga misli ko'rilmagan kulfatlar tushdi. Obod shaharlar, qishloqlar, rabot va karvonsaroylar vayron qilinib, yondirildi, mavjud bog'-rog'lar buzib tashlandi. Mamlakatda feodal tarqoqliklar kuchayib, amirlar o'rtasida o'zaro urushlar avj oldi. Og'ir soliqlar, qaroqchi talonchilar dastidan odamlar ko'ksini ko'tara olmay, qashshoqlashib ketdilar. Uzoq yillar davomida mo'g'ul hokimlari xalqdan faqatsoliq yig'ish bilan mashg'ul bo'ldilar, tarixdaqolgudek biror bir inshoot qurmadilar.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganaa (1370-yil) Movarounnahrda notinchlik, boshboshdoqlik hukm surib, mamlakat va uning xalqi o'ta holdan toygan va shuning uchun ham o'z noroziligini ifoda etayotgan bir davr edi. Temur o'z siyosatini mamlakatda markazlashgan mustaqil hokimiyat o'rnatish, har bir ishda qonun va targ'ib joriy qilish, yurtida osoyishtalikni ta'min etish, dehqonchilikni jonlantirish, hunarmandchilik, savdoni rivojlantirish, islom aqidalariga rioya qilishdan boshlaydi. Ayni paytda, Temur mamlakat chegaralaridagi osoyishtalikni ta'minlash maslasida dushmanlaridan xalos bo'lishni istaydi. Shu yo'l bilan o'z saltanati chegaralarini kengaytirib oladi. Xorazm va Xurosonni egallagach, Temur qo'l ostigabutun Turonni birlashtirib, Markaziy Osiyo xalqlarining mo'g'ul dunyosi ustidan to'la g'alabasini ta'min etadi. Amir Temur Movarounnahr, Xuroson, Xorazm, Oltin O'rda, OqO'rdadan tashqari Eron, Iroq, Kavkazorti, Kichik Osiyo yurtlari, Suriya, Misrni hamda Xindistonning shimoliy qismini o'z ichiga olgan buyuk davlatga asos solib, unda O'ttiz yildan ziyod (1370— 1405) hukmronlik qiladi¹⁰.

¹⁰ Курбонова Д.Жахон хазиначаридаги темурийларга оид жавохирлар. Тошкент.2011.5-6

Mamlakat osoyishtaligi va tinchligini saqlash, raiyat kuchini bunyodkorlikka yo`naltirish, Movarounnahrning moddiy va madaniy farovonligini kamolotga ko`tarish Amir Temurning ichki siyosati edi. O`zining tashqi siyosatini o`zga yurtlar bilan aloqalar bog`lab, iqtisodiy va madaniy munosabatlarni yaxshilash, ezilgan xalqlarni nohaqlik va jaholat zulmidan ozod qilib, yakdil, mustahkam va mustaqil davlat tuzish deb biladi va shu yo`lda tinmay sa'y-harakatlar qiladi. Amir Temur Markaziy Osiyo xalqlarini va mamlakatni mo`g`ul istilochilarining yuzlab yillik jabru sitamlaridan ozod etib mustaqillikka chiqardi, el-ulus osoyishtaligi, yurt ma'murchiligini, mamlakatda shaharsozlik va me'morchilikni, san'at va madaniyatni, savdoni rivojlantirdi, temuriylar davri ma'naviyatiga asos soldi.

Temur va temuriylar davrida qad ko`targan va bizgacha saqlanib qolgan Samarqand va Shahrisabz, Kobul va Hindistondagi muhtasham va munaqqash obidalar faqat Markaziy Osiyo, Afg`oniston va Hindistonninggina emas, balki yer yuzining ham sayqali deb ardoqlab kelinmoqda. Temuriylar davrida bunyod etilgan noyob osori-atiqalar, qo`lyozma asarlar, xalq amaliy san'atining nodir namunalari esa butun yer yuziga tarqalib ketgan. Ular G`arb dunyosining, ayniqsa, Yevropa mamlakatlarining eng nufuzli muzeylarida saqlanib kelmoqda. Temur va temuriylar hayoti va faoliyati, ularning ma'naviy dunyosiga bag`ishlangan tarixiy asarlar dunyo xalqlarining tillariga necha-necha bor tarjima qilinib, bugungi kunda ham o`rganilib kelinmoqda. Biroq, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Temur va temuriylar Markaziy Osiyo va sobiq Ittifoqda uzoq yillar davomida mustabid sovet mafkurasini tazyiqi ostiga olindilar. Maqsad ularni tarix xotirasidan o`chirish edi¹¹.

Amir Temur, Shohrux, Xusayn Boyqaro kabi ulkan davlat arboblari va o`rta asarlarda yashab ijod etgan Ulug`bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Bobur kabi ulug` allomalar e'tiqod qilgan islom dinining ilm-ma'rifatga, ma'naviyatga qarshi emasligi, aksincha, har birmusulmon, erkagu ayoli bab-baravar ilm o`rganmog`i, ma'rifat va madaniyatga intilishi nazarda tutilganligining shohidi bo`lmoqdamiz. Temuriylar davrida qurilishi keng avj olgan islom madrasalarining aslida ilm-ma'rifat, bilim dargohlari bo`lganligi, ma'rifatparvar temuriylar esa o`z

¹¹ www.Uzhuriyat.uz

saroylarida fozilu ulamolar, san'atva madaniyatallomalarini yig'ib, buzaminda qadimdan shakllanib kelgan Dor-ul-hikma (Donolik uyi), Dor ul-funun (Fanlar uyi) kabi ilmiy maktab va akademiyalar tashkil etganliklari o'tmishimiz va temuriylar davri madaniyatining ijobiy qadriyatlari o'rinda qaralmoqda. Islom dini esa umum bashariyat g'oyalari bilan yonma-yon qo'yilmoqda. Diniy madaniyat va diniy-axloqqaror topmoqda.

Amir Temur ma'naviyati va faoliyati hakida gap ochar ekanmiz, bobokalonimizning diniy e'tiqodi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy tafakkurining shakllanishida islom dini va madaniyatining sezilarli ta'sirini ko'ramiz. Amir Temur va temuriylar shaxsiyatidagi fazilatlar va ma'naviyat esa islom dini g'oyalari va aqidalari bilan mushtarakdir.

Amir Temurning islom dini va shariatga bo'lgan e'tiqodi uning bolalik - yillaridayoq seziladi. Temur o'zining „Tarjimai hol“ ida, „Men 9 yoshga to'lganimda namoz o'qiy boshladim va madrasalardagi barcha o'quvchilardan ustun bo'lib oldim. Har qanday yig'ilishlarda ham men ulamolarning yonidan joy olishga harakat qildim. Ularning oldida tiz cho'kib o'tirar edim“¹² deb yozadi. Amir Temur yoshligida otasining piri va do'sti shayx Shamsiddin Kulol bilan ko'p suhbatdosh bo'lib, uning tarbiyasini olgan, unga ixlos qo'ygan edi. Temur keyinchalik siyosiy mavqiyega ega bo'lganda ham undan ustoz sifatida maslahatlar olib turadi. Uning vafotidan so'ng ham ruhiga e'tiqod qiladi.

Amir Temur o'zga yurtlarga qilgan harbiy yurishlarida ham dinu ulamolarga cheksiz izzat-ikrom ko'rsatadi. Temur Balx shahrini jang bilan olish arafasida 1370-yili Mir Sayid Baraka uning huzuriga kelib shahar nufuzini jangsiz bo'ysunishga ko'ndirilganligini, qon to'kish behuda ekanligini, Balx hokimiyati ramzi bo'lgan bayroqni va nag'orani unga topshirajagini aytadi. Ayny paytda, Temurning kelajagi buyuk bo'lishiga bashorat qiladi. Keyinchalik Temur Sayid Barakani o'zining safarlariga taklif qilib uni bir umrga diniy ustoz - piri qilib oladi va unga hozirgi Afg'onistonning Andxoy shahrini in'om etadi.

¹² Amir Temur K'uraqon. Za'far i'yuli. (Tarjimai hol). Nashrga tayyorlovchi, tarjimon, s'uz bo'shi va izoxlar muallifi A. Axmedov. Toshkent., Nur. 1992. 3-6et.

Temur Sayid Barakaning vafotini eshitganda (1404-yil) butun vujudi g'amga botib, ko'z yoshi to'kadi, uni Samarqandga keltirib, Muhammad Sulton maqbarasiga dafn etadi.

Temurning diniy rahnamalaridan yana biri shayx Zayniddin Abu Bakr Tayobodiydir (vafoti 1387-yil). Tayobod Xurosonda Xarirud daryosi buyidagi qishloq. Temur bu yerga 1381-yili tashrif buyurgan edi. Tayobodiyning yoshi Temurdan ancha katta edi. U Sayid Barakadek Temurning harbiy safarlarida unga hamroh bo'lolmasa-da, xat orqali maslaqatlar berib turgan. Temur o'z "Tuzuklar" ida piri Tayobodiyini bir necha bor hurmat bilan tilga oladi.

Temurning boshqa shayx va islom ulamolari bilan ham yaqinligi haqida ko'p ma'lumotlar mavjud. Masalan, Shayxzoda Abu Sayid ibni Burhoniddin Sog'arjiy, Shayxzoda Shamsiddin (Qutbi Chahordaho'm— Nuriddin Basirning nevaralaridan) va Bahoviddin Naqshbandlar ham Temurning pirlaridan sanalgan¹³.

Temur o'zining "Tarjimai hol" ida "Dinga har doim birdek qaradim. Tangrining amrini va payg'ambar hadislarida aytganlarini to'la ado etishga intildim. Barcha qilmishlarimda shariat yo'sinlariga butkul amal qildim va nopok ishlardan butun vujudim bilan o'zimni tiydim. Payg'ambarni va uning maslakdoshlarini eng yaxshi do'stlarim deb bildim. "Men islom bayrog'ini baralla ko'tardim va iymon tarqatishni, o'z buyukligimning qudratli zamini deb bildim",— deb ta'kidlaydi.

Temur o'tmishda o'tgan islom ulamolarining ham hurmatini bajo keltirib, ularning mozorlariga sag'analar, munaqqash qabrlar tiklaydi. Yassidagi Xoja Ahmad Yassaviy, Buxorodagi Chashmai Ayyub, Toshkent viloyatidagi Zangiota, Samarqanddagi hazrat Qusam ibn Abbos, shayx Nuriddin Basir (Qutbi Chahordaho'm), shayx Burhoniddin Sog'arjiy mozori ustiga qurilgan Ruxobod, Cho'ponota kabi maqbara va majmualar shular jumlasidandir.

Shunisi ajablanarliki, hatto Amir Temur davrida ham Turkistonda butsanamlarga sig'inuvchi baraxmanlar, ya'ni butparastlik dinidagilar bo'lgan. „Men mahalliy aholi orasidagi timsollarga sajda qiluvchi butparastlarni uchratsam

¹³Ўролов А,Хожихонов М. Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарканд., Сугдиён. 1996. 15-бет.

ularning butxonalarini tagtugi bilan vayron qilib, Rasulullohning dinu islomini tarqatdim"¹⁴,— deb ta'kydaydi Temur. Butparastlik dinidagi turkiy-mo'g'ul amaldorlaridan biri To'kal Bahodir bo'lib, uning katta butxonasi bor edi. Temur uni buzdirib, To'kalni islom diniga kiritadi va keyinchalik o'zining sodiq amirlaridan biriga aylantiradi.

Amir Temur dinu shariatni quvvatlash, olamning turli mamlakatlari va shaharlarida islom dini va shariatni rivojlantirishi, sayyid va ulamolarni izzat-ikrom qilish yo'lidagi yuksak xizmatlari uchun Qutbiddin unvoniga sazovor bo'lganedi. Dinga rivoj berishda Temur qo'llagan birinchi tartib shu ediki, u sayyidlardan layoqatli birini ahli islomga „sadr"— rais qilib tayinlardi. Unga esa vaqf¹⁵larni boshqarish va nazorat qilish ishlari uchun mutavalliyni¹⁶ tanlash, har bir shahar va viloyatga qozi, muftiy¹⁷, muxtasib¹⁸ tayinlash vazifasini yuklaydi. Shuningdek, unga sayyidlar, ulamo, shayxlar va boshqa diniy arboblarga suyurg'ol belgilab, har birining vazifasini belgilashni ham topshiradi.

Shu tariqa Temur islom dinini rivojlantirib, shariatni musulmon mamlakatlariga yoyadi. Shuning uchun ham islom olimlari Amir Temurni o'z davrida dinu islomni jahon ahliga tarqatuvchi, unga rivoj beruvchi ulug' kishi, ya'ni Qutbiddin deb ulug'laydilar (islom dini tarixida Amir Temur bunday unvongaerishgan kishilarning sakkizinchisi bo'lgan).

"Temur tuzuklari" va "Tarjimai hol" ni varaqlar ekanmiz, unda Amir Temurning davlat va siyosiyishlarda a'yonlari va pirlari bilan maslahatlashib ish yuritishni o'zining ilk faoliyatidanoq boshlab yuborganligini ko'ramiz. Ayni paytda, u islom dini va shariatning amaliy, ya'ni mo'minu musulmonlarni faol hayotga undovchi, jamiyatga naf keltiruvchi, xalqqa yaxshilik qiluvchi, beva-bechora va faqirlarga yordam beruvchi aqidalarni keng yoyadi. Temur saltanat kuch-qudratini, raiyat turmushini yaxshilashga, mamlakat osoyishtaligini

¹⁴Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли. (Таржимаи ҳол). Нашрга тайёрловчи, таржимон, сўз боши ва изоҳлар муаллифи А.Аҳмедов. Тошкент.,Нур. 1992. 25-бет.

¹⁵Vaqf-davlat va xususiy kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjid, madrasalar, xonaqoh va mozarlarga ajratilgan mol-mulk.

¹⁶Mutavalliy-vaqf mulki va undan keladigan daromadga vasiylik qiluvchi, uni taqsimlovchi, diniy mansabdor.

¹⁷Muftiy-fatvo beruvchi, diniy muassasalarda qaror chiqaruvchi, diniy mansabdor.

¹⁸Muxtasib-o'rta asr musulmon davlatlarida islom marosimlari, urf-odatlar va shariyat qonunlarining bajarilishini nazorat qiluvchi mansabdor.

ta'minlashga qaratilgan har qanday chora-tadbirlarni islom dini vashariat aqidalariga bog`lab yo`naltiradi, amalda olib boradi.

Temur, ayni paytda, shariat vakillari ichida, axloqsizlik bilan shug`ullanadiganlar, vaqf daromadlarini asossiz ravishda o`zlashtirishga, raiyat haqiga jabr qiluvchilar hamborligini yaxshi tushunganiholda, shariatga bunday xilof ravishda ish yurituvchilar payini qirqishga harakat qiladi. "Har bir mamlakatga shayxulislom yubordimki, toki musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, ularni yaxshi va savob ishlarga undasin".

Shuningdek, Temur saltanatida mexnatsiz, tilanchilik bilan hayot kechiruvchi gadoy qalandalarni kamaytirishga qaratilgan tadbir choralarni amalga oshiradi. Bu choralarga ko`ra, ishga yaroqli odam tilanchilik qilsa, birinchi marta kechirilgan, ish bilan taminlangan, ikkinchi marta takrorlansa qullikka berilgan, ishga yaroqsizlarga esa davlat hisobidan nafaqa berilgan.

Temurning e`tiqodiga ko`ra, har bir ishbilarmon, mard va shijoat egasi, azmi qat`iy, tadbirkor va hushyor kishi minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir¹⁹.

"Temur tuzuklari"da sochilib, ayni paytda, yashirinib yotgan ma'naviyat, bir tomondan, feodal jamiyatni mukammallashtirishga, ikkinchi tomondan, islom ruhiyati va onginisog`lomashtirishga, tarbiyalashga qaratilgan ma'naviyatdir. Buma'naviyatning birinchi qismi markazlashgan feodal jamiyat manfaatlarini mustahkamlashga qaratilgan bo`lsa, ikkinchi qismishu ishlarni amalga oshiruvchi barcha javobgar shaxslar va raiyatga qaratilgan bo`lib, unda Temurning ijtimoiy-siyosiy qarashlari aksettirilgan.

Temur farzandlariga har bir ishda aql-idrok va tadbirkorlik bilan ish yuritishni, biror ishbo`yicha hukm chiqarishdan oldin uning tagiga yetishni har qanday sharoitda ham insoniy fazilatlarni yo`qotmaslikini, xullas, har bir ishni boshlashdan oldin "yetti o`lchab bir kesish" zarurligini uqtiradi. Ayni paytda, Temur ullrga insoniy pok bo`lish, har narsada nafsni tiyish, xudbinlik va buzuqlikdan saqlanish zarurligini tushuntiradi. Raiyatga, kezi kelganda, hatto

¹⁹Амир Темур ўғитлари. Тўплам, Тузувчилар: Б.Ахмедов, А.Аминов, Тошкент. Наврўз, 1992, 11-бет.

dushmanga nisbatan ham xayr-saxovatli, muruvvatli bo'lishlikka undaydi. Ayni paytda, ko'rsatilgan himmatni tushunmagan mamlakatga, podsholikka qarshi Temurning qahri o'tkir, siyosati yovuz, hukmi qat'iyligini ko'ramyz.

Temur, ayni paytda, o'z saltanatidagi shuhrati va qudratini fuqarolariga qilgan qahr-g'azabidan, po'pisasidan emas, balki raxmdilligidan, olijanobligidan, odilligi va himmatidan, deb biladi. "Mening barcha ishlarimda shunday podsholar menga ibrat bo'ldi"²⁰, deb ta'kidlaydi Amir Temur.

Temur kezi kelganda hokimlar, amirlar o'rtasidagi urushjanjallarga chek qo'yish uchun harakat qilgan. Jumladan, kelishuv, murosila bilan bitadigan ishlarni urush va qilich kuchi bilan bajarmagan. Ali Yazdiyning "Zafarnoma" sida keltirilishicha, Temur o'z amirlari oldida so'zlab, amir Husaynning (amir Husayn Chig'atoy ulusining o'ldirilgan amiri Qozog'onning nabirasi bo'lib, u Temur singari Movarounnahr hokimligiga da'vogar edi) gunohlarini kechirgan va Huttalon— Jilyon hokimi Kayxusrovga murojaat qilib, undan ham ukasining o'limi uchun Amir Husayndan o'ch — xun, olmasligini so'ragan va shu bilan hokimlar, zodagonlar o'rtasidagi urush-janjallarga chek qo'yilgan bo'lur edi,- degan» Lekin tarixda amir Husayn xuddi shu Kayxusrov tomonidan o'ldirilganligi ma'lum.

Temur o'z o'g'illari, nevaralari vaqavm-qarindoshlariga tegishli mansab va vazifalar belgilab, agar ular o'z martabasida haddidan oshsalar, "Tuzuklar" ga xilof ish tutsalar, albatta, javobgarlikka tortilishlarini belgilab qo'yadi²¹.

Chunonchi, Temurtaxt vorisligiga tayinlab qo'ygan katta o'g'li Jahongir Mirzo jangda halok bo'lgach, Mironshohning o'g'li, jasur nevarasi Xalil Sultonni bu lavozimga munosib nomzod deb biladi. Ammo Halil Sulton nikohida qonuniy xotini bo'la turib, qo'l ostidagi amirlaridan biri Hoji Sayfuddinining chorisi sohibjamol Shodimulkni yoqtirib qolib, uni pinhona o'z nikohiga oladi. Bundan xabar topgan Temur darg'azab bo'lib, Xalil Sultonni jazolashga, zindonga tashlashga buyuradi. Ammo gunohkorlarni tezda topa olmaydilar. Oraga

²⁰Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси. Т.: 1996. 28-бет.

²¹www.ziyounet.uz

Temurning suyuqli xotini Saroymulkxonim, To`kal xonim va bir necha amirlar kirib, shahzodani og`ir jazodan qutqarib qoladi. Xalil Sulton tavba qiladi, Temur o`zboshimcha nevarasining gunohidan o`tadi-yu, ammo uni valiahd qilish niyatidan butkul qaytadi²².

Amir Temurning siyosiy mushohadalari o`ta keng, ya'ni butun dunyo aqamiyatidagi vatanparvarlik manfa-aglariga sug`orilgan edi. Shuning uchun ham Temur jahon mamlakatlari bilan muomala va munosabatda bo`lishga qiziqardi. Vizantiya, Venetsiya, Genuya, Ispaniya, Fransiya, Angliya mamlakatlari bilan elchilik, tijorat, savdo-sotiq munosabatlarini o`rnatib, bu mamlakatlarning qirollari bilan yozishmalar olib borar edi. Yevropo podshohlari Turk sultoni -yildirim Boyaziddan cho`chib, Amir Temurga umid va muhabbat ko`zi bilan boqardilar. Temurning "yashindan tez va shiddatkor" qaysar Boyazid ustidan qilgan g`alabasidan so`ng` bunday munosabatlar yanada kuchayadi.

Amir Temurning yuqorida nomi tilga olingan xorijiy mamlakatlar va ular orqali butun Yevropa bilan muloqotga kirishi jahon mamlakatlari madaniyati va ma'rifiy dunyosini anglash va shu orqali o`zini to`ldirish, boyitishga bo`lgan intilishning o`zginasi edi. Ayni paytda, Temur bunday munosabatlardan o`z davlatining buyuk qudratini, mamlakatidagi yuksak bunyodkorlik va ma'murchilik saviyasini butun dunyoga ko`z-ko`z qilish yo`lida ham foydalandi²³.

Temurning kosmopolitik ruhi, ya'ni jahonparvarlikka yo`rg`ilgan vatanparvarlik vujudi Mashriqdan Mag`ribgacha mavj urar, shu boisdan ham u qarigan chog`ida o`z nigohini ko`ngliga azaldan tugib qo`ygan Chin mamlakatiga— uzoq Mashriqqa qaratgan edi. Hatto Temurning davlat tamg`asida ham dunyoning uch iqlimi tasvirlanar edi. Ana shu uch iqlimli keng dunyoning markazini Temurbek ikki daryo oralig`ida-o`z Vatani tuprog`ida barpo etgandi.

Amir Temur shunday bir mustahkam, tartibli va osoyishta davlat tuzdiki, "tamom Eronu Turonda biron kishining boshqalarning ishiga aralashish yoki jabru bepok qo`lini bechoralarga ozor berish uchun ko`tarish" ga iloji yo`qedi. Lekin

²² Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент. 2000. 169-бет.

²³ Мухаммаджонов А. Самарқанд-жаҳон жамоли. Мозийдан садо(34)2002. 3-бет.

bunday barqaror va osoyishta davlatni tuzish Amir Temurga osonlikcha kechmadi, albatta. Shu boisdan bo'lsa kerak, Amir Temur o'limi oldidan farzandlariga qilgan vasiyatida"... gunohim qancha ko'p bo'lsa ham kechiringlar deb, tangri taoloning mulkini beqiyos saxiylik bilan qo'riqladim, zolimlarning taarruzli qo'lini mazlumlarning hayot etagidan yulib tashladim.." – deydi. U farzandlariga millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun birgalashib, yakydil bo'lib harakat qilishni, valiahd va taxt vorisi Pirmuhammad Jahongirning esa "tamkinlik va istiqlol bilan mulku millat, lashkar va raiyatning muhim yumushlari bilan mashg'ul bo'lishligini tayinlaydi. Buyuk sohibqiron ona-Vatan va millati haqida qayg'urib, o'z farzandlariga "millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir", deb uqtiradi."Adolat va ozodlik dastingiz, rahbaringiz o'lsin", deydi "Orangizga nifoq tuxumlari ekilmasligi uchun ko'p hushyor bo'ling. . . vasiyatimda sizga idora shaklini, uning ilkularini ko'rsatdim. Bularga sodiq qolsangiz tosh boshingizga tushmas..." deb uqtiradi".

Temur musulmon bo'lganligidan islom aqidalariga rioya qilishni o'zi va farzandlari uchun yuksak burch, e'tiqod deb biladi. U, ayniqsa, odob-axloq bobida o'ta barkamol, ma'naviy ulug' inson edi. Bobomizning namunali fazilatlarini bog'liq bo'lgan bir mo'jaza misolga e'tibor beraylik. U kishi Samarqandda savdo ko'chasini ochishni buyurganda shu munosabat ila uy-joyi buzilgan fuqarolarga kerakli yordam ko'rsatishni shaxsan o'z bo'yiga oladi. U fuqarolardan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalarini yetkazib, unga yordam berilsin, deb amr qiladi. Agar fuqaro "hunar-san'at va ma'rifat ahllaridan bo'lsa, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin", - deb tayinlaydi. Ulug' bobomizning bu kabi amru farmonlari fath etilgan o'zga yurt fuqarolari uchun berilgan bo'lsa, uning o'z mamlakati raiyatiga qanday g'amxo'rlik qilganligini fahmlab olish qiyin emas. Masalan, Temur mamlakatda sun'iy sug'orishga va yangi yerlarni o'zlashtirishga katta e'tibor berib: "Yana amrqildimki, kimki biror sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yo biror bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi -yili undan

hech narsa olmasinlar, ikkinchi -yili raiyat o`z roziligi bilan bergani olinsin, uchinchi -yili esa (oliq-soliq) qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig`ilsin.

Xarob bo`lib yotgan yerlar egasiz bo`lsa, xolisa²⁴ tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo`lsa-yu, lekin obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblari va kerakli narsalar bersinlar, toki o`z yerini obod qilib olsin. Yana amr qildimki xarob bo`lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar ...", deb ko`rsatmalar beradi.

Ko`rib turibmizki, Temur amriga binoan, yangiyerlarni o`zlashtirgan dehqonlarga ikki yilgacha soliqlardan ozod bo`lish imkoniyati yaratilgan. Bundan tashqari, tashlandiq yerlarni ekinzorlarga aylantirmoqchibo`lgan kambag'allarga ot-ulov, omoch, ho`kizlar ijaraga berilgan²⁵.

Amir Temur g`am-g`ussani ham yutuq-hursandchiligini ham hamma vaqt a'yonlari, xalqi bilan birga baham ko`rardi. Ayniqsa," xalq bayramlari, sayyl kunlari, shahar atrofidagi tabiat quchog`iga chiqib xalqqa haq berar, turli tomoshalar, _ o`yin-kulgilar uyushtarar, savdo-do`konlari ochib sovg`a-salomni qizitar edi. Aksariyat hollardabunday xursandchiliklar Obirahmat arig`i bo`yidagi Konigil (hozirgi Cho`ponota qirlari) bag`rida o`tardi. Tomoshalarga ayolu erkak, butun xalq chiqardi, turli-tuman katta-kichik chodirlar, ko`shklar, do`konlar, hunarmandlar esa o`z mollarini sotish uchun hayratomuz va mo`jaz imoratlar, qiziq belgilar yasari edi. Tomoshani Temurning o`zi boshlab berar, yalpi tayyorgarlikni ko`zdan kechirib chiqar edi. Masalan, shunday sa-yillarning birida xalqqa go`shtni qimmat sotgan qassoblarni Temurning o`zi jazoga tortganligi haqida eslatib o`tiladi. Bunday bayramlar xursandchilik kayfiyatida, tomoshazaylida ertadan-kechgacha qizg`in davom etardi, xullas, bobomiz Temur o`zining xursandlik damlarida xalq bilan birga bo`lardi²⁶.

Amir Temur ,o`zxulq-atvori va atrofdagilarga nisbatan muomalasi bilan ko`pchilikka o`rnak bo`lgan. Ayollarga alohida mehr-muhabbat bilan qaragan, ularning dardu hasratlariga quloq tutgan. Xotinlari, kelinlari va qiz-nabiralari sharafiga xushhavo bog`-saroyla qurdirgani. Ayollar to`y shodiyonalarda va

²⁴Xolisa-davlat daromdi va yerlari bilan shug`ullanuvchi muassasa.

²⁵Уролов А,Хожихонов М.Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарқанд., Сугдиён. 1996. 22-бет.

²⁶Мамарахимов К., Бердимуродов А. Самарқанд., Т. 2000. 59-бет.

bazmlarda erkaklar bilan baravar ishtirok etganlar. Temur, ayniqsa, katta xotini Saroymulkxonimni chuqur hurmat qilgani bois ko'pchilik nevaralarini uning ixtiyoriga tarbiyaga beradi. Temur opasi Qutlug' Turkon og'oni ham juda hurmat qilgan, uning vafotidan so'ng qattiq qayg'uga botib uzoq aza tutgan. "Temur tuzuklari" ni o'qib shu narsaga ishonchimiz komil bo'ladiki, uning aksariyat satrlarida kishi ruhiga yorug'lik beradigan ilohiy nur bor. Bu narsa, tabiiyki, o'z navbatida, islom dini va ma'naviyati yoxud hadislarga borib manba oladi. Amir Temurning xristian dinidagi yevropaliklarga quloq tutgani, ular bilan do'stona iqtisodiy aloqalar olib borgan buning dalilidir. Amir Temurning olijanob xulq-atvori va insoniy fazilatlari haqida gapirar ekanmiz, buning manbai aslida nimada ekanligini anglashimiz zarur. U Amir Temurning Qur'oni Karim va hadislar mohiyatini, musulmon Sharqi ma'naviy olamini, ilmi hikmat va ilmi kalomni puxta egallaganligidadir.

Chunki dinu islomda "Qutbiddin" deb nom olgan bunday ulug' zotning haj farzini bajo etishligi tabiiy bir holdir. Tarixiy manbalarda Amir Temurdek buyuk musulmon sultonlarining haj safariniado etganliklari kamdankam yozilgan. Fikrimizcha, solnomachilar oddiy musulmon fuqarosining bajarishi zarur bo'lgan bunday farzni buyuk shohlarga nisbatlab qayd etishni o'zlariga ep ko'rmaganlar.

Amir Temurning diniy, ijtimoiy, siyosiy va axloqiy ma'naviyati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ijtimoiy faoliyatidagi qadriyatlar o'sha davrda keng yoyilgan "Naqshbandiya" ta'limoti bilan bog'liqligini ko'ramiz²⁷. Temur piri Abu Bakr Tayobodiydan yo'l-yo'riqlar va pandnasihatlar so'raganida u kishi Temurga duoyi fotiha berib, qo'lidagi chig'anoq uzugini hadya qilgan ekan. Urukning ko'ziga forsha: "rosti-rasti" degan so'zlar yozilgan bo'lib, ularning ma'nosi "kuch adolatdadir, adolat esa haqiqat, tartibintizom demakdir", degani ekan. Darqahiqat, Temur butun umri bo'yicha adolat va tartibintizom, iymon bilan yashadi, o'z zamonasi va sinfining adolatli vakili sifatida mardonavor kurashlarda mardlarcha g'olib chiqib Vatani va turk millatiningdardiga darmon bo'lib yashadi²⁸.

²⁷ www.vsetut.uz

²⁸ Temur tuzuklari. Forschadan A. So'g'uniy va X. Karomatov tarjimasi. T.: 1996. 41-bet.

1.2. Amir Temur va Samarqand me'morchiligi.

Temur Samarqandda eng avval (1371— 1373) mo'g'ul istilochilari vayron qilgandan so'ng ham 150yil davomida tiklanmay kelayotganshahar tashqi mudofaa devori va darvozalarini yangitadan qurdiradi. Shahar osma suvyo'li (Juyi arziz) yakeon etilishi tufayli suvsizqolgan Samarqand mahallalariga Zarafshondan suv keltiradi. Bu bilan u shahar aholisining tinchligini saqlash, nufuz-e'tiborini ta'minlash mahallalarini obod etish ishlarini yo'lgaqo'yadi.

Shaharda Temur tiklagan mudofaa devori o'ta mustahkam, baland, olti darvozali bo'lib uni shunchalik mahobatli ediki ayrim joylarida, masalan, Feruza darvozasidan Shahzoda darvozasigacha hatgo devor ustidan otda yurish ham mumkin bo'lgan.

Ayni paytda, Temur Samarqandda o'z saltanatining qo'rg'oni Ark qal'a va undagi muhtasham saroylarni qurdiradi. Ark-qal'a shahar tashqi mudofaa devorining g'arbiy qismiga tutash mahobatli ichki qo'rg'onhisoblangan. Shahar tashqi mudofaa devorining uzunligi, Bobur iborasi bilan aytganda, "o'n ming olti yuz qadam", ya'ni taxminan 10 kilometrga yaqin va oltita munaqqash darvozalari bo'lgan²⁹. Qal'a ichida xalq tilida Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy deb atalgan ulug'vor binolar qurilgan bo'lib, ular bu yerda yaqinda hindistonliklar qurgan mehmonxonaning shimoliy qismida joylashgan edi. Ushbu mahobatli saroylardan tashqari, arkda masjid, kutubxona, shohona uy-joylar, Amir Temurning xazinasini va taxtgohi, pul zarblanadigan qo'ra, qator aslahasozlik ustaxonalari, hammomlar hamda zindon ham bo'lib, atrofi baland va qalindevor bilan o'ralgan edi. Ko'ksaroy to'rt qavatli muhtasham bino bo'lib, yuksak mahoratva did bilan bezatilgan. Oldida chorbog'i bo'lgan Bo'stonsaroy esa Ko'k saroy yonida, uning shimoliy qismida joylashgan edi. Shahar arki daxlsizligini uning 8 metrlik chamasibaland devorini o'rab olgan suvga to'la chuqur xandaq ta'minalab turardi. Ark darvozalaridan biri o'shadavrda shahar savdo markazi hisoblangan hozirgi Registon maydoni bilan keng ko'priklar va ko'cha orqalibog'langan edi. Registondagi hozirgi Sherdor madrasasi hududida

²⁹Алексеров Ю.Самарканд. страницы истории. Т.:1967. С. 71.

Temurning xotini Tuman og`o qurdirgan ko`p gumbazli kattakon Chorsu-“Timi kulaxfurushon” joylashgan edi³⁰.

Amir Temur Samarqandni ma'rifat hunarmandchilik va savdo markaziga aylanadi. Shaharning Ohanin darvozasidan Chorsu darvozasigacha Registon maydoniorqali o`tdigan savdo rastalari ko`rinishida ko`cha ochishni buyuradi. Ushbu ko`chaning shaharsozlikda tutgan o`rni haqida 1404-yili Samarqandga Temur huzuriga tashrif buyurgan ispan elchisi Klavixo shunday deb yozadi: Samarqand shahriga har yili ko`plabturlituman mollar olib kelinadi. Unda ana shu mollarni tartib bilan sotish uchun katta bir joy bo`lmaganligi sababli podishoh shahar bo`ylab ikki tarafida mol sotiladigan do`konlar hamda hujralar o`rnashgan ko`cha o`tkazishni buyuradi. Shaharning bir chekkasidan boshlanadigan bu ko`cha uni kesib o`tib, narigi chekkasiga borib yetishi kerak edi. Kattakonko`cha ochib, ikki tomoniga hujralar qurdilar, harbir hujra oldida oq tosh qonlangan baland supachalar bor edi. Hamma hujralarqo`sh oshyonli, bugun ko`cha usti tuynukli qator gumbazlar bilanyopilgan, tepadagi derazalardan yorug`tushib turar edi. Ko`chaning ayrim joylariga hovuzlar qurilgan. Kunduzi ishlaydiganlar kech kirishi bilan ketib, kechasi boshqalar ishlagani keladilar. Birovlar imorat buzishsa, boshqalari yertekislaydi, yana birovleri quradilar. Yigirma kun o`tgancha shuncha ish amalga oshirildiki, kishi hayratga tushadi”³¹. Ko`chaning Ohanin darvozasidan Registon maydonigacha qismi bitkazilib, qolgan qismi fikrimizcha harbiy Safarlar boshlanishi tufayli bitmay qoladi. O`shanda Klavixo Samarqandning hozirgi Toshkent ko`chasida "Bibixonim" masjididan to Registon maydonigacha tashkil etilgan qator savdo do`konlari o`rnida qad ko`targan uzunligi taxminan 800 metr bo`lgan usti yopiq savdo rastalarini tomosha qilgan edi. Bizning zamonamizda mustaqillikning sharofati bilan ushbu qadimiy savdo ko`chasi qayta shaklantirildi. Lekin ilgari yopiq bo`lgan ko`cha usti ochiq qoldirildi. Undan yaqin -yillargacha jamoa transportlari qatnagani uchun ko`chaga odatdagidek- asfalt yogqizilgan edi. Ko`chaning torligi uchun uning yonidagi yo`laklarga daraxt o`tkazilmadi. Shular

³⁰ Мамарахимов К., Бердимуродов А. Самарқанд., Т. 2000. 39-бет.

³¹ Рун Гонсалес де Клавихо. Самарқандга-Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406йиллар). Т.:2010. 151-бет.

sabab jazirama yoz kunlari piyodalarga ko'cha bo'ylab harakat qilish juda qiyin. Qadimda bobokalonlarimizning bu muammoni juda mumtoz uslublarda hal qilganliklarini ko'rib qo'yil qolasan kishi! Salkam bir kilometrga yaqin ko'cha usti gumbazlar bilan yopilib, ulardan tushgan yorug'likko'chani yoritgan. Ko'cha bo'ylab qo'yilgan hovuz-favvoralar (ular-ning ishlab turganini Klavixo ko'rgan) savdorastalaridek gavjum joyda qulay mikroiklim va shinam sharkona muhit yaratgan.

Ayny paytda, Temur buyrug'i bilan shahar darvozalaridanRegiston maydoniga olib chiquvchi obodko'chalarqurilgan edi. Ushbu ko'chalar bo'ylab keyinchalik yangimahallalar, masjidu madrasalar, hammom va guzarlar shakllana boshlagan.

Bugungi kunda Toshkent ko'chasi deb atalmish bu ko'cha o'z qiyofasini butkul o'zgartirgan. Yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi bilan bu ko'cha qayta tiklanib asphalt yo'l buzilib avtomobil harakati to'xtatilib "yo'lbarslar hiyoboni" deb atalgan sa-yilgoh tashkil qilindi.

Samarqandning XIV asrdagi me'moriy va manzaraviy qiyofasi Temurning farmoyishlariga ko'ra qurilgan shahar ichidagi inshootlar va shahar chetlaridagi bog'-rog'lar bilan belgilanar edi. Ularning turarjoy bynolari uzra qad ko'tarib turgan serhasham gumbaz-lari, adlqomat minoralari va ulug'vor peshtoqlari shaharning asosiy nuktalarini, umumiy manzarasini ifoda etardi. Shaharning janubiy g'arbiy qismidagi Chorsu darvozasi yaqinida Temurning nabirasiMuhammad Sulton xonaqosi va madrasasi, keyinchalik qayta qurilib Temurning o'zi, avlodlari dafn etilganmaqbaradan iborat Go'ri Amir nomi bilan mashhur binolar turkumi, G'arbda Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy joylashganshahar istehkom qal'asi - Ark, shimoli-sharqdagi Ohanin darvozasi yaqinidagi qo'sh binolarTemurning jome masjidi va uning qarshisidagi Bibixonim madrasasi, yana undan g'arbroqda, Afrosiyob etagidagi Shohizinda qabristoni hamda shahar atrofidagi bog'-rog'lar va ulardagi ko'shku saroylar edi.

1399-yilning may oyida Temur Hindiston safaridan qaytgach Samarqandda uning farmoni bilan yangi jome masjidi (hozirgi Bibixonim masjidi) ning

qurilishi boshlanadi³². Temur davlatining poytaxtiga har tomonlama zeb berarkan, hajm jihatidan tobora maxobatliroq, shaharsozlikda tutgan mavqeyi jihatdan ahamiyatliroq binolar qurishni, ulaning tashqari va ichki tomonlarini, hashamatliroq betakror bezashni buyuradi. Jome masjidining ham ko'lam va mahobati Temur davlati dovrug'iga mos tushmog'i lozim edi. Ayni paytda masjid Temurning, islom diniga, Allohga bo'lgan e'tiqodini o'zida mujassamlantirmog'i lozim edi. Temur har bir binoning avval tarhi, tarzi va tuzilishini me'mor va muhandislar muhokamasi, hokimiyat ko'rigidan o'tishini talab qilardi. Kezi kelganda bunday muhokamalarda shaxsano'zi qatnashib, bo'lajak binoning tarhi va shakli shamo-yili bilan qiziqar, me'mor-muhandislarga o'rinli maslahatlar berar edi. Temur o'zining "Tuzuklar" ida: "Muhandislar bilan ittifoqda oliy imoratlar barpo etib, bog'u bo'stonlarning loyihalarini chizdirdim"³³ — deb ta'kidlaydi.

Jome masjidi loyihasini Turkiston hamda Yaqin va O'rta Sharqdan chiqqan eng mohir me'morlar tuzgan edilar "Masjid qurilishiga Ozarbayjon, Fors, Hindiston vaboshqa mamlakatlardan (keltirilgan) 500 nafar sangtarosh jalb egildi, - deb yozadi. Sharafiddin Ali Yazdiy, — yana boshqa 500 kishi tog'larda tosh kesib, shaharga jo'natishdek (og'ir ishda) chidam ko'rsatdilar"³⁴.

Temur jome masjidining el-yurt orasidagi obro'iga alohida e'tibor berib, masjidni qurish ishlariga shaxsan o'zi qiziqqan. Masjid binosining tarhi tayyorlanib tasdiqlangach, qurilishni boshlab yubortiradi. Lekin Temur galdagi "yetti -yillik" jangovar yurishini boshlash arafasida edi. Shunga qaramay, qurilish sur'ati aslo pasaymaydi, mahobatli va muhtasham masjid binosi qurib bitkaziladi. Lekin bu paytda Temur safarda edi. Ayni paytda, Temurning katta xotini Saroy mulkxonim (Bibihonim) bunyod etilayotgan jome yonida jozibali va ulug'vor madrasa qurilishini boshlab yuboradi. Tarixchi Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, quruvchilar "madrasa darvozasi va devorlarini jomega

³² Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Форс тилидан А.Ўринбоев ва Ш.Мусаевларни терма таржимаси. Мулоқот. 1991. 1-сон, 72-бет.

³³ Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси. Т.: 1996. 85-бет.

³⁴ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Форс тилидан А.Ўринбоев ва Ш.Мусаевларни терма таржимаси. Мулоқот. 1991. 1-сон, 73-бет.

nisbatan baland ko`taradidar. Natijada madrasa asosi jome [asosi] dan mustahkam, balandlikda jome'dan ko`ra yuqori bo`ladi³⁵.

Jome masjidi Samarqanddagi boshqa imoratlardan, ayniqsa, o`ymakor marmardan yasalgan 480 pillapoya ustunlari, darvozaband ulkan ravoqi, masjid bynosining gumbazi va peshtoqining mahobati, go`zal bezaklari bilan ajralib turardi. Keng va uzun hovli (76X64 metr) atrofidagi qatormarmar ustunlar ustiga o`rnatilgan toqilar, hovlining ko`ndalangqisimi bo`yicha bir-birining ro`parasida qurilgan qobirg`a koshin gumbazli ikkita yonbosh binolar, toshlardan farshlangan hovli atrofidagi turnaqator ravoqli peshayvonlar, hovlining to`rt burchagida va masjid peshtoqi bilan ulug`vor darvoza peshtoqining yonlarida qad ko`targan adlqomat minoralar va rango-rang bezaklar o`zaro uyg`unlashib kishini hayratlantirar edi.

Me'morchilikning shunday uslubida keyinroq qurilgan binolar, masalan Isfahondagi Maydonishohda joylashgan Masjidi Kabir, Qum va Mashhaddagi maqbaralar Temur himmati bilan Samarqanda bunyodetilgan jome masjidiga nisbagan takroriydir.

Zamonlar o`tishi bilan kuchli talafot ko`rgan Samarqand jome masjidining me'moriymahobati hanuzgachazamondoshlarimizni hayratga soladi. Temur Shohizinda qabristonini ham diqqatdan chetda qoldirmaydi, u Qusam ibn Abbos maqbarasidovrug`ini yanada oshirishga intyladi. Temur nazdida "Olamning qutbi", "Ro`yi zaminning sayqali" Samarqand o`z Makkasiga ega bo`lishi kerak edi. Bunday ziyoratgoh joyshaharning siyosiy va g`oyaviy nufuzini oshirar, Temurning mo`min-musulmonlar orasidagi hurmati yanada kengayar edi³⁶.

Avval Temur nihoyatda qunt va dabdaba bilan Qusam ibn Abbos qabri ustidagi binoni bezattiradi. Shundan so`ng birma-bir Temurning qarindosh-urug`lari va a'yonlari uchun maqbaralar bunyod etish boshlanadi. Bu yerda Temurning sarkardalaridan biri amir HusaynningonasiTug`luqtekin uchun ham maqbar quriladi, Amir Temur singlisi Shirinbeka vafotidan so`ng (1385-

³⁵ Ибн Арабшох. Темур тарихида тақдир ажойиботлари.(араб тилидан таржима, изоҳлар ва сўз бошт У.Уватовники). 2-к.Т.:1991. 73-бет.

³⁶ Ўролов А,Хожихонов М.Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарқанд., Сугдиён. 1996. 31-бет.

yili)unga atab maqbara qurdiradi. Maqbara bir xonali bo'lsada, yonidagi Turkan og'o va Amirzoda maqbaralaridan farqli o'laroq, peshtoqli va baland gumbazli, nihoyatda go'zal imorat tashqarisi chorqirra bo'lib, ustiga 16 rahli gardish va qo'shgumbaz o'rnatilgan. Peshtoqi yorqin ko'k rangli nozik islomiy terma o'ymakor koshinlar bilan shunday naqshlanganki, bunday naqsh Samarhandda birinchi bor qo'llanilgan edi. Koshinkoriy gumbaz esa girih naqshlar bilan bezatilgan.

Amir Temurning Samarqandda bunyod ettirgan obidalaridan yana biri temuriylar sulolasining xilxonasi sifatida dovrug'i olamga ketgan Go'ri Amir maqbarasidir. Dastlab (1399-1400-yillar) bu yerda Temurning nabirasi, valiahdi shahzoda Muhammad Sulton nomidan madrasa va xonaqoh quriladi³⁷. Madrasa aslzoda xonadonlarining farzandlariga dunyoviy ilmlardan ta'lim berish va ularni davlat xizmatiga tayyorlashga, xonaqoh esa dongdor ziyoratchilarni qabul qilishga mo'ljallangan edi. Madrasa va xonaqoh chortaraf hovlining qarama-qarshi tomonlariga joylashtirilib, yaxlit me'moriy ansambl (majmua) tashkil qilinadi. Hovli baland peshtoq, bir maromda joylashgan ravoqlar, ayvonlar va ustunlar bilan bezatilib, burchaklariga tik minoralar o'rnatilgan. 1403-yili yosh shahzoda Muhammad Sulton harbiy safarda kasallanib vafot eggach Sultoniya quriladi. Bir -yildan so'ng uning jasi Samarqandga olib kelinib vaqtincha madrasa xonaqohsining gumbazi ostiga dafn etiladi. 1404-yilning kuzida Amir Temur g'arb safaridan qaytgach, Mudammad Sulton uchun ushbu majmuaning janub qismidagi ayvonga tutash qilib sag'anali, alohida tantanavor, serhasham bir maqbara qurishga farmonioliy beradi. 1405-yili Temurning o'zi ham Xitoy yurishi vaqtida vafot etgach, u nevarasining yoniga dafn etiladi va maqbara "Go'ri Amir maqbarasi" deb nom oladi. Shundan so'ng ushbu obida temuriylar sulolasining xilxonasigi aylanadi. Unda Amir Temur va Muhammad Sulton sag'analaridan tashqari, sohibqironning ikki o'g'li — Shohrux va Mironshoh, nabirasi Mirzo Ulug'bek, Temurning piri shayx Sayid Baraka va maqbaraning qibla tarafidagi supa ustida Mir Sayid Umarning sag'analari ham bor, u kishi tasavvuf ahlining ulug'

³⁷ Каттаев К. Гўри Амир мақбараси. Мерос газетаси, 1992. Феврал.

namoyandalaridan biri bo`lib temuriylarga pir sanalgan. Maqbarada yana ikki kichik qabr bor. Ular Ulug`bek Mirzoning go`dakligida vafot etgan o`g`illari: Abdullo Mirzo (1420-y. tug`ilgan) va Abdurahmon Mirzo (1421-y, tug`ilib 1432-y. vafot etgan) larga tegishlidir³⁸.

Mavridi kelganda shuniham aytish mumkinki, buyuk bobomiz ko`zlari tirigida o`z sag`anasini piri shayx Sayid Barakaning oyoq uchlariga qo`yishni vasiyat qilgan ekanlar. Hozir maqbaradagi sag`analar bobomiz vasiyatiga binoan joylashtirylgan.

Go`ri Amir ansamblini tashkil qiluvchi obidalar: maqbara, madrasa, xonaqohlarning me'moriy tuzilishi, hajm-fazoviy hamohangligi, naqshlari va turli bezaklari alohida mahorat bilan yaratilgan. Ansamblning hozirgi ko`rki va faxri Go`ri Amir maqbarasining gumbazidir. Gumbazdagi rangdor naqshlar yorqinligi va serjiloligi bilan kishini hayraglantiradi. Maqbaraning ichkarisiga dabdabali va tantanavor ko`rk berilgan. Gardishdagi naqshinkor panjaralardan tushgan shu`la devordagi naqshinlarga zarrin tus baxsh etadi. Yulduzlar, handasiy shakllar aks ettirilg`an rangdor lavhalar, gumbaz va ravoqlar zarhal hamda lojuvard bo`yoq bilan qoplangan. Qabr toshlari qo`-yilgan ulug`vor va hashamatli zalni ziyoratxona deb atashadi. Chambarak ichki gumbaz ostidagi bo`rtma qog`ozdan tayyorlangan "kundal" o`ta chiroyli va jimjimador. Ayniqsa, oltin va kumush qandillardagi shamchalar yonganda ziyoratgoh ichkarisi qandaydir ulug`vor va afsonaviy tus oladi. Bu go`zal maqbara bugungi kunda faqat Amir Temur xotirasigagina yodgorlik bo`lmay, o`sha davr me'morlari, mohir rassomlar, naqqoshlar sharafiga ham o`rnatilgan haykal bo`lib kelmoqda. Go`ri Amir maqbarasiga kiraverishdagi peshtoqda: "Muhammad ibn Mahmud Isfahoniyning amalidir" degan yozuv bo`lib, bu me'morning nomidir³⁹.

Amir Temur nomi bilan bog`liq bo`lgan maqbaralardan yana biri XIV asrning 80-yillarida qurilgan hazrati Ruxobod maqbarasidir. Maqbarada Temur o`zining pirlari qatoriga qo`ygan kishi XII asrning yirik ruhoniylaridan biri

³⁸ Каттаев К. Гўри Амир мақбараси. Самарканд газетаси, 1992. №8, 15 август.

³⁹ Бердимуродов А. Гўри Амир мақбараси. Самарканд. 1996. 28-бет.

shayx Burhoniddin Sog'arjiyqabri bor. Maqbara me'moriy jihatdan o'zining monumentalligi bilan ajralib turadi. U tashqaridandeyarli bezaksiz, tarhi chorsi, ya'nikvadrat, ichki bezaklari hashamdor qilib ishlangan.

Hozirgi Cho'ponota tepaligidagi maqbarani ham Amir Temur qurdirgan deyiladi. Rivoyat qilinishicha, Cho'ponota Sayid otaning xalifalaridan bo'lib, ushbu tepalikda cho'ponlik qilarekan. Maqbara tashqarisidan bezaksiz bo'lsa-da, gumbazi feruza koshin bilanqoplangan. Maqbara binosining hajm-fazoviy tuzilishi uzining mahobatlilik bilandiqqatga sazovor. Bino qurilmalari ayniqsa qiziqarlidir. Maqbara tashqi va ichkigumbazlarga ega. Tarhdagi burchaklardan chiqqan ravoqlarga ichki gumbaz qo'yilgan. Tashqi gumbaz esa baland dumaloq gardishga, gardish kvadrat devor tepasidagi olti qirrali asosga o'rnatilgan. Bunday qurilma uslubi Cho'ponota maqbarasida ilk bor qo'llanilib, keyinchalik u Ishratxona va Samarqanddagi Oqsaroy binolarida mukammallashtirilgan⁴⁰.

Amir TemurSamarqandda bunyod etgan va hozirgacha saqlanib qolgan noyob obidalarning biri Ishratxona yodgorligidir. Obidani biz yaqin kunlargacha Abu Sayd Mirzoning xotini Habiba Sultonbegim (XV asr) bevaqt vafot etgan suyuqli qizi Xovand Sulton bekaga atab qurdirgan maqbara deb bilardik. Bu muhtasham obidani Amir Temur alohida ixlos bilan bunyod etgan ertaknamo bog'lardan biri—Bog'i Dilkusho ichidagi ulug'vor ko'shk ekanligini isbot qildi⁴¹. Amir Temur0 Klavixo bilan kelgan ispan elchilarini xuddi manashu manzilda qabul qilg'an ekan. Ishratxona o'z davridagi binolar ichida yangi uslubdagi me'moriy qurilmalari bilan ajralib turgan. O'rtadagi katta xona—miyon saroy ustidagi bir-biri bilan kesishadigan to'rtta ravoq qurilmasi bunga misol bo'la olgan. Bu uslub gumbazli binolarning yanada mustahkam bo'lishini ta'minlagan. Bundan tashqari, binoga zebu ziynat berishda ham yangi usullardan foydalanilgan. Masalan, devorga naqsh solishda "kundal" (tilla qoplangan qog'oz bo'rtma naqshlar) uslubi ilk bor shu yerda—Ishratxona bezaklarida qo'llanilgan.

⁴⁰Ўролов А,Хожихонов М.Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарқанд., Сугдиён. 1996. 34-бет.

⁴¹Пўлат Зоҳидов. Зеб ичра зийнат. Т.: 1985. 52-бет.

Samarqandning Siyob bozori yonidagi Bibixonim masjidini aslida sohibqiron Amir Temur qurdirganligi hozir hammaga ayon. Uni Temur shaharning jome masjidi sifatida o`zining Hindiston yurishidan so`ng bunyod etishga amr qilgan va qurilish besh yil (1399— 1404-yillar) davom etgan.

Xo`sh, unday bo`lsa masjid nega Bibixonim nomi bilan ataladi? Ma'lumki, Amir Temur Movarounnahr hukmdori Amir Husaynni 1370-yilda yengib hokimiyatni qo`lga kiritgandan so`ng Samarqandni poytaxtga aylantirgan. Jome masjidini qurishga esa u shundan 29 yil o`tgach amr qiladi. Nega, shu yillar Temur poytaxtda masjid qurmadi? Axir u dini islom homiysi, taqvodor musulmon ediku? Yoki sarf-xarajatlar uchun mablag`u kuch yetishmadimikin? Agar shunday desak, o`tgan yillar ichida Temur ne ne shohona qurilishlar qilmadi. Shahrisabzda Oqsaroydek mahobatli va munaqqash majmua inshoot, Samarqand va Shahrisabzda ulkan istehkom—mudofaa devorlari, Samarqanddagi Arkqal'a va undagi saroylar, bir-biridan go`zal maqbaralar, dilkusho, mo`jizakor bog`-rog`lar bunyod etildi. Albatta, Amir Temurdek islom dini homiysida saltanatga xos jome masjidini qurish niyati ancha ilgari bo`lgan. Ammo saltanat uchun saroylar shahar aholisi osoyishtaligi uchun istehkomlar zarur edi. Maqbara va bog`-rog`lar qurish esa davr talabi bo`lib, vaqt kutib turmasdi. Shu boisdan Temur shahar jome masjidini qurishga qulay vaziyat va saodatli bir kunni niyat qilgandi. Samarqandda azaldan foydalanib kelinayotgan shahar jome masjidida musulmonlar namoz o`qishardi. Shuni aytish kerakki, Amir Temur davrida Samarqandda hunarmandchilikning barcha sohalari tijorat, savdo rivojlandi. Bozorlar gavjum, fozilu ulamolar ko`p, xullas, xalq tirband edi. Tabiiyki bunday sharoitda shaharning jome masjidida ahli musulmonlarga joy yetishmay qolayotgandi.

Amir Temurning Hindiston safari uning ko`ngliga tugib qo`ygan masjid qurilishi haqidagi niyatini tezlatadi. U Hindistondan nafaqat katta moddiy boylik, balki ma'naviy xazina ham olib kelgandi. Hindistonlik yuzlab mohir sangtaroshlar, me'moru muhandislar, ishchi fillar ham jome masjidi qurilishida juda asqotdi. Xullas, jome masjidi qurilishida hindistonlik ustalar hamishtirok

etishdi. Albatta Temur masjidni o'zi qurdirgan boshqa imoratlar qatori saltanatga xos, Dehlida o'zi tomosha aylagan ibodatxonadan ham mahobatli, musulmon dunyosida yagona bo'lishligini istaydi. Shuinning uchun ham u me'morlarga jomening shaklu shamoyilini, loyiha chizmasini tayyorlashni buyuradi. Masjid biz uni hozir qanday tasavvur etsak, xuddi shunday yoki shunga yaqin (albatta mahobatli va chiroyli) ko'rinishda bo'lgan degan o'ydami. Chunki jome masjidini Amir Temurdan keyin qayta qurib, unga o'zgarish kiritgan kishini biz tarixdan bilmaymiz. To'g'ri, Ulug'bek uni keyinchalik ta'mirlagan, to'g'rirog'i, tuzatgan, xolos. Lekin shaklu-shamoyilini o'zgargirmagan⁴².

Hovlini o'rab turgan tosh ustunli qator peshayvonlar (hozir ular buzilib ketgan), bosh dargohdagi qo'sh ravoqli va minorali ulkan peshtoq, ikki yondagi bir biriga muqobil joylashgan qobirg'a gumbazli kichik binolar esa madrasa, aniqrog'i, Bibixonim madrasasi ekan⁴³. Ana shu ikki bir-biriga muqobil binolar madrasaning darsxonalari bo'lgan. Jomening madrasa qismini xalq orasida og'izdan-og'izga-o'tib kelayotgan Temurning katta xotini Bibixonim qurdirib, tugallatganligini aytadi. Hozir o'sha yerda qayta ta'mirlanayotgan maqbara ushbu madrasa tarkibida bo'lgan, deganyozma fikrlar mavjud. Bu fikr maqbarada dafn etilgan Saroymulxonim qabri tushunchasidan kelib chiqqan bo'lsa ajabmas. Har qalay bular hali isbot talab qiladigan muammolardir⁴⁴.

Rivoyatlarga quloq tutsak, Bibixonim madrasani savob uchun xudo yo'lga Amir Temurdan ijozat so'rab o'z jamg'armasi hisobiga qurdiradi. „Amir Temur tarixi“ ning muallifi Ibn Arabshoh ushbu madrasa qurilishi haqida: "Temurning bosh xotini katta malika ham bir madrasa buyurgan edi. Me'mor va muhandislar bu madrasaning joyi Temur qurishga buyurgan jome binosi muqobilida bo'lishini lozim topdilar", deb yozadi. Ko'rinib turibdiki, Bibixonim madrasasi jome qarshisida alohida joylashgan bino bo'lgan, Uning masjid qarshisida qurilishi masalasiga kelsak, bunga ham Bibixonim Temurning roziligini olgan bo'lishi muqarrar.

⁴²Пулат Зоҳидов. Темур даврининг меъморий кахкошони. Т.:1996. 32-бет.

⁴³Ўролов А. Амир Темурнинг жомеъ масжиди. Зарафшон, 1992. 22, 25 август.

⁴⁴Ўролов А., Хожихонов М. Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарқанд., Сугдиён. 1996. 36-бет.

1.3. Amir Temurning o`zga yurtlardagi bunyodkorlik va ma'murchilik ishlari.

Biz yuqoridagi malumotlarimizda Amir Temurga qadrdon bo`lg`an shaharlar — Samarqand va uning Vatani Movarounnahr hududida olib borgan bunyodkorlik va obodonchilik, ma'rifiy-madaniy ishlariga to`xtab o`tdik. Bundan guyo Amir Temur o`z vatanidan boshqa yurtlarda vayronagarchilik bilan shug`ullangan degan fikr kelib chiqmasligi kerak, albatta.

Hurmatli akademik Ibrohim Mo`minov Amir Temurning O`rta Osiyo tarixida tutgan o`rni haqida fikr yuritar ekan, sohibqironning hayoti va faoliya-tini bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki davrga bo`ladi.

Birinchi davr 1330—1386-yillarni o`z ichiga olib, bu davrda Temur Movarounnahrda mo`g`ul xonligidan mustaqil, kuchli markazlashgan davlat tuzish yo`lida kurash olib boradi. Temur faoliyatining ikkinchi davri, asosan, 1386-yildan boshlanib 1402-yilgacha davom etadi. Bu davrda Temur Movzrounnahrdan o`zga yurtlarda „uch yillik“, „besh yillik“ va „etti yillik“ deb ataluvchi urushlar olib boradi⁴⁵.

Agar biz Temur tarixi bayoni haqidagi tarixiy asarlarga murojaat etsak, Temurning o`zga yurtlarga qilg`an jang`ovar yurishlari va oqibatdagi vayronagarchilik va xunrezliklar Temur davlatiga qaratilgan biron-bir jiddiy siyosiy harakatga javob tariqasida ro`y berganligining guvohi bo`lamiz. Temur har safar o`ziningg`olibona qurolini zamonasi zayliga ko`ra ishga solgan, jang qurbonlari va vayronagarchiliklar ham biror og`ir jinoyat uchun olingan qasos tarzida kechgan. To`g`ri, bu qasos juda iztirobli, lekin, ayni paytda, adolatli bo`lgan. Mabodo aholisi bo`ysunmagan biror shaharga nisbatan Temur boshda qahr qilib, uni vayronaga aylantirgan bo`lsa ham, keyinchalik uni qaytadan tiklatib, obod va ma'mur makonga aylantirgan. Buni o`z vaqtida tan olgan rus akademigi V. V. Bartold quyidagicha yozadi: „Temur bir vaqtning o`zida ashaddiy buzg`unchi va tashabbuskor quruvchi edi: u buyuk imoratlar barpo etdi va ularni ulkan

⁴⁵ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент. 2000. 171-бет

bog`u rog`lar bilan o`radi, shahar va qishloqlarni tikladi, suv inshootlari qurdi va buzilganlarini tuzatdi. Temurning bunyodkorlik faoliyati ham uning qilgan vayronagarchiliklari kabi kishini hayratga tushiradi"<sup>46</sup>. Albatta, Temur o`zga yurtlardan juda katta moddiy va ma'naviy boyliklar yig`ib qaytadi. Moddiy boyliklarni keng bunyodkorlik ishlariga, ma'naviyat egalari kuchini esa ijodiyotga yo`naltirgan. Muhimi shundaki, bunday bunyodkorlik ishlarini Temur nafaqat o`zining qadrdon shaharlari va Vatanida, balki o`zga yurtlarla ham amalga oshirgan. Shuning uchun ham mashhur venger olimi Herman Vamberi „Temurni Chingizxon bilan bir qatorga qo`yib, uni yovuz, o`zboshimcha, mustabid hokim deb atovchilarning fikrlari ikki marotaba xatodir",— deb juda to`g`ri yozgan edi.

Darhaqiqat, „Zafarnoma” ni o`qir ekanmiz, Amir Temur haqidagi bu muhim fikr yanada oydinlashadi. „Bir yil mobaynida, — deb yozadi Ali Yazdiy, Bag`dod shahrini tiklash haqida buyruq berildi, toki shaharyana o`z qiyofasini olsin, unda hunarmandchilik rivojlansin, tevarak-atrofdagi deqqonchilik o`ssin, savdo-sotiq va madaniy hayot keng tarmoq yoysin, islom bilimi ilgarigiday yo-yilsin. Bu vazifa amirzoda Abu Bakrga topshirildi"⁴⁷.

Sobiq sovet olimlari ichida V. V. Bartold birinchi bo`lib Temurning Movarounnahrda o`zga yurtlarda amalga oshirgan bunyodkorlik ishlariga e'tibor berib Temurni „Kobul vodiysi va Mug`an cho`li kabi Samarqanddan uzoq bo`lgan joylarda ham ulkan sug`orish ishlari olib bordi", — deb yozgan edi.

Hurmatli akademigimiz I. Mo`minov, tarixchi ustoz olimlarimiz Bo`riboy Ahmedov, Ubaydulla Uvatov, Ashraf Ahmedov, ozarbayjonlik yiryk sharqshunos olim A. G. Ragimovlarning qo`lyozma manbalar va boshqa materiallardan olgan ishonchli yozma ma'lumotlari ham, Amir Temurning o`zga yurtlarga nafaqat qo`shin bilan bostirib kirgani, balki o`sha yerlarda ham bunyodkorlik va obodonchilik ishlariga jiddiy e'tibor berganligi haqida bayon qilagn. Jumladan, A. Ragimov o`zining „Ozarbayjonda Temuriylar bilan

⁴⁶Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч.Т. II. 1-часть. М.: 1964. С. 129.

⁴⁷www.turklib.ru

xurufiylarning o`zaro munosabatlari xususida ba'zi fikr-mulohazalar" degan ilmiy maqolasida shunday yozadi: „Temur Ozarbayjonga bostirib kirib jiddiy qarshilikka uchramagandan keyin, hech qanday ommaviy qirg`in o`tkazmagan, shaharlarni vayron qilmagan. Aksincha, vayron bo`lgan shaharlarni tiklash ishlarini amalga oshirgan. Masalan, Shirvon ustiga shimol (Oltin O`rda) tarafdin bo`ladigan xurujdan saqlanish uchun Darband qal'asining devor va istehkomlarini qaytadan tiklatdi". Temurning ushbu harakati aslida Shirvon mamlakatini To`xtamish xurujidan saqlab qolishga qaratilgan bo`lsada lekin haqiqatdan ham, Temur Ozarbayjonda ko`pgina qurilishlar va ma'murchilik ishlarini olib borgan. Bu haqda „Zafarnoma” muallifi Ali Yazdiy batafsil yozadi⁴⁸:

„Hazrata sohibqiron Gurjiston yurishidan qaytayotib Baylakon yonida to`xtaganlarida Baylakonni ta'mirlash uning muborak xotiridan kechdi. Bu shahar ko`p zamonlardan beri (mo`g`ullar xurujidan boshlab) shu qadar xarob ediki, na imoratdan asar va na dunyoda bor hasharotdan boshqa narsa qolmagan edi. [Hazrati sohibqiron] o`sha yerga kelib tushganlaridan keyin, ravshan va ravon muhandislar va ishning ko`zini bilgan me'morlar [bo`lajak] shaharning tarhini, devorlari, handaqi, to`rtta bozori, ko`pdan ko`p uy-joylar, hammomi, qasri, bog`ubo`stonlari va boshqa [bino]lari bilan qo`shib tuzsinlar degan ijrosi qat'iy farmoyish berdilar. Va uning asosini tuzib, [qurilish ishini] tanob-tanoblab shahzodalar va amirlarga taqsimlab berdilar. Lashkarlar tamom jahd bilan ishga kirishdilar. Imoratlarning barchasini pishiq g`ishtdan bir oy muddat ichida qurib bitirdilar. Devorning uzunligi katta gaz bilan o`lchanganda, 2400 gazda (taxminan 242 km), kengligi 11 gaz, balandligi qarayib 15 gazga barobar bo`lgan. Handaqining sathi 30 gaz, chuqurligi qarayib 20 gaz, [shahar devorining] har burchagida hisor va burjlar qurdilar, ularning oralig`ida ham toshdan burjlar bino qildilar. [Qal'aning] ikki tarafiga ikki darvoza ham qurildi. Insof yuzasidan aytish kerakki, qudratli sultonlar bir yil ichida qurib bitirishi qiyin bo`lgan [bu qurilish] bir oy ichida, yana havo sovuq bo`lib, tinimsiz yog`insochin bo`lib turgan bir

⁴⁸Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Форс тилидан А.Ўринбоев ва Ш.Мусаевларни терма таржимаси. Мулоқот. 1991. 1-сон, 78-бет.

paytda, qurib bitkazildi."⁴⁹.Ozarbayjonda mahalliy ustalar va qurilish ashyolarining o'sha davrda seroblighi, qurilishda Temur lashkarlarining ko'pligi, binokorlikda tashkiliy ishlarning Temur saltanatida azaldan yaxshi yo'lga qo'yilganligini e'tiborga olsak, Ali Yazdiyning qurilish muddati haqidagi xabarideyarli mubolag'a emas.

O'sha davrda Amir Temurning sa'y-harakati bilan Ozarbayjonning Ars daryosidan katta bir nahr (kanal) ham chiqarilgan bo'lib, tevarak atrofdagi cho'llar obod etilgan edi. Bu haqda ham „Zafarnoma“ da o'qiymiz: “Ars daryosi tevaragidagi cho'lga [bir zamonlar] katta nahr chiqarilgan edi. Vaqt o'tishi bilan u qurib, yo'q bo'lib ketib edi. Ov paytida qudratli sohibqironning nazari o'sha [qurib qolgan] nahrga tushdi va podshohona marhamati qo'zib, uni ta'mir etishni buyurdi. Va Ars daryosining narigi sohiliga o'tgach, uni ta'mirlashhaqidagi farmoniga imzo chekdi. Oliy hazratlarining ko'rsatmasi bilan tavochilar ishni amirlar bilan lashkarga taqsimlab berdilar. Bir oy deganda uzunligi 10 farsah (60—70 km) dan ziyod bo'lgan bir nahrni qurib bitirdilarkim, unda kemalarning ham suzib yurishi mumkin edi. Nahrqa „Juyi barlos“ deb nom berildi”⁵⁰.

Temur o'ziga tegishli yerlarning sharqiy chekkasida, Xitoy yerlarining chegarasida joylashgan uzoq Ashpara⁵¹ shahrini ham qayta tiklab unda mustahkam bir qo'rg'on bunyod ettiradi va shaharga hokim tayinlaydi.

Temurning saltanat haqidagi mushohadasi shunchalik keng ediki, u o'z tasarrufining g'arbiy chegaralari — Rum yerlarida yurarkan, saltanatining sharqiy chegaralarini mustahkamlash haqida o'ylar edi. U g'arbdan sharqqa, Rumdan Ashparaga maxsus farmon yuborib, Xitoy yerlari va o'sha sharqiy chegaralardan boshlab Movarounnahr yerlarigacha bo'lgan yeru suvlarning bayoni, ya'ni hozirgi tushunchamizda gapirsak, harbiy geografik xaritasini batafsil, ishonchli va tushunarli tarzda tuzib, ma'lumot tayyorlashni so'raydi. Farmon , bajariladi va sharqiy chegaralardagi yerlarning nafaqat geografik tavsifi, balki suvrat va tasvirlarigacha qog'ozga tushirilib, Temurga yuboriladi. Shundan so'ng Temur

⁴⁹ Ахмедов Б. Амир Темурга мактублар. Мулокат, 1992. 5-сон, 37-бет.

⁵⁰ Ахмедов Б. Амир Темурга мактублар. Мулокат, 1992. 6-сон, 28-бет.

⁵¹ Ashpara- hozirgi Sirdaryo bilan Yettisuv o'rtalarida chegara bo'lib turgan daryo va joyning eski nomi.

Ashparaga o'z qo'shinlaridan bir toifasini amirlar bilan qo'shib yuborib, shaharni obod qilishni hamda Ashparadan o'n kunlik yo'lda bo'lgan, mo'g'ullar bilan Temur yerlari o'rtasidagi nizoli makonda joy-lashganligidan xarobaga aylangan Bosh Xumradeb ataladigan qal'ani ham tiklashni buyuradi. „Qachonki ular qal'a asosini mustaqkamlab, — deb yozadi Ibn Arabshoh, — xilma-xil uylari va ular misoli imoratlarini tartibga solib, poydevor bo'ladigan toshlardan uning qadamlari asoslarini qurib, devorlari te-pasiga belgi va alomatlarini ko'targach, Temur ularga qaytib, mamlakatda ziroat ishlari bilan mashg'ul bo'lishlarini buyurdi. Agar biron kishi, garchi namozini tark qilishga majbur bo'lsa ham, deqqonchiligini tark qilishdan hazarda bo'lsin, — dedi. Ular ho'kiz va urug'larni yuzaga chiqarish bilan mashg'ul bo'lib xuddi Temur ko'rsatib, buyurgandek jamiki unumsiz (o'lik) yerlarga hayot berishda jiddu jahd ko'rsatdilar”⁵².

Amir Temur haqidagi rivoyatlarning birida uning qizi dafn qilingan Temur minorasi xususida ma'lumot mavjud. Bu minora Chelyabinsk viloyatining Troitsk shahri yaqinida qurilgan. Xalq orasida u Temurlang Kesen maqbarasi deb ham sanaladi.

Sayyoh P. S. Pallasning 1770-yili bergan ma'lu-motlariga ko'ra, minora atrofida xonalar bo'lgan, bizgacha faqat Kesen ko'li yaqinidagi minoraning o'zigina yetib kelgan. Pallas Minoraning yonida peshtoq xarobasini ham uchratgan. 1889-yili bu yerda olib borilgan arxeologik qazishlar paytida mongoloidlartipiga mansub ayol kishining suyaklari topilgan, qulog'ida marvarid ko'zli oltin isirg'a, qo'lida feruza ko'zli uzuklari bo'lgan. Ayol kishi jasadining topilishi Amir Temurning qizi haqidagi rivoyatning nechog'lik to'g'riligiga ishoradir. Sultoniya yepiskopi monah Ioann Grinloning Temur haqidagi xotiralarida yozilishicha, Temurbekning qurgan qasrlari ikki yuzdan ortiq bo'lib, Samarqandda 18, Kesh shahrida 20, Bag'dodda 15, Isfaxonda 12, Sherozda 7 qasri bo'lgan. Bizning fikrimizcha bu ma'lumotda Temurbekning ushbu shaharlarda qurgan asosiy imoratlari, bog'-saroylari, qal'a va ko'shklari nazarda tutilgan⁵³.

⁵² Ибн Арабшох. Темур тарихида тақдир ажойиботлари. 1-к.Т.:1992. 316-бет.

⁵³ www.turklib.ru

Xulosa:

Amir Temur o'z zamonasining qanday buyuk jahongiri bo'lsa, shunday ulkan bunyodkori ham edi. Muhimi shundaki, u o'zining keng bunyodkorlik va ma'murchilik ishlarini nafaqat onaVatani Turonda, balki undan uzoq bo'lgan o'zga yurtlarda ham muvaffaqiyatli olib bordi. U buzilgan va talafotga yuz tutgan Bag'dod shahrini qayta tiklash va obod etish, Kobul vodiysi va Mug'on cho'llariga suv chiqarish, Ozarbayjondagi Darband qal'asi va Boylakon shaharlarini qayta tiklash, yangi jamoa binolarini qurish, Ozarbayjonning Ars daryosidan cho'lga kanal qazib suv chiqarish(uzunligi 60-70km), Xuroson hududidagi Balx shahrini qayta tiklash va obod etish, Xitoy chegaralarida joylashgan uzoq Ashpara shaxri va Xumra qal'asini ma'mur etish kabi ulkan bunyodkorlik, ta'mir va obodchilik ishlarini amalga oshirdi. Temurning nigohi, mehri tushgan, ta'mir va ma'morchilikka muhtoj bo'lgan yerlar xoh Turkistonda bo'lsin, xoh o'zga yurtlarda Temur himmati va e'tiboridan chetda qolmadi. Oddiy xalq tili bilan aytganda, Amir Temur o'z hayoti davomida „ming bir“ xayrli va mo'tabar ishlarga qo'l urdiki, ularni qoyilmaqom qilib uddaladi⁵⁴.

Amir Temurning Markaziy Osiyo bog'-istirohatchilik san'atini rivojlantirishdagi xizmatlari ham alohida diqqatga sazovordir.

Markaziy Osiyo xalqlariga qadimdan ma'lum bo'lgan bog'lar oroyishi amaliyoti bu o'lkada 150 yilga yaqin davom etgan mo'g'ullar istilosi davrida tamoman to'xtab qolgan va deyarli unut bo'lgan edi. Sohibqiron Amir Temir Markaziy Osiyo xalqlarining bu nodir amaliyotini nafaqat yangitdan rivojlantirdi, balki uni bog' istirohatchilik va bog'lar oroyishi san'ati darajasiga ko'tardi. Temur shahar ichi maydonlaridagi mo'jaz bog'lar bilan chegaralanmasdan shahar atroflaridagi xushman'ara joylarda katta istirohat bog'larini va ulardagi turli xil go'zal oroyishlar va bog' ziynatlarini avj oldirdi.

Ko'rib turibmizki, Temur nafaqat o'z vatanida, balki uning qadami tekkan o'zga yurtlarda ham yaratuvchanlik va obodonchilik ishlariga alohida

⁵⁴ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., 2008. 144-b.

e'tibor berib xalq turmushini yaxshilashga, el-yurt ma'murchi ligini yuksaltirishga harakat qilgan. Amir Temurning o'zga amlakatlardagi me'morchilik va bunyodkorlik ishlari hozirgi kunda ham chet el tarixchilarining diqqat e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda.

II BOB. TEMURIYLAR MA'NAVIYATI VA MADANIYATI.

2.1. Shoxrux Mirzo va Hirot me'morchiligining bunyodkorlik ma'naviyati.

Temur va temuriylar haqida soʻz ketar ekan, shu vaqtgacha, asosan, Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek va Bobur Mirzolar haqida gapirib keldik. Bu uchovlon turkiy ulugʻ siymolar oʻzlarining insoniyat taraqqiyotidagi qilgan buyuk va ramziy ishlari bilan keng jamoatchilik ongiga chuqur singib ketdi. Ayni paytda, koʻhna tarix sahifalaridan munosib oʻrin olgan yana bir Temuriy shahzoda— Shohrux Mirzo va uning ijodiy faoliyati ham ulkan ekanligini takidlab oʻtishni joiz deb topdik. Sohibqiron Amir Temurning oʻgʻli va zamondoshi, Mirzo Ulugʻbekning otasi Shohrux Mirzo (1377 — 1447 yy.) mashhur va tabiatan oli-janob hukmdor, ilm-fanga moyil va bunyodkor inson edi. Uning tarixdagi xizmatlari va yuksak insoniy fazilatlari oʻrnak boʻlsa arzigudek yaratuvchanlik ma'naviyati hali chuqur oʻrganilmogʻi kerak. Shu boisdan ushbu bobni Shohrux Mirzoning madaniyqurilishlari va ma'naviy merosi haqidagi sahifalarga bagʻishladik. Fikrimizcha, Amir Temur va temuriylar davri madaniyati va ma'naviyatini chuqurroq tushunmoq uchun Shohrux Mirzoning ham bu sohadagi sa'yharakatlarini bilmoq ayni muddaodir.

Mavjud tarixiy ilmiy manbalarga koʻra, sohibqiron Amir Temurning toʻrtinchi oʻgʻli (Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shohrux Mirzo) boʻlib, ulardan eng kenjasi Shohrux Mirzo edi. Sohibqironning katta oʻgʻli Jahongir Mirzo 1376-yili kasal boʻlib, 20 yoshida vafot etadi Ikkinchi oʻgʻli Umarshayx Mirzo ham 1394-yili Kurdistondagi Hurmutu qal'asi yonida oʻq tegib, 38 yoshida halok boʻladi. 1405-yil Temur vafot qilgan chogʻida uning ikki oʻgʻli Mironshoh Mirzo (1366 — 1408 yy.) va Shohrux Mirzolar hayot edi. Temurning vafoti oldida temuriyshahzodalar ichida eng obroʻlisi Shohrux Mirzo boʻlib, u oʻsha paytda Xuroson hokimi, nufuz va ulugʻvorligi jihatidan eng baland maqomga erishgan edi. Shohruxning akasi Mironshoh Mirzoni esa Temur maishatparastligi va davlat ishlaridagi adolatsizligi uchun Xuroson hokimligidan avvalroq (1397-yili) chetlatgan edi. Biroq saltanat va el-yurt taqdirini Temur koʻzi

ochiqligida Shohrux Mirzoga ham ishonib topshirmadi. Bunga sabab ehtimol, Shohrux Myrzoning Temur hayot davrida jangu jadallarla nisbatan, sust tashabbus bilan sa'y-harakatlar qilganligi va uning` saltanat ishlarida otasi kabi jadal va qat'iy bo`la olmaganligidadir. Har qalay, Temurning nigohi valiahdlilik bobida dastlab o`zining katta va suyuqli o`g`li Jahongir Mirzoga (1356 —1376 yy.) tushgan edi. Uning bevaqt vafotidan so`ng nabirasi Muhammad Sultonga (1376 — 1403 yy.), uning ham bevaqt o`limidan so`ng esa Temur endi mamlakat istiqbolini Jahongir Mirzoning yana bir o`g`li, nabirasi Pir Muhammad Mirzo (1376—1407 yy.) ning sa'y-harakatlarida ko`rib, uni valiahdlikka ko`nglida belgilab qo`yadi. Biroq, Temur taxt vorisligini rasman e'lon qilishga ulgurolmadi. U o`z fikrini o`limi oldidan, so`nggi daqiqalarda vasiyat etdi, xolos. Ehtimol, shu sabab bobosi taxtiga o`tirish Pir Muhammad Mirzoga ham nasib etmadi. Samarqand taxtini Mironshoh Mirzonshg o`g`li Xalil Sulton (1384 —1411) nohaq qo`lga kiritdi. Ayni vaqtda, taxtga davogarlar ko`payib, temuriylar orasida o`zaro janjallar boshlandi. Hirotidagi Shohrux Mirzo Xalil Sulton Mirzoning Samarqanddagi o`zboshimcha xatti-harakatlaridan norozi bo`lib unga qarshi jang taraddudida bo`ldi⁵⁵.

Haqiqiy valiahd Pir Muhammad Mirzo bilan Shohrux Mirzo birgalikda Xalil Sulton Mirzoga qarshi ittifoq tuzdilar. 1406-yil fevralida Xalil Sulton Mirzo bilan ittifoqchilar orasida jang boshlandi. Jangda Xalil Sultonning qo`li baland kelib, Pir Muhammad Mirzo Balxga, Shohrux Mirzo qo`shinlari Xurosonga qaytib ketdilar. 1407-yili Balxda Temur taxtining vorisi Pir Muhammad Mirzo fojiali o`ldirildi. Fojiadan bir yilo`tgach, Mironshoh Mirzo Ozarbayjonning Sardrud mavzeyida qoraquyunli turkman sardori Qora Yusuf bilan bo`lgan jangda halok bo`ladi. So`ngroq uning hoki Samarqandga Go`ri Amir maqbarasiga keltiriladi.

Shundan so`ng Samarqand taxtiga yagona davogar Shohrux Mirzo qoladi. Xalil Sulton Mirzo Samarqand taxtini 1409-yilgacha o`z qo`lida saqlab turdi, xalos. O`sha yilning badorida Shohrux Mirzo va Xalil Sulton Mirzoning qo`shinlari qarshi jangga tayyor holda turardi. Shu asnoda to`satdan Movaroun-nahr shimolida Amir Xudoydod Xalil Sultonga qarshi qo`zg`olon ko`tarib qoladi. Xalil Sulton o`z

⁵⁵Sodiqov Hamdam. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati.T., 2010 y. 78-bet.

qo`shinlarini ikki qismga bo`lishga majbur bo`ladi. Isyonchilarga qarshi janagda Xalil Sulton qo`shini 1409-yili mart oyida amir Xudoydod qo`shinlaridan yengiladi. Xalil Sulton hibsga olinib Shohruxiya qal'asiga qamaladi. Shundan so`ng Shohrux Mirzo Temuriy Xalil Sultonni amir Xudoydod changalidan bo`shatmoq uchun qo`shinni olg`a suradi. Ko`p o`tmay Shohrux Mirzo bilan Xalil Sulton orasida bitim imzolandi Bitimga muvofiq Xalil Sulton Movarounnahr taxtidan voz kechadi va evaziga Ray viloyatining hokimi etib tayinlanadi⁵⁶.

Shu tariqa Shohrux Mirzo 1409-yili Movarounnahr taxtini qo`lga kiritgach, temuriylar davlatining oliy hukmdoriga aylanadi. Ammo saltanatning poytaxti Samarqanddan Hirotga ko`chiriladi. Shohrux Mirzo o`sha yili Movarounnahr hukmronligini katta o`g`li Ulug`bekka, shuningdek, Balx viloyati, Hisor va Farg`ona viloyati hokimligiga boshqa o`g`illari va inisin tayin etib, o`zi 1409-yilning oxirida Hirotga qaytib ketadi.

Temur vafotidan so`ng hokimiyat Shohrux Mirzo qo`liga o`tgach, Eronda ham, Turonda ham bir necha o`n yilliklar davomida hokimiyatda nisbatan osudalik hukm suradi. Shohrux Mirzo o`z akalari Jahongir Mirzo, Mironshoh Mirzo avlodini o`z qo`li ostiga birlashtirib, Ozarbayjon, Movarounnahr, Xorazm, Xuroson va Shimoliy Afg`onistondan iborat katta bir davlat jilovini o`z qo`liga oladi. Shohrux Mirzo Temur saltanatining sobiq sarhadlarini qayta tiklay olmasada, mamlakatda ancha muddat osoyishtalik barpo etib, saltanat rivojiga yangi kuch va mazmun baxsh etadi.

Hirot shahri Amir Temur tomonidan 1381-yiliishg`ol qilinadi. So`ng shahar aholisi 1383-yili qo`zg`olon ko`targanligi sababli u qaytadan bosib olinadi va o`sha vaqtdan boshlab butun Xuroson yerlari Mironshoh Mirzoning ulushi hisoblanib kelgan edi. 1397-yili Temur Xurosonni Shohrux Mirzoga topshiradi Shohrux Mirzo va undan keyingi temuriylar zamonasida Hirot shahri rivojlanish jahatilan o`zining engyuqori pog`onasiga erishdi. Shohrux davlatni boshqarish siyosatida otasi Temurning davlat sarhadlarini uzluksiz kengaytirib borish siyosatidan

⁵⁶ Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т., 1968.142-бет.

o`zgacha yo`l tutib, mavjud Temur saltanatini yaxlit holda saqlab qolishga harakat qiladi. Qo`shimcha yerlarni bosib olishga urinmaydi. Natijada Shohruh hukmronligi davrida mamlakat ichida sodir bo`lib turgan ayrim mayda ichki feodal urushlarni e`tiborga olmaganda, nisbatan, tinchlik, osoyishtalik chog`lari ham ko`p bo`ladi. Shu boisdan Shohruh davlatining yirik shaharlarida ishlab chiqarish kuchlarining jonlanishi, hunarmandchilikning rivojlanishi va nisbatan iqtisodiy taraqqiyot yuz beradi. Ana shu omillar asosida Shohruh Mirzo qo`shni mamlakatlar bilaniqtisodiy, savdo-sotiq munosabatlari, madaniy va siyosiy aloqalarni avj oldiradi. XV asrning birinchi yarmida Xuroson va Movarounnahr bilan Rum (Kichik Osiyo), Misr, Hindiston, Xitoy mamlakatlari orasida diplomatik aloqalar yo`lga qo`yiladi. Bunday sharoit Shohruhniyg mamlakat obodonchiligi, elyurt ma'murchiligi bilan shug`ullanishiga yaxshi imkoniyat yaratadi. Shohruh, ay-niqsa, saltanat poytaxti Hirotida me'morchilik va shaharsozlik, tijorat va savdo ishlariga hamda madaniy-ma'rifiy rivojlanishga zo`r beradi. Hirot shahrining tashqi mudofaa devori 1381-yilgi Temur qo`shinlari bilan bo`lgan jangda buzilgan edi. Shohruh Hirotidagi bunyodkorlik ishlarini shaharni qaytatiklash, uning mudofaa devorlarini mustahkamlash bilan boshlaydi. Ilgari xom g`ishtdan qurilgan va buzib yuborilgan shahar xisori o`rniga tosh va pishiq g`ishtdan yangi istehkom devorlari qurdiradi. Ushbu devor atrofini o`rab turuvchi suvga to`la keng ariqni ishlab, uning ustidan ko`priklar quriladi, devorlarga darvozalar va minoralar o`rnatiladi. Ichki qal'a ham kengaytiriladi va mustahkamlanadi, atrofi handaq bilan aylantirib chiqiladi⁵⁷.

1410—1411-yillarda Shohruh bir qator madaniy qurilishlar qilib, Hirotida Shohruxiya madrasasi , va xonaqosini bunyod ettiradi. Ushbu imoratlarning tafsiloti va joylashishi haqida Abdurazzoq Samarqandiy shunday yozadi: „Shahar shimolidagi qal'aning janubetagida bir-biriga ulangan oliy madrasa va ulug` bir xonaqoh qurilib, bu joyninio`rtasida katta bir saroy sahni, sufa, baland bir toq barpo qilindi va ikki tarafidan ajoyib tarzda ikkita baland minora qad ko`tardi, tilla va lojuvardlarning yaraqlashidan u mavzening darvozayu devorlari tomon quvonch

⁵⁷Ўролов А,Хожихонов М.Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарқанд., Сугдиён. 1996. 99-бет.

tarqatuvchi nurlar porladi. Ziyrak fikr muhandislar va nozik ishlar qiluvchi tezkor binokorlar zo`r san'at va kamoli diqqat ko`rsatib, uning burchak-larini ulash qoidalarini mustahkamlikning eng oliy pog`onalariga yetkazib tikladilar".

Abdurazzoq Samarqandiy madrasada kutubxona tashkil bo`lgani, madrasa mudarrisligi uchunu Hirotning fozilu ulamolaridan to`rt kishi: mavlono Jalolid-din Yusuf Uvbahiy, mavlono Jaloliddin Yusuf Halloys, mavlono Nizomiddin Abdurahim Yor Ahmad va Xoja Nasiriddin Lutfullohlarning tayin etilganligini ta'kidlab: „Bularni vazifaga o`tirg`azish kuni xoqoni sa'it hazratlari (Shohrux Mirzo — A. O`) u muborak yerga tashrif buyurdi va zamona ulug`lari hamda odamzod faxrlanuvchi kishilar hozir bo`ldilar. Mazkur bilimdon olimlar fiqh, tafsir kabi islom ilmlari bo`yicha dilga yoqimli ifodalar bilan dars berishga mashg`ul bo`ldilar. Vabayon qilish maydonida ilg`orlik to`pini bilim chavgoni bilan barchadan ilgari surdilar"⁵⁸, — deb yozadi. Shuningdek, ma'rifatpanoh xonaxohning shayxlik mansabi olam mashoyixlarining rahbari Xoja Alouddin Ali Chishtiyya topshiriladi.

Shohrux Mirzo madrasa va xonaqohga unumli yerlardan vaqflar tayinlab mudarrislar, imom, muazzin va boshqa xizmatchilarni moddiy jihatdan yaxshi ta'min etadi. Abdurazzoq Samarqandiy o`zining Temur va temuriylar (jumladan, Shohrux, Ulug`bek, Boysunqurlar) tarixiga bag`ishlab yozilgan mashhur „Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" („Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo`shilish joyi") asarini ushbu Shohruxiya xonaqosida shayxlik qilgan yillari 1467— 1470-yillar orasida yozib tugatgan edi. Shohrux Mirzoning me'morchilik va shaharsozlik ishlariga XV asrning mashhur me'mori Qavomiddin Sheroziy boshchilik qiladi. U Shohruxning saroy me'mori edi. Qavomiddin Sheroziy o`zining sermahsul faoliyati bilan nafaqat Hirot va butun Xuroson, balki Samarqand me'morchiligi rivojida ham o`chmas iz qoldiradi. Uni Mirzo Ulug`bek ham otasidan ma'lummuddatga Samarqand qurilishlariga so`rab olgan edi. Shohrux Mirzo Hirotida bino va inshootlar

⁵⁸ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи бейрайн (Форс-тожик тилидан таржима, кириш валуғатлар А.Ўринбоевники). Т.: 1969. 155-бет.

quritish bilan birga, shaharsozlik bobida ham ijobiy o'zgarishlar qiladi. Shahar ichki rejasi qayta ishlanib yaxshilanadi, shaharni bo'yiga va eniga kesib o'tuvchi asosiy bosh ko'chalar to'g'rilanadi. Ushbu ko'chalar kesishgan, shahar savdo markazidagi chorsu qayta qurilib, kengaytiriladi. Bosh ko'chalar bo'ylab (1410—1411 y.) eski bozorlarni o'rniga ikki qavatli usti toq va gumbazlar bilan yopilgan pishiq g'ishtdan ishlangan yangi savdo rastalari va do'konlar quriladi. Ular o'sha markaziy chorsu bilan bog'lanib, bu yerda hunarmandlar hayoti, tijorat va savdo-sotiq ishlari avj oladi. Bulardan tashqari, har bir mahalla o'zining savdo toqlariga ega bo'lib, ularda maxsus gazmollar, qalpoq va boshqa noyob mollar sotilgan edi.

Xullas, Shohrux zamonida, ayniqsa 1410—1411-yillardan boshlab Hirot Xurson muzofoti va butun Yaqin Sharq mamlakatlari ichida rivojlangan yirik hunarmandchilik va savdo markaziga aylanadi. O'sha yillarda Hirot shahrining maydoni taxminan 2,5 km kv, aholi soni esa yarim milliondan ko'p bo'lgan⁵⁹. Shohrux Mirzoning bunyodkorlik ma'naviyati saroydagi vazirlar, malika, aslzoda va savdogarlarni ham bu ishga chorlaydi. Natijada shahar atrofidagi joylarda turli inshoot va jamoat binolari, bog'-rog'lar va me'moriy majmualar tashkil topadi. Hirotning o'zida ham o'sha mahalda ko'plab madrasa, xonaqoh, masjid, maqbara, karvonsaroy, hammom va shifoxonalar mavjud edi. Zodagonlar pishiq g'ishtdan ishlangan o'ymakor eshikli va panjarali boy hovlilar qurar edilar.

Shohrux davrida ham shahar tashqi mudofaa devorlari o'zining avvalgi chegaralarida qolgan bo'lsa-da, Hirot shahri, ancha kengaydi. Shaharga tutashgan mavzelar shahar yonidan o'tgan Xerirud daryosidan suv oluvchi sug'orish kanallari bo'ylab joylashgandi. Ayrim mavzelar daryoning narigi qirg'og'ida bo'lib, shahar bilan ko'p ravoqli ulkan ko'prik orqali bog'langandi. Shaharga tutashgan mavzelar aholisiga xizmat ko'rsatish uchun shahar darvozalaridan boshlanuvchi ko'chalarda savdo rastalari qurilar edi. Dilkusho bog'lar, munaqqash saroy-u, mahobatli imoratlarga boy shunday shahar oldi mavzelaridan biri shaharning shimoliy darvozasidan boshlanuvchi Injil mavzesi edi. Unda hatto temuriylar davrigacha

⁵⁹ Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Т. 8, М.: Стройиздат, 1969. С. 358.

ham bunyod etilgan ayrim bog`lar saqlanib qolgandi. Shunday bog`lardan biri Bog`i Zog`on bo`lib, uni Shohruhning o`zi bo`sh vaqtlarida dam oladigan yozgi qarorgohiga aylantirgan edi. Ushbu bog`da turli xalq sayillari, tantanalar o`tkazilar, ularda ko`plab hunarmandlar qatnashar, savdo do`konlari tashkil qilinar edi. Yana bir Bog`i Safed deb nomlangan bog`ning rejasi kengaytirilyb, unda Shohruhning o`g`li Boysunqur Mirzoga atab (1411 y.) go`zal bir ko`shk-saroy bunyod etilgan edi. Ammo bu bog`lar, afsuski, o`zining fazilatlarini jihatidan Samarqanddagi Temur bog`lariga va keyinchalik temuriylarning o`zlari (Husayn Boyqaro, Bobur) qurgan bog`larga teng kelmasdi⁶⁰.

Ko`rib turibmizki, Shohruh Mirzo ma'naviyati tufayli xarobaga yuz tutgan Marv shahri yangittan qurilib, unda katta shaharsizlik va me'morchilik ishlari olib borilgan. Shohruh xuddi shunday ishni Balx shahrida ham amalga oshiradi. U o`zining qo`shinlaridan bir toifasini amir Muzrob boshchiligida Balxga jo`natib, uning Hisn ul-Hunul (Hinduvon qal'asi) deb ataladigan qo`rg`onini tiklagadi⁶¹. Bu ishda Shohruh garchi harbiy maqsadlarni ko`zlagan bo`lsa-da, istehkom qurilishi shahar xalqining osoyishtaligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega edi.

Shohruh buyuk zotlar va avliyolar mozorini ziyoratqilib turishni ham unutmagan. Gozurgohdagi Xoja Abdulloh Ansoriy mozori, Mashhaddagi hazrati ImomRizo mozorlari shular jumlasidandir. Shohruh Mashhadda bir chorbog` va saroy soldirib, har mahal bu yerga ziyoratga yoki davlat nshlari bilan kelganda ushbu bog`da bo`lib dam olib turgan. Shunikgdek, u Hirotning Gozurgoh mavzesidagi Xoja Abdulloh Ansoriy mozoriga 1425—1428/29-yillari go`zal bir maqbara ham bunyod ettiradi. Maqbara kirishdagi oliy peshtoq, ichki hovlilari uch tarafidan hovliga qaragan sufa va ayvonlardan iborat bo`lib, qabr hovli to`ridagi baland bir kursili ayvon sufasiga olinadi. Imoratning barchasi tosh va g`ishtlardan ishlanib koshiniy zarhal va lojuvardlardan ziynat beriladi⁶².

Shohruh davrida uning suyuqli xotini malika Gavharshod ham shahar yonidagi Qusaviya mavzesiga chiquvchikeng xiyobon bo`ylab katta bir masjid—

⁶⁰ Пугаченкова Г.А, Ремпель А.И. Выдающийся памятники архитектуры Узбекистана. Т.: 1958. С. 201.

⁶¹ Ибн Арабшох. Темур тарихида тақдир ажойиботлари.(араб тилидан таржима, изоҳлар ва сўз бошт У.Уватовники). 2-к.Т.:1992. 49-бет

⁶² Ўролов А,Хожихонов М.Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарқанд., Сугдиён. 1996. 104-бет.

musallo (namozgoh) qurdiradi. Bu qurilish o`ziga xos me'moriy majmua hisoblanib, bu yerda masjiddan tashqari madrasa, maqbara, xonaqohlar, rabotlar va turli xayrli imoratlar quriladi.

2.2. Shohruh va Boysunqur Mirzo ilm-ma'rifat yo'lida.

1413-yili Shohrux hukmronligiga qarashli Koshon shahrida faoliyat ko'rsatayotgan astronom olim G'iyosiddin Jamshid Shohrux Mirzoga bag'ishlab „Ziji Xoqoniy" lar takmil, „Ziji Elxoni" („Xoqon ziji" — „Ziji Elxoni" ning takomillashtirilgani") risolasini yozib tugatadi va hukmdorga taqdim etadi⁶³. G'iyosiddin Jamshid takomillashtirgan „Ziji Elxoni" asari aslida XIII asrda Ozarbayjonning poytaxti Marog'adagi rasadxonada faol kuzatishlar olib borgan astronom olim Nasriddin Tusiy qalamiga mansub bo'lib, u ushbu asarini o'sha davr hukmdori Chingizxonning nevarasi Xulaguxonga bag'ishlab yozgan edi (Nasriddin Tusiy Hulaguxon saroyining olimi bo'lgan). G'iyosiddin Jamshid Nasriddin Tusiyning ushbu asaridagi „ziji" yani yangi ma'lumotlar bilan boyitadi va o'zining hay'at ilmi bobidagi nazariyasi va izlanishlari bilan to'ldirib sayqallashtiradi.

G'iyosiddin Jamshid Koshiy Shohrux Mirzoga bo'lgan hurmatini nafaqat unga bag'ishlangan asari orqali, balki hukmdorga atab ajoyib bir rasadxona qurish niyati borligini ham bildiradi. Biroq bu davrda Amir Temur vafotidan keyingi avlodlar orasidagi taxt uchun kurashlarning hali batamom tugamaganligi va temur davlatiga kirgan ba'zi mamlakat hokimlarining ajralib "chiqish kabi harakatlari Shohrux Mirzoga G'iyosiddin Jamshidning rasadxona qurish haqidagi taklifini qo'llab chiqishga imkon bermadi. Buning ustiga 1415-yili Koshon shahri va uning atrof viloyatlarining voliyi Said Vaqqos Shohrux Mirzoga qarshi qo'zg'olon uyushtiradi. Bu qo'zg'olonning bostirilishi va keyinchalik Koshon shahri va viloyatining Shohruhning jiyani Iskandar Mirzo tomonidan bosib olinishi bilan bog'liq voqyealar, biroz vaqt o'tib esa Iskandar Mirzoning ham bevaqt halok bo'lishi Jamshid Koshiyga rasadxonani qurishni Xuroson va Eronda amalga oshirishga imkon tug'dirmadi.

Biroq o'shanda Shohrux Mirzo G'iyosiddin Jamshidning o'ziga bag'ishlab yozgan „Ziji Xoqoniy" asari va rasadxona qurish haqidagi taklifini o'g'li Ulug'bek

⁶³Мамадазимов М. Улугбек ва унинг расадхонаси//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993, 19 март.

Mirzoga ma'lum qilgan bo'lsa ajab emas. Negaki, Jamshid Koshiy Iskandar Mirzo o'limidan keyinroq ya'ni 1416-yili Ulug'bek Mirzo tomonidan Samarqandga taklif qilinadi va rasadxonani Samarqandda bunyod etishga rozilik bildiradi. Ko'rinib turibdiki, Samarqandda Ulug'bek Mirzo bunyod ettirgan rasadxona qurilishida koshonlik G'iyosiddin Jamshidning qanchalik katta roli bo'lsa, temuriylar saltanatining hukmdori Shohrux Mirzoning ham o'ziga xos o'rni bo'lgan⁶⁴.

Shohrux Mirzoning kitobga, ayniqsa, nodir qo'lyozmalarga qiziqishi zo'r bo'lib, Hirotida u otasining poytaxt Samarqanddagi ulkan kutubxonasiga o'xshash saroy kutubxonasini ochishni tashkil qilgan edi. Shohrux Mirzoning o'zi tarix va she'riyatga qiziqar, ko'p mutolaa qilar edi. Shohrux o'z saroyidagi fozilu ulamolarga ularning fazilatlariga qarab xizmatlar belgilab turgan. Otasi Temur vafotidan so'ng uning xizmatiga o'tgan Hofizi Abruga Shohrux 1414-yili bir geografik asar yozishni buyurada Hofizi Abru o'z asarining so'z boshida Shohruhningushbu topshirig'i haqida: "U saltanat shiorli hazratning ulug' xotirida olamning shakli, quruqlik va suvlik, vodiylar va tog'larning kayfiyati hamda davlatlar [orasidagi] yo'llar sonini tahqiq qilish xohishi ravshanlik ko'rsatdi", — deb ta'kidlaydi. Asar 1415-yili yozib tugatilib, Shohruh tomonidan yaxshi taqdirlanadi. Shundan so'ng Shohrux ushbu adibga yana yirik bir tarixiy asar yozishni topshiradi. Hofizi Abru asarning yozilish sababi haqida gapirib: „Hazrat (Shohrux) ... tarixlarni va o'tmish avlodlar yodgorlikdarini mutolaa qilishga bo'lgan muhabbati va harakati tufayli xalqlarning nasab va ahvollari, turk, arab va ajam hukmdorlarining ravnaq va inqirozlari va [tarix] ilmining tarmoqlarini [o'rganishga] chuqur kirishdi. [Shu tarzda] u voqeylikning o'zgarib turishidan voqif bo'lib, bu fanning qismlarini o'z ichiga olgan bir to'plam — „Majmua" yozilishiga ishorat qildi"⁶⁵, — deb yozadi.

Shohrux Mirzoning amalga oshirgan yana bir mo'tabar ishlaridan biri temuriylar „Nasabnomasi (Shajarasi) ni tuzdirganligidir. Mazkur „Nasabnoma" dan XV asr saroy tarixchisi G'iyosiddin Xondamirniig „Habib us-siyar fi axbor

⁶⁴ Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч.Т. II. 1-часть. М.: 1964. С. 79.

⁶⁵ www.ziyounet.uz

afrod ul bashar" („Inson xabarlari va fardlarida do'stlarning tarjimai holi") asarini yozishda foydalanganligi aniqlangan⁶⁶. Ushbu asar „Nasabnoma" da o`rin olgan ma'lumotlar bilan birga bizgacha yetib kelgan.

Shohrux Mirzoning Ulug`bekdan keyingi o`g`li Boysunqur Mirzo (1397 — 1433) ham temuriy hukmdorlarichida ilmparvarligi, adabiyot va san'at ahliga homiyligi bilan nom chiqargan edi.

Shahzoda Boysunqur yoshligidan boshlab adabiyot, san'at, xattotlik va naqqoshlikka qiziqadi. Shohrux davriga Hirot adabiy muhiti gurkirab yashnash pallasiga qadam qo`ygan, adabiy-madaniy hayotga katta e'tibor berila boshlagan bir davr edi. Boysunqur ana shu muhitda o`sadi va tez orada iste'dodli shoir hamda xattot sifatida taniladi. Boysunqur o`zining tadbirkorligi, ishchanligi, bilimdonligi bilan tengdoshlaridan ajralib turardi. Shuning uchun ham otasi 17 yashar Boysunqur Mirzoni Tus, Mashhad, Obivard, Xabushon, Niso, Astrobod, Mozondaron, Shumulqon, Jurjon kabi viloyatlarga hokim qilib tayinlaydi. U davlatni iqtisodiy-madaniy jihatdan yuksaltirishga, ilm-fanni taraqqiy ettirishga, qo`shnimamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy munosabatlarni yaxshilashga alohida e'tibor beradi. Boysunqur Mirzoni 19 yasharligida Shohrux o`z davlatining bosh vaziri — oliy devonni boshqaruvchi devonbegi etib tayinlaydi. Boysunqurning ishbilarmonligi, san'at va madaniyat ahliga xayrixohligigi, mamlakatni obodonlashtirishdagi ishlarini zamondoshlari zavqlanib yozib qoldirganlar. Chunonchi, mashhur tarixchy Abdurazzoq Samarqandiy: „Boysunqur Mirzo o`zining davlati gulshanida ehson niholidan boshqa narsani ekmadi, davlat ahvolining tashvishi uning ravshan zamiridan joy olgan edi", — deb yozadi⁶⁷.

Boysunqur Mirzo devonni boshqarar ekan, xalqqa jabr-zulm qilibxalq va davlat mablag`larini shaxsiy huzur-halovati uchun sovurgan bir necha oliy martabali vazirlarning ishlarini taftishga topshirib, zarur choralarni ko`radi. Urush paytlarida esa Boysunqur Mirzo ham boshqa temuriy shohzodalar kabi jangu jadallarda bahodirlik ko`rsatadi.

⁶⁶Файзиев Т. Темур харами маликалари. //фан ва турмуш, 1993, 1-сон, 31-бет.

⁶⁷www.uz.wikipedia.org

Boysunqur Mirzo vazirlikishini olib borish bilan birga, badiiy ijod, madaniy-ma'rifiy, ilmiy ishlar bilan ham faol shug'ullanadi. Hirotida otasi Shoh-rux Mirzo asos solgan saroy kutubxonasi faoliyatini rivojlantira borib, uning asosida katta madaniy, ilmiy san'at markazini tashkil qiladi⁶⁸. „Nigoriston" deb nomlangan ushbu san'at dargohida mamlakat va viloyatlarning turli shaharlaridan iste'dodli san'atkor va hunarmandlarni to'playdi. Ular orasida hattot, shoir, naqqosh, varraq (qog'oz tayyorlovchi), jildsoz, lavvox (lavha chizuvchi), muzaxab, matnshunos va boshqa hunar egallari mavjud bo'lib, ular hirotlik olim va san'atkorlar bilan birgalikda Shohrux va Boysunqur Mirzolar homiyligida ijod qiladilar. 1420-yili Boysunqur Mirzo Tabrizni ishg'ol etganda, u yerdan xushnavis xattot Mavlono Ja'far Tabriziyni bir necha hunarmandlar bilan birga Hirotga keltirgan edi. Ular „Nigoriston" da Boysunqur tashabbusi bilan alohida xattotlar guruhi tashkilqilib turli shahar va qishloqlardan, shaxsiy dastxat kitob sevarlaridan qo'lyozmalar yig'ib ko'chirish, bezash va tarqatish bilan shug'ullanadilar⁶⁹. Davlatshoh Samar-qandiy Boysunqurning mana shu faoliyatini ta'riflab: „Shahzoda Boysunqur hunarparvar va hunarmand likda jahonga mashhur bo'ldi, She'riyat va xattotlik uning zamonida rivoj topdi. Hunarmand va fazya egalari uning ovozasini eshitib, tevarak-atrofdan uning xizmatiga keldilar Xushxat kotiblardan qirq kishi uning kutubxonasida kitobat qilish bilan mashg'ul edilar. Boysunqur hunarmandlarni e'zozlar, shoirlarni do'st tutar edi", — deydi.

Boysunqur Mirzo kutubxonasida kitob ko'chirish bilan birga tarixiy asarlar yozish, kitoblarga zar bilan lavhalar chizish, miniatyuralar ishlash, o'tmish mutafakkirlarining ijodi va tarjimai holiga doir dalillarni to'plab o'rganish, noyob kitoblarning nusxasini ko'paytirish, ayrim ijodkorlarning mukammal kulliyotini yaratishga intilish kabi ilmiy-ijodiy ishlar ham keng yo'lga qo'yilgan edi. Masalan, Boysunqur Hofizi Abruga „insonning yaratilishidan tortib kitobning yozib tugallanish vaqtigacha bo'lgan tarixiy voqealarni to'plab bir yirik asar yaratishni

⁶⁸ Маҳкамов М. Бойсунгур ибн Шохрух. Мулоқот, 1986, № 1, 40-бет.

⁶⁹ Хомидов Х. „Шохнома“ нинг шухрати. Т.:1991.62-бет.

buyurgan"⁷⁰. Asar 1422—1427-yillarda „Majma ut-tavorixi sultoniya" („Sultonga atalgan tarixlar yig`indisi") nomi bilan to`rt jildga yozilgan. Muallif o`z asarining oxirgi jildini Boysunqur Mirzoga ataganligini yozib: „Bu to`rtinchi jildga „Zubdat ut tavorixi Boysung`uriy" deb nom berdim" — deydi. Bundan tashqari, Boysunqur ustod Sayid Ahmad naqosh, Xo`ja Ali musavvir, saxxof ("muqovachi) Qavomiddin Tabriziylarga Temur davrida ijod etgan mashhur rassom Ahmad Bag`dodiy chizgan suratlardan nusxa ko`chirishni topshiradi. Chunki Ahmad Bag`dodiyning Amir Temur uchun chizgan suratlar muraqqasidag`i ayrim rasmlar nursizlanib, o`z jilosini yuqotayozgan edi⁷¹.

Boysunqurning ilm dargohida bajarilgan ishlar, ko`chirilgan va nafis san'at bilan zeb berilgan asarlardan ba'zilari bizga qadar yetib kelgan. Abulqosim Firdavsiyning mashhur „Shohnoma"si, „Kalila va Dimna", Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniyning „Jome ut-tavorix" kabi asarlarning mavjud nodir nusxalari ana shular jumlasidandir.

Shohrux Mirzo va Boysunqur Mirzolar homiyligidagi ushbu ilmiy-madaniy san'at markazida, 1425-yili Boysunqur Mirzoning bevosita tashabbusi bilan uning rahbarligi va nazorati ostida Abdulqosim Firdavsiyning „Shohnoma" asari bo`yicha jiddiy ilmiy ish amalga oshiriladi: asarning 40 dan ziyod turli qo`lyozmalari to`planib, qiyoslanib o`rganiladi va mukammal tanqidiy matnitayyorlanadi. Boysunqur Mirzoning o`zi asarga kattagina so`zboshi yozadi va uni 21 ta go`zal miniatyuralar bilan bezab mukammal asar holiga keltiradi.

„Nigoriston" xodimlari bu ishlardan tashqari Amir Xisrav Dehlaviyning ijodi va adabiy merosini o`rganish hamda to`plash bilan ham shug`ullanganlar. Shoirning devoniga kirgan she'rlaridan 120 ming baytini, turli bayoz va tazkiralardan, tarqoq g`azallaridan 2 ming baytini jamlab, alohida kitob holiga keltiriladi. Boysunqur Mirzo iste'dodli shoir, xushnavis xattot ham bo`lgan. Alisher Navoiy, Husayn Voizi Koshifiy, Sayfiddin Ali Saviy kabi san'atkorlar uning o`zbek va forsiy tillarda go`zal she'rlar yozgani haqida xabar berganlar. Lekin hanuzgacha

⁷⁰ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн (Форс-тожик тилидан таржима, кириш валуғатлар А. Ўринбоевники). Т.: 1969. 25-бет.

⁷¹ Хомидов Х. „Шохнома" нинг шухрати. Т.: 1991. 63-бет.

uning she'rlari topilmagan. U olti xil xatni mukammal bilgan, ayniqsa, sulsoyozuvida undan o'tadigani bo'lmagan⁷².

Boysunqur Mirzo san'at sohasidagi bevosita amaliy ishlar bilan ham shug'ullangan, Otasi Shohrux Mirzo buyurtmasi bilan Hirotida qurilayotgan aksariyat binolarning peshtoqlarini rangli koshin va ganch, naqshlar bilan ziynatlagan me'morlar va naqqoshlar ishida shaxsan ishtirok etadi, ko'plab qo'lyozmalarni kitobat qiladi, chunonchi, „Qur'onaning“ zarhal bilan u ko'chirgan go'zal nusxasi hozir Erondagi Ostoni Qudus kutubxonasida nodir namunagina emas, balki kamyob nafis san'at asari sifatida ham saqlanmoqda⁷³. Boysunqur Mashhaddagi Gavharshodbegim masjidi devorlariga ham kitobatlar bitadi.

Shohrux Mirzo va Boysunqur Mirzolar Hirota ko'plab shoirlar, san'atkor va olimlarni o'z panohiga olib, ularga moddiy va ma'naviy yordam beradilar. O'z davrining mashhur shoirlaridan Bobo Savdoiy, Muhammad Pahlavon Kotibiy Nishopuriy, Mavlono Yusuf Amiriy, Amir Amiriddin Nuzlobidiy, Amir Shohid Sabzavoriy va boshqalar bevosita Shohrux Mirzo va Boysunqur Mirzolarining marhamatidanchetda qolmaganlar. Mashhur olim Xo'ja Abdulqodir Marog'iy, xushnavis xattot Shamsiddin Hiraviy bastakor va xonanda Xo'ja Yusuf Andug'oniy, mashhur me'mor va tarroh ustod Qavomiddin Sheroziy, o'z zamonasining peshqadam musavviri Mavlono Xalil shular jumlasidandir. Bundan tashqari, „Nigoriston“da talaygina olimlar tabiiy fanlar bilan ham shug'ullanishgan. Yusuf Amiriy „Dahnoma“ asarida „Nigoriston“ da turli ilmlar bo'yicha amaliy ishlar olib boril-ganligi xususida qayd etib o'tgan.

Hirotidagi bunday amaliy, madaniy-ma'rifiy faoliyat albatta, AlisherNavoiydek buyuk ma'rifat homiysining diqqat e'tiboridan chetda qolmaydi. U o'zining „Majolis un nafois“ („Go'zal majlislar“) asarida Shohrux Mirzoni ta'riflab „nazmga mashg'ullik qilmas erdi ammo ho'b bayt va yaxshi so'zlar ko'p ul hazratdin ham voqyebo'lur erdi“, — deb yozadi. Shohrux Mirzoning ko'p suhbatlarda baytlarni yoddan o'qiganli ini bayon qiladi. Boysunqur Mirzoga esa

⁷² www.ziyounet.uz

⁷³ Усмонов О. Камолиддин Бехзод ва унинг наққошлик мактаби. Т. 1977. 27-бет.

„xushta'b, saxiy va hunarparvar podshoh" sifatida baho berar ekan, uning ijobiy faoliyati haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: „Xattot va naqqosh va so-zandadin va go'yandadin muncha benazir kishikim, aning tarbiyatidin orog'a kirdi, ma'lum emaskim, hech podshoh zamonida paydo bo'lmish bo'lg'ay”⁷⁴.

Mashhur rus sharqshunosi M.M.Dyakonov temuriylar davri madaniy hayoti haqida fikryuritib „Navoiy, Jomiy va Behzod davri Hiroti. XV asrning ikkinchi yarmi Hirot madaniy yuksalishi va gullab-yashnashi sarchashmalaryni Shohrux davri Hirotidan qidirish kerak", — degan edi⁷⁵.

Xullas, XV asr Hirot adabiy va madaniy hayotini rivojlantirishda ShohruxMirzo va Boysunqur Mirzolarning roli beqiyos katta bo'ldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Shohrux Mirzo va Boysunqur Mirzolar davrida Hirotida tashkil etilgan ulkan kitobxona ijodkorlari asosini Eron, Iroq, Mo-varounnahr va xurosonlik olimlar, naqqosh-musavvirlar, xattotlar, hunarmandlar tashkil qilar edilar. Keyinroq,Mir Alisher Navoiy davriga borib mazkur kitobxona ulkan „San'at nigoristoni" ga (San'ag akademiyasiaga) aylandiki, o'sha san'at markazi atrofida XV asrning ikkinchi yarmiga kelib, Kamoliddin Behzoddek zabardast, yetuk va barkamol san'atkorlarni yetazib chiqargan. Hirot nafis tasviriy san'at—miniatyura maktabi vujudga keld. Shohrux Mirzo zamonida shakllana boshlangan bu mashhur maktab o'z faoliyatini 1507-yili Hirot Shayboniyxon tomonidan zabt etilguniga qadar davom ettirib keldi⁷⁶

Shohrux Mirzo 1447-yili 14-martda Ray shahrida vafot etib, Hirotida xotini Gavharshodbegim madrasasi sahniga dafn etiladi. 1448-yilning dekabr oyida Ulug'bek otasining jasadini Samarqandga olib kelib, Go'ri Amirga ko'mdiradi.

Shohrux Mirzo tushkunlikka uchragan temuriylar davlatini muqarrar inqirozdan saqlab qolish uchun harbiy yurishlar olib borishga majbur bo'ladi. Bu borada ma'lum muddat o'z maqsadiga erishdi. Mamlakatda osoyishtalik o'rnatib, uni rivoj sari yo'lladi. Shohrux Mirzo vafotidan keyin hokimiyat vorislari o'rtasida boshlangan kurash oqibatida temuriylar davlati yana parchalanib keta boshladi.

⁷⁴Уролов А,Хожихонов М.Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарқанд., Сугдиён. 1996. 110-бет.

⁷⁵Ахмедов Б. Мирзо Улугбек. Т. 1994. 41-бет.

⁷⁶Усмонов О. Камолитдин Бехзод ва унинг наққошлик мактаби. Т. 1977. 28-бет.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Temurning kenja o'g'li Shohruh Mirlo ma'naviy jihatidan otasidan qolishmasdi. U o'zining davlat arbobi sifatidagi siyosiy qobiliyatini asosan Amir Temur vafotidan keyin ko'rsata boshlaydi. Boshqacha so'z bilan aytganda, Shohruh siyosiy maydonga otasi vafotidan keyin, ya'ni bunga zarurat tug'ilgandan so'ng chiqadi. Hokimiyat Shohruh qo'lga o'tgach (1409 y.), u Temur saltanatining sobiq chegaralarini qayta tiklay olmasada, mamlakatda ancha muddat osoyishtalik barpo etib, temuriylar saltanati rivojiga yangi kuch va mazmun ato etadi. Shohruh, ayniqsa, saltanat poytaxti Hirotida me'morchilik va shaharsozlik rivojiga, tijorat va savdo ishlariga hamda madaniy-ma'rifiy taraqqiyotga zo'r beradi. Shaxarning buzilgan histori o'rniga tosh va pishiq g'ishtdan yangi istehkom devorlar, darvozalar qurdiradi. Ichki qal'a ham mustahkamlanib, kengaytiriladi, Shahar rejasi qayta ishlanib, ta'mirlanadi. Shaharda chorsu binosi, shuningdek shahar markazidan o'tgan bosh ko'chalar bo'ylab Amir Temur Samarqandda bunyod ettirgan usti toq va gumbazlar bilan yopilgan savdo rastalari va do'konlariga o'xshash savdo ko'chasi-tim qurdiradi.

Shohruh, ayni paytda, madaniy ishlarga xam keng e'tibor berib, Hirotida Shohruhiya madrasasi va xonaqosini bunyod ettirdi. Madrasada ulkan kutubxona tashkil qilib, bir yo'la to'rtta mudarris tayin etadi. Shaharda hunarmanchilik va savdo ishlarini rovojlantiradi. Shohruh davrida shaharga tutash mavzelarda turli savdo inshootlari va jamoa binolari, bog'-rog'lar, me'moriy majmualar, yangi mahallalar barpo etishi hisobiga shahar chegarasi ancha kengayadi.

Shohruh Mirzoning el-yurt ma'murchiligi va bunyodkorlik faoliyati faqat poytaxt Hirot shahri bilan chegaralanib qolmagan. U chingiziylar vayron etgan qadimiy Marv shahrini ham obod etadi. Buning uchun dastlab Murg'ob daryosidan to'g'on bog'latib, Marvgacha ariq qazdirib, suv keltiradi. So'ngra shahar tarhini qayta ishlatib, hududini kengaytiradi, mudofaa devorlari, burjlar, darvozalar qurdiradi. Shahar atrofida bog'lar tashkil bo'lib, shahar ichida masjid-madrasalar, bozorlar, hammomlar va boshqa xayrli imoratlar quriladi. Shohruh Mirzo shunday xayrli ishlarni Balx shahrida ham amalga oshiradi. U shu-ningdek, Mashhad

shahrida hamda Hirotning Gozurgoh mavzesida bunyodkorlik ishlarini olib boradi. Shohruh o'z atrofidagi aslzodalar, malika-yu shahzodalarni ham mamlakat, xalq farovonligi uchun xayrli ishlarga undaydi. Shohruh, ayni paytda, tarix va she'riyatga qiziqar, ko'p mutolaa qilar edi. U o'z atrofiga ko'pgina iqtidorli olimu fuzalolarni yig'ib, ularga turli xil ijodiy topshiriqlar berib turardi. Chunonchi, Abdurazzoq Samarqandiy va Hofizi Abro' kabi muarrixlar. Shohruh taklifi bilan chiroyli tarixiy va jug'rofiy asarlar yozib qoldirganlar.

Shohruh Mirzo ma'naviyatidagi qusur shu bo'ldiki, u sevikli xotini Gavharshodbegimga katta erk berib qo'ydi. Bundan foydalangan Gavharshodbegim davlat ishlarini boshqarishda Shohruhga o'z ta'sirini o't- kaza boshladi. Chunonchi, Shohruxo'ziga taxt vorisi tasdiqlashda Gavharshodbegim aralashuvidan umriningoxirigacha qat'iy bir qarorga kela olmay olamdan o'tdi.

Shohruh Mirzoning o'zi bilan Hirotida faoliyat ko'rsatgan o'g'li Boysunqur Mirzo xam temuriylar ichida ma'rifatparvarligi, adabiyot va san'at ahliga ho-miyliги bilan shuhrat qozongan edi.

III BOB. ULUG`BEK MA'NAVIYATI.

3.1. Mirzo Ulug`bek va bunyodkorlik.

Shohrux Mirzoning to`ng`ich o`g`li Muhammmd Tarag`ay Ulug`bek 1394-yilning 22-martida bobosi Amir Temurning harbiy yurishlari paytida hozirgi Ozarbayjonning Sultoniya shapri-la tug`ildi. Temur o`rnatgan odatga ko`ra uning hamma nabiralari tug`ilganidun boshlab Temurning katta xotini Saroymulkxonim tarbiyasiga berilar edi, Ulug`bek tug`ilganida Saroymulkxo-nim Temurning: oila a'zolari bilan Sultoniya-da lashkarning ug`ruqida turardi. Saroymulkxonim tarbiyasidagi Ulug`bek o`zining ilk bolalik yillarini ko`proq bibisi bilan birga Samarqand va Qorabog`da o`tkazdi. Saroymulkxonim saltanat poytaxti Samarqandda bo`lgan kezlari yosh Ulug`bek ham uning yonida bo`lar, qish paytlari esa Temur ularni Qorabog`ga (Arronga) chaqirtirib olardi⁷⁷. Ozarbayjon hududida joylashgan bu shahar Amir Temurning avval, besh yillik, keyin „yetti yillik“ harbiy yurishlari davrida qishlab dam oladigan qarorgohiga aylangan edi. Qorabog`ning ob-havosi yoqimli bo`lib, qishlov tugagach, yana safarni davom ettirishga Temur uchun qulay joy edi. Ulug`bek yoshlik chog`ida bobosi Temur va bibisi Saroymulkxonim bilan Armaniston, Ozarbayjon, Gur-jiston va Eronning ko`pgina shaharlarida bo`lib chiniqadi. 1404-yili yosh Ulug`bek uchun ana shunday safarlar tugaydi, chunki u boshqa shahzoda va xonimlar bilan Samarqandga qaytib keladi.

Ulug`bek o`n yoshidan boshlab Samarqandda Amir Temurning boshqa nabiralari qatorida bobosining shohona davlat kengashlari va elchilarni qabul qilishdek nufuzli va tantanavor marosimlarida qatnashar edi. Bunday marosimlar odatda tez-tez bo`lib turar, shahzodalar, xususan, Ulug`bek ham davlat yumushlaridan xabardor bo`lib turar edi.

Ulug`bek yoshligidanoq bilimga zo`r ishtyoq hissi bilan voyaga yetdi. O`smirlik chog`ida unga Temur saroyidagi eng nufuzli olimlardan Qozizoda Rumiy va Mavlono Ahmadlar falakiyot va riyoziyot ilmidan saboqlar berdi.

⁷⁷ Ахмедов А. Улугбек. Т. 1991. 29-бет.

Mavlono Ahmad yulduzlarning taqvimlari jadvallarini tuza olgan iqtidorli olim bo'lgan. Qozizoda Rumiy o'sha davrdayoq ilmi hay'at (astronomiya) sohasining ko'zga ko'ringan yetuk olimlaridan edi. Ulug'bek uchun, ayniqsa, Temur saroyidagi olimlar anjumani juda maroqli o'tar edi. Ulug'bek ushbu anjumanlarga qatnashib olimlar va shoirlar bilan muloqotda bo'lib turar edi. Buchrashuvlar yosh Ulug'bekning madaniy va ayniqsa, ilmiy jixatdan yanada kamol topishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatardi. Ulug'bek kitob mutolaa qilishdan vaqtini ayamas, bobosining Ko'ksaroydagi podshrlikka xos kutubxonasi ham uning uchun doimo ochiq bo'lar edi. Unda ilohiyot, hadis, tarix, geografiya, falsafa, fiqh, tibbiyot, falakiyot, riyoziyot va boshqa fanlarga oid kitoblar saqlanardi⁷⁸. Ulug'bek oylab kutubxonada qolib ketar, hatto safarlarga, ham kitoblar olib chiqar edi.

Ulug'bek 11 yoshga to'lay daganda (1405-yil 18-fevral) uning bobosi Temur vafot qiladi. Shundan so'ng Temurning ulkan imperiyasi feodal sulolaviy kurashlar iskanjasiga tushib qoladi. O'sha kezlari (1405-yildan to 1409-yilgacha) Ulug'bek otasi Shohruh Mirzo huzurida bo'ladi va bir necha bor uning harbiy yurishlarida qatnashadi, Shohrux Mirzoning kitobga, ayniqsa, nodir qo'lyozmalarga qiziqishi zo'r bo'lib, Hirotida u o'lgan kutubxona yaratgan edi. Ulug'bek bo'sh vaqtlarida ushbu kutubxonada bo'lar, undagi nodir kitoblarni mutolaa qilar edi. O'z zamonasi va o'tmishdagi ko'p olimlarning asarlarini Ulug'bek dastlab Samarqandda so'ngra otasining ushou kutubxonasida o'qishga muyassar bo'ladi. Jumladan, yunon olimlari — Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolemeylarning klassik asarlari bilan yaqindan tanishadi. Vatandoshlari Ahmad bin Muhammad al-Farg'oniyy Muhammad al-Forobiy, AbuRayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy va boshqa olimlarning ilmiy asarlarini qunt bilan o'rganib chiqadi⁷⁹.

Ulug'bek Movarounnahr hukmdori deb e'lon qilinganida endigina 15 yoshga kirgan edi. Shuning uchun Samarqanddagi haqiqiy hokimiyat Ulug'bekning vasiyi (otalig'i) amir Shohmalikka ishonib topshirilgandi. U Ulug'bek 17 yoshga

⁷⁸ Ахмедов Б. Мирзо Улугбек. Т. 1994. 101-бет.

⁷⁹ Ахмедов А. Улугбек. Т. 1991. 39-бет.

to'lguncha Shohrux Mirzoning ko'magida Samarqandni Ulug'bek nomidan boshqarib turdi. Ulug'bek vasiydan xalos bo'lgach (1411-yil), Movarounnahr va unga yondosh viloyatlarning haqiqiy hukmdori bo'lib qoldi. Bu davrda Xorazmda temuriylarning hokimiyati Shohrux va Shohmalik tomonidan qayta tiklanadi. Xorazmga Amir Shohmalik Shohrux tomonidan noib qilib tayinlanadi. Farg'onani mo'g'ullar talaganligi tufayli va Farg'ona hokimi Mirak Ahmad taslim bo'lganidan keyin bu viloyat ham 1414-yili Ulug'bek mulklari qatorig'a qo'shib olinadi.

Ulug'bek o'z hukmronligi davrida harbiy bosqinchilik yurishlari olib bormaydi. U faqat zarurat tug'ilganda mamlakat xavf ostida qolgan hollardagina tegishli choralar ko'radi. Masalan, 1425-yilning boshida Mo'g'uliston tarafidan shunday xavf-xatar tug'ilganida, Ulug'bek ularga qarshi qo'shin tortishga majbur bo'ladi. U so'nggi qo'shinni 1427-yili Oq O'rda xoni Baroq o'g'longa qarshi tortgan edi. Shundan keyin o'tgan 20 yil mobaynida Ulug'bekning o'zga yurtlarga qarshi harbiy yurishlari bo'lmagan⁸⁰. Ulug'bek harbiy yurishlar bilan emas, balki ma'rifat, ilm-fan hamda obodonchilik ishlari bilan shug'ullangan. Xullas, Ulug'bek davlat arbobi tarzida emas, balki jasur olimligi, madaniy-ma'rifiy ishlari hamda yaratuvchanlik faoliyati bilan shuhrat qozongan. Lekin u davlat ishlarini butunlay tashlab qo'ya olmas edi. Chunki hokimiyat tepasida turish fozillik va ma'naviy ishlarini amalga oshirishda Ulug'bekka yordam va madad berardi. Ulug'bek o'z faoliyatida ko'proq madaniy va ilmiy muassasalar qurish va mamlakatga ma'rifat nurini sochish, madaniyatni taraqqiy ettirish, obodonchilik, ma'murchilik va ijtimoiy taraqqiyot yo'lini tanladi⁸¹.

Ulug'bek davlatining nufuzli va madaniy markazlari bo'lmish Buxoro (1417-yili) Samarqand (1420-yili) va keyinchalik G'ijduvonda (1433-yili) madrasalar qurdirib, ilmiy va ijtimoiy taraqqiyotga kattaahamiyat berdi.

Ulug'bek qurdirgan madrasalar o'z davrining dorulfununlari hisoblanib, ularda mashhur olimlar ilohiyot ilmlari (Qur'on, hadis, tafsir) dan tashqari

⁸⁰Т.Н Қори-Ниёзий. Улуғбек ва унинг илмий мероси. Т. 1971. 65-бет.

⁸¹Бартольд В.В. Улуғбек и его время. Соч.Т. II. 1-часть. М.: 1964. С. 37.

riyoziyot, xandasa, ilmi hay'at, tibbiyot, tarix,geografiya, ilmi aruz (poeziya) kabi fanlardan ham dars berishgan. Madrasalarda o`qib tahsil ko`rgan va olim-lar sinovidan muvaffaqiyatli o`tgan talabalarga sanad (shahodatnoma) lar berilgan. Ulug`bekning Samarqanddagi madrasasida Sharqning mashhur shoiri Abdurahmon Jomiy ham tahsil ko`ribo`qishni tugatgandan so`ng shu madrasada mudarrislik qilgan. Buxorodagi Ulug`bek madrasasi darvozasiga Qur'ondan olingan bayt — "Talab — ul ilmya farizatun, alo kulli muslimin va muslima", ya'ni "ilmga talab har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdur", degan so`zlar naqsh etilgan bo`lib, bunday hikmatni malrasa peshtoqiga yozdirish Ulug`bekning fuqaroni ijtimoiy taraqqiyotga chorlashining` guvohi edi.

Ulug`bek qurdirgan madrasalar orasida, ayniqsa,Samaqand madrasasi qurilishi va faoliyati jihatidan alohida e'tiborga sazovordir. Ulug`bek Samarqanddagi madrasasi qoshida G`ijduvon va Buxoroda qurganmadrasalaridan farqli o`laroq madrasaga o`zg`a shaharlardan kelgan mashhur fozilu ulamo va ilmtalab yoshlar uchun alohida xonaqoh ham qurdirtiradi. Madrasava xonaqoh uchun joyniUlug`bek o`sha davrda shaharning eng nufuzli bozor joyi hisoblangan "Sarduvonik"⁸² myvzesi, hozirgi Registon maydonidan tanlaydi.

Bu joy o`shanda shaharning o`rtadagi qismida joylash gan bo`lib, atrofga nisbatan baland edi. Ulug`bek ushbu maidonda dastavval masjid binosini, so`ngra birin-ketin madrasa, xonaqoh va karvonsaroy binolarini qurdirgan ko`rinadi. Bulardan tashqari, u ushbu joyga ajoyib bir hammom binosini ham soldiradi. Bu tadbirlar bilan Ulug`bek nafaqat shu joyning, balki butun shahar qiyofasining me'moriy muhitda katta ijabiy o`zgarish yasaydi. Chunki u o`z tabiatiga ko`ra madrasa va xonaqoh qurilishiga katta ahamiyat berib, ulardan 15 yilcha oldin qurilgan Temurning jome masjidi va Bibixonim madrasasining qurilishidagi ansambl (majmua) tartibi—"Qo`sh" uslubini tanlaydi. Bu uslubga binoan qurilajak binolarni ma'lum bir mo`jazmaydon atrofida tarzlari bilan bir-biriga qarama-qarshi, ya'ni muqobil joylashtirilgan. Ulug`bek ham madrasa va xonaqoh qurilyshida xuddi shu uslubniqo`llab, uni rivojlantirdi. Ammo, bu uslubni qo`llash

⁸²Sarduvonik- "Sari cho'y devonik" so`zidan olingan bo`lib, tez oqar ariq ma'nosini anglatadi.

uchun madrasa va xonaqoh qurilajak joydagi ilgari qurilgan imoratlarni, jumladan, Tuman oqo qurdirgan bozor chorsusi "Timi kulax furushon"ni buzib, shu yerga yaqin joyga ko`chirishga to`g`i keladi. Madrasa va xonaqoh orasidagi maydonning shimol tomonidan karvonsaroy binosini qurib, ushbu me'moriy maydonni yanada go`zal bir majmuaga aylantiradi. Bu yerda shuni ham ta'kidlash kerakki, shahar darvozalaridan boshlangan bir necha ko`chalar ushbu markaziy mayyaonga kelib uchrashar edi. Ko`chalardagi odamlar ancha uzoqdan turib madrasa va xonaqohning gumbazlariyu, baland minoralarini ko`rar edidar.

Ushbu ko`chalardan biri Oxanin darvozasi yonidan boshlangan Temur qurdirgan usti yopiq savdo rastalari ko`chasi bo`lib, uning bir boshi Temurning jome masjidi va Bibixonim madrasasi bilan tugab ajoyibanjumanni tashkil etar ediyu, lekin ko`chaning janubiy bo`lagi, ya'ni shahar markaziga chiqadigan qismi shaharsozlik nuqtai nazaridan vaqtida takomiliga yetmay qolgan edi. Ulug`bek homiyligidagi zukko me'morlar ushbu muammoni ham o`ta teran ma'no va mazmun baxsh etib ado etdilar, Ya'ni ko`chaning bu qismida ham g`aroyib bir majmua tashkil etib, shaharsozlik bobida yaxlit va betakror anjuman bunyod etdilar⁸³.

Ulug`bekning Samarqand madrasasi Buxorodagi madrasasidan keyin (1417—1420 y) qurilgan bo`lib, tarzi va ichki ko`rinishi, muhandislik yechimlarining o`ziga xosligi bilan temuriylar davrida qurilgan ko`pgina boshqa madrasalardan farq qiladi. Ayniqsa, bosh peshtoqining tarzi va me'moriy tuzilishi g`oyat salobatli va mahobatlidir. Madrasaga kiraverishdagi peshtoq yuzlarida to`la osmon tasviri ifodalangan. Atoqli olim, akademik Toshmuhammad Qori-Niyoziy bu holni "madrasada o`qitilgan fanlar ichida falakiyotga alohida ahamiyat va faxrli o`rin berilganligidan", debtushuntiradi. Madrasa tarhi to`g`ri to`rtburchak shaklida (81x56 metr) bo`lib, 30x30 metr hovliga ega, tashqi burchaklarida baland minoralar joylashgan. Madrasa o`z vaqtida ikki qavatli bo`lib, to`rt burchagida baland gumbazli darsxonalar, har ikki yonida hovliga qaragan qator hujralar bo`lgan. Har bir hujra uch

⁸³Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч.Т. II. 1-часть. М.: 1964. С. 48.

xonadan: qaznoq, yotoqxona vz darsxonadan iborat bo`lgan. Hovlining to`rt tarafida bir-biriga muqobil to`rtga baland ayvon va supalar joylashgan. Hovliga yon tomondan ham kirish mumkin. Ayvonlar hovliga salobat beribgina qolmay, yoz kunlari darsxona vazifasini ham bajargan. Madrasa devorlyrining naqshlari asosan, moviy, lojuvard va oq ranglarda gilam husnidagi girihlardan iborat bo`lib, koshin (yuzasi sir berib pishirilgan rangdor g`isht) lar bilan terilgan madrasa bosh peshtoqidagi bezaklar ham koshinkoriy ishlangan. Ana shupeshtoq yuzasidagn koshinlarni jazirama oftob nuridan saqlash haqidagi quyidagi qiziq bir fikrni bayon qilamiz.

1885-yilda Samarqandda xalq hashari uyushtirilib, Registondagi Ulug`bek, Sherdor va Tillakori madrasalari tozalanadi va ulardagi tuproqlar Regisgon maydoniga tashib chiqariladi. Maydon markazi baland uning atrofi esa past qilib tekislanadi. Maydon sathi qayroq toshlar bilan farch qilinadi. 1976-yilga kelib Registon maydonidan 2 metr balandlikda tashkil topgan sun'iy tuproq qatlami olib tashlanadi va maydonning qadimiy sathi ochiladi. Ana shu qazishma vaqtida Ulug`bek madragasiga kirishdagi bosh ravoqning eniga tomonlari teng va madrasa poy devoridan olti metr uzoqroqda joylashgan sun'iy hovuz borligi ma'lum bo`ladi. Hovuz cheti maydon sathidan bir metr baland bo`lib, atrof devorlari va osti marmardan ishlangan. Ularning orasidan suv o'tmasligi uchun maxsus qorishmabilan to`ldirilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko`ra, xovuz doim tiniq suv bilan to`lib turgan va unda har xil rangdagi chiroyli baliqlar suzib yurgan. Hovuzdagi suv ushbu muhitdagi havoning quyosh ta'siridan qizib ketmasligini ta'minlagan "Yana boshqa tomoni shundaki, — deb yozadi taniqli ta'mirchi me'mor Abdug`affor Haqqulov,— quyosh nuriga qarama-qarshi turgan peshtoqdagi koshinlar aksi hovuzga tushib, ajoyib manzara vujudga kelgan. Xalq hovuzga peshtoqning aksi tushishi va baliqning unda suzishini tomosha qilgan. qunning jazirama issig`i koshinlar jilosiga salbiy ta'sir etishini tushungan Mirzo Ulug`bek peshtoqning eniga barobar qilib chiroyli matolardan niqob tiktirgan. Ertalab kun chiqishdan peshinga qadar peshtoq shu mato bilano`rab qo`yilib peshindan keyin yana niqobni ochishgan. Ba'zan Samarqandga kelgan mehmonlar peshtoq

ochilishini kutib turar, shu boisdan madrasa atrofi doim odamlar bilan gavjum bo`lib turar ekan"⁸⁴.

MirzoUlug`bek qurgan madrasalariga mudarris tayinlashda ham ibratli ish tutgan. Bir kuni Ulug`bekdan: "Shohim, bu ulkan madrasa qurilishi tugay deb qoldi. Unga kimni mudarris etib tayinlamoqchisiz?"—deb so`rashganlarida Ulug`bek: "Bu madrasa mudarrisi jami ilmlarga mohir va barcha fanlardan bahraman va komil kishi bo`lg`ay", deb javob bergan ekan. Shunda ushbu madrasa qurilishida ko`maklashib, ustod binokorlar qo`liga g`isht uzatib turgan va ancha muddatdan beri Samarqandga kelib, jiddu-jaxt bilan tahsil ko`rgan mavlono Muhammaa Havofiy bu martabaga men loyiqdurmen", — deb qoladi. Shundan so`ng Ulug`bek uni yoniga chaqirib tanishadi va imtihon aylaydi. Nimaniki so`ramasin, ma'qul va maqbul javob oladi. Keyin uni izzat-hurmat qilib Qozizoda Rumiylar huzuriga olib boradi.

Madrasa ochilgan kuni to`qson nafar turli olimlar yig`ilishib, mavlono Havofiydan "ochiq dars" o`tkazishni so`raydilar. Havofiy darsiga Mirzo Ulug`bek va Qozizoda Rumiylar ham tashrif buyurishadi. Havofiy darsni ilmiy jihatdan o`ta teran bayon qiladiki, uning ma'nosini Ulug`bek va Qozizoda Rumiylardan bo`lak hech kim to`la fahmlab ololmaydi<sup>85</sup>. O`sha kuni olimlar kengashi bilan mavlono Muhammad Havofiy Ulug`bek madrasasining yetakchi mudarrisi qilib tayinlanadi. Bobomiz Ulug`bek XV asrdayoq olim va fozillar ichida bunday oshkoralik tarzida ish tutishi bugungi kunda ham o`rnak bo`lsa arzigudek ahamiyat kasb etadi. Mashhur adib Zayniddin Vosifiyning xabar berishicha. Ulug`bek madrasasi va xonaqohiga o`n nafar mudarris tayin qilingan ekan, ular orasida Qozizoda Rumiylar, Ulug`bekning o`zi, G`iyosiddin Jamshid Koshiyva keyinroq Ali Qushchi, mashhur adib Abdurahmon Jomiylarning bo`lganligi buning isbotidir.

Ulug`beko`zining "ZijjadidiKo`ragoniy" asarida madrasa mudarrislariga shunday talablar qo`yadi:⁸⁶ "Mudarris dunyo sirlarini ochuvchi va borliqni to`g`ri

⁸⁴Хаккулов А. Тамирлаш санъати. Т. Мулоқат, 1988, 12 март.

⁸⁵Мамадазимов М. Улуғбек ва унинг расадхонаси. Т., 1994. 39-бет.

⁸⁶Ўролов А,Хожихонов М.Улуғбек яратган маънавият. Т., 1999. 54-бет.

tushunishga yordam beruvchi barcha tabiiy va aniq bilimlarni yaxshi bilmog'i zarur".

Ulug`bekning Samarqand madrasasida tahsil ko`rgan Mahmud ibn Haydar o`zining "Tarixi ilm" kitobi muqaddimasida madrasadagi intizom va talabchanlik haqida shunday bir qiziq dalil keltiradi: "Bir kuni madrasa mudarrisi Ismatullo ibn Mansur talabalarga dars o`tish o`rniga uning uyida ishlashga, uyining tomini shuvashni buyurdi. Bu haqida Ulug`bek bilib qolib, mudarris shuvatgan tomini buzdirdi va unimadrasadagi ta'lim tarbiya ishlaridan chetlatdi"⁸⁷. Ulug`bek Samarqand madrasasidagi talabalarni uch mavqyega. I — "anda" (past, boshlang`ich 2 -yil), II — "aust" (o`rta, keyingi 3-yil), III - "a'lo" (oliy yoki "yuqori" "tugatuv yili", 3-yil)ga bo`lib, shu asnoda ularga maosh belgilagan. Ko`rib turibmizki, Ulug`bek madrasasining o`quv muddati boshqa madrasalardagi o`quv muddati (15-16 yil) dan farq qilib, rasmiy 8 yil deb belgilangan. Ayni paytda, "hayotiy" sabablarga ko`ra, madrasada 8-yildan ko`p o`qigan talabalar pam bo`lgan. Bunday talabalarga rasmiy o`qish muddati tugagach madrasadan maosh belgilanmagan⁸⁸.

Ulug`bek va u bilan ishlagan olimlar talabalar bilan shug`ullanishda "Jamoat" uslubini ishlab chiqib, unga ko`ra har bir ustoz faqat 11—15 ta shogird bilan shug`lanishi shart bo`lgan. Ulug`bekning pedagogik qarashlarini maxsus o`rg`angan olim M. Tohirovning fikricha, Samarqand madrasasida qo`llanilgan o`quv rejasining taxminiy ko`rinishi quyidagicha bo`lgan⁸⁹:

Madrasada o`rgatiladigan fanlar	Anda	Aust	A'lo
Arab tili	-	+	+
Qur'on	+	-	-
Ilmi bayon (notiqlik)	+	+	-
Xadis	+	+	-
Mantiq	-	+	+
Tafsir	-	+	-
Fiqh	+	+	-

⁸⁷ Тахиров М. Педагогические взгляды Мирзы Улугбека. Т.: 1984. С.47.

⁸⁸ Абдуллаева В.А., Валиходжаев Б.Н. Дыхание веков. Самарканд, СамГУ. 1970. С. 39.

⁸⁹ Уролов А, Хожихонов М. Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарканд, Сугдиён. 1996. 121-бет.

Tabiatshunoslik	-	+	+
Handasa	-	+	+
Riyoziyot	+	+	+
Falakiyot	-	+	+
Tibbiyot	+	+	-
Jo'g'rofiya	-	+	-
Tarix	+	+	Falsafa
Adabiyot	-	+	+

Fikrimizcha, madrasada ushbu asosiy fanlardan tashqari ayrim qo`shimcha va maxsus fanlar ham o`tilgan bo`lishi mumkin.

Samarqand madrasasi XVII asr boshlarida ham ishlab turgan ko`rinadi. Zominda tug`ilib, Buxoro va Samarqandda o`qigan iqtidorli olimlardan sanalgan Qozi Soqiyning Ulug`bek madrasasida bir muddat bosh mudarrislik mansabida bo`lganligi buning isbotidir (u kishi 1619—20-yili vafog etgan).

Ulug`bekning Buxoro va G`ijduvondagi madrasalari ham Samarqand madrasasidek to`rtburchak tarxga va chorsu hovliga ega. Hajmiy tuzilishi va tarxining o`lchovlari jihatidan Samarqand madrasasiga nisbatan kichik bo`lsada, ancha mukammal ishlangan. Hovlilar ikki muqobil ayvonli. Buxoro madrasasi ikki qavatli hujralar bilan, G`ijduvon madrasasi esa bir qavatli qilib qurilgan. Madrasalarda darsxonalar, masjid, kitobxonalar, hujralar, ayvonlar, minoralar bor. Madrasalar hovlisi berk, lekin o`ziga xos jozibador qilib bezatilgan. Madrasa tarzlari serhasham, puxta va teran ohanglilikda go`zal va mahobatli qilib ishlangan. Shunisi diqqatga sazovorki. Ulug`bek madrasalaridagi koshinkoriy bezaklar birisi boshqasida hech qachon takror ishlatilmagan. Ma'lumotlarga ko`ra, Buxorodagi Ulug`bek madrasasining bosh me'mori Isfaxonlik me'mor usta Tohir o`g`li Ismoil bo`lgan⁹⁰. Ushbu me'mor keyinchalik o`z o`g`li bilan Ulug`bek rasadxonasi qurilishida ham bosh me'mor bo`lgan ekan<sup>91</sup>. Bizning fikrimizcha, me'mor Ismoil Ulug`bekning Samarqanddagi madrasasi qurilishida ham ishtirok etgan bo`lsa ajab emas. Tarixiy manbalarga ko`ra, Samarqand mad-rasasining tarxini Hirotda Shoqruх Mirzo homiyligida mashhur bo`lgan me'mor Qavomiddin Sheroziy tuzgan.

⁹⁰ Юсупова Д.Ю. Писма Гийас ад-Дина Каши к своему отцу из Самарканда в Кашан. // Изистории науки эпохи Улугбека. Т.,1979. С. 39.

⁹¹ Зоҳидов П. Зеб ичра зийнат. Т., 1985 . 71-бет.

Ulug`bek qurdirgan madrasalarning yaxshi ishlab turishi uchun durustgina vaqf belgilab qo`ygan edi. Jumladan, birgina Samarqand madrasasiga yiliga 5 ming tantadan ziyod pul belgilangandi⁹². Ulug`bek o`z madrasasi yonida talabalarning toza, sog`lom yurishi uchun hammom, sartaroshxona va oshxona tashkil etgan edi. Talabalar maosh (stipendiya) va kiyimlar bilan ta'minlanib turilar edi. Ular boshqa madrasalardagi talabalardan farqli o`laroq haftada besh kun o`qir edi. Talabalarning davomat va o`zlashtirishi maxsus nazorat etilardi. Sababsiz dars qoldirgan talabalar nafaqadan mahrum edilar. 100 dan ziyod talaba Ulug`bek madrasasida ta'lim olar edi.

Ulug`bekning Samarqand madrasasi asrlar davomida musulmon Sharqida dong taratgan oliy-bilim maskani bo`lib keldi. Madrasa binosi ta'lim-tarbiya, ma'rifat va ilm maqsadlarini ko`zlab bunyod etilganligi uchun ham uni yaratgan me'morlar talabalarga bilim va tarbiya berish masalasini kompleks hal qilishdi; ta'limot va ilm markazi go`zal san'at asari tarzida g`oyat maftunkor me'moriy muhit maskani ko`rinishida yaratildi. Oddiy va rangli sirlangan g`ishtlar, mozayka va o`ymamarmarlar omixta bo`lib, ana shu yagona g`oyani ifodalagan. Naqshlardagi yulduzsimon girixlar va arab imlosidagi yozuvlar Ulug`bekning ma'rifatparvarligi va falakiyot faniga cheksiz muhabbatini asrlar osha himoya qilib turibdi.

Ulug`bek faqat madrasa—dorulfununlar qurish bilan cheklanib qolmadi. U umuman Samarqandni obod qilishga va Movarounnahrning boshqa shaharlarini ham obodonlashtirishga katta hissa qo`shdi. Ayniqsa, u Samarqandda, Registon maydonida katta qurilishlar qildi. O`zi qurdirgan madrasa yoniga 1427-yili Mirzoyi karvonsaroyini soldirtirdi (hozirgi Tillakori madrasasi, ushbu karvonsaroy o`rniga XVII asrda qurilgan). Shu yerda madrasa va xonaqohga yaqin joyda ajoyib bir, hammom ham qurdirgan. Madrasaning janub tomonidan Muqatta nomli masjid ham soldirdiki, u haqda Bobur keyinchalik. "... Bujihatini, Muqatta derlarkim, qit'a-qit'a yig`ochlarni tarosh qilib, islamiy va xitoy naqshlar solibturlar, tamom devorlari va sakfi ushbu yo`sinluktur", — deb yozadi. Tarixchi olim B.

⁹²Тахиров М. Педагогические взгляды Мирзы Улугбека. Т.: 1984. С.55.

Ahmedovning fikricha Ushbu masjid va Ulug`bek madrasasi uning rasadxonasi bitkazilib ishga tushganga qadar, o`zining asosiy vazifasidan tashqari, o`ziga xos rasadxona vazifasini ham bajargan.

Ulug`bek bobosi Amir Temur davrida qurilishi boshlanib, ayrim sabablarga ko`ra bitmay qolgan birtalay muhim binolarni ham qurib bitkazdi. Samarqandda Amir Temurning jome masjidi ta'mirlanadi. Go`ri Amir maqbarasi safiga yangi imoratlar qo`shiladi. Shohizinda ansambli qurilishi nihoyasiga yetkaziladi. Marvda hayriya muassasalari, shuningdek, Yassidagi Xoja Ahmad Yassaviyning qabri ustiga qurilgan binolar tugallanadi. Bulardan tashqari, Ulug`bek farmoyishi bilan Morarounnahr shaharlarida ko`plab chorsu, savdo rastalari, karvonsaroylar, hammomlar, sardobalar, Samarqandda Obirahmatsuvi yoqalab bir qancha ko`rkam bog`-rog`lar barpo etiladi.

Samarqanddagi Bibixonim masjidi hovlisining o`rtasidagi ko`k marmar toshdan yasalgan ulkan lavh Qur'on qo`iladigan maxsus kursini ne-ne odamlar ko`rmagan. Ushbu lavh ham Mirzo Ulug`bekfarmoniga binoan yasalganligi ko`pchilikka ma'lum. Toshkursi chetiga "Sultoni Azim, oliy himmatli xoqon, diniy diyonat homiysi, hanafiy mazhabining posboni, aslzoda sulton, ibn sulton, amiri mo`min Ulug`bek Ko`ragon", degan yozuv bitilgan<sup>93</sup>. Bu laxm tosh Ulug`bek Mirzo 1425-yili Mo`g`ulistonga qilgan harbiy yurishidan olib qay-tgan uchtoshning biridir. U Amir Temurning Oltin O`rda bosqinidan olib kelgan xalifa hazragi Usmon Qur'oni uchun maxsus yasattirilgan. Toshkursi nafis, hoshiyalar, muqarnaslar, islami naqshlar va yozuvlar bilan bezatilgan.

Ulug`bek 1424-yili Go`ri Amir maqbarasida uning kun chiqish tarafidan eshik ochtiradi va undanto maqbaraga qadar g`umbazli yopiq ayvon qurdiradi. Maqbara eshigining tepasi, yon taraflari, shuningdek, yopiq ayvon naqshli bo`yoqlar bilan bezatilgan. Qabrlar atrofidagi jimjimador oq marmar panjaralarni ham Ulug`bek qo`ydirgan bo`lib ular maqbaraning ichkiko`ri-nishiga alohida husn qo`shibturibdi.

⁹³Мамадазимов М. Улуғбек ва унинг расадхонаси. Т., 1994. 40-бет.

Ulug`bek davrida Temurqabri uchun kattakon to`qyashil nefritdan tosh yo`nilib, unga Temurning shajarasi o`yib yozdiriladi⁹⁴.

Ulug`bek 1435— 1438-yillarda Shahrisabzda ham bir necha imoratlar quradi. Shulardan biri shaharning yangi jome masjidi bo`lib, uni Ulug`bek otasi Shohrux Mirzo nomigaqurdirtiradi. Masjidning mahobatli gumbazi koshinkoriy ko`k rangda bo`lganligidan "Ko`k gumbaz" nomini olgan. Ulug`bek masjidning bosh peshtoqini ilgari bobosi qurdirgan shayx Shamsiddin Kulol maqbarasi qarshisidan qurib, o`ziga xos me'moriy ansambl tashkil etadi. Bosh peshtoqning har ikkala yonlariga tutashgan ko`k ustunli ayvonlar bizgacha yetib kelmagan Hozirgi kunda masjidning asosiy qismi peshtoq va gumbaz qaytata'mirlanib saqlanib kelmoqda. Peshtoq va gumbazning tashqi me'moriy shakllari o`zining ulug`vorligi bilan ajralib turadi.⁹⁵

Ulug`bek qurdirgan binolarning yana biri shahrisabzlik Temuriylar avlodi namoyandalariga atab bunyod etilgan va keyinchalik xalq orasida "Gumbazi Sayidon" {"Sayidlar gumbazi"}) deb nom olgan maqbaradir. Maqbara janub tomondan Shayx Shamsiddin Kulol maqbarasiga tutash bo`lib, Shahrisabzdagi "Ko`k gumbaz" masjidiUlug`bek qurdirgan jome va boshqainshootlar bilan birga "Dor ut-tilovat" ansamblini tashkil qiladi. Maqbara rejasi kvadrat shaklida bo`lib, tomonlari tashqaridan 9 metr, ichkaridan 6 metrga yaqin. Kvadrat asos ustida sykkiz qirrali prizma, uningustida esa ustivon (silindr) joylashgan bo`lib, u baland zangori gumbaz bilan yopilgan. Maqbara qismlarining o`lchovlari bir-biriga hamohang va uyg`un. Peshtoqi ko`k, zangori, oq tusli naqshinkor girhlar bilan bezatilgan. Bezaklar g`oyat nafis, ichki devor va gumbaz sathh girh va islmiy naqshlardan, zamini esa oq gulganchdan ishlangan. Ustivon tashqari-dan koshinkor g`irhlar bilan naqshlanib, girhlar orasiga oqkoshindan yirik qilib kufiy xatlar bitilgan.

Maqbara ichida 4 ta qabrtosh bo`lib, uchitasi saidzodalar Amir Abdul Muoniy, Muhammad Said Ma'rufxon Abdul Muoniylarga tegishlidir. Bir qabrtosh sirtidagi

⁹⁴Уролов А,Хожихонов М.Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарқанд., Сугдиён. 1996. 125-бет.

⁹⁵Абдуллаева В.А., Валиходжаев Б.Н. Дыхание веков. Самарканд., СамГУ. 1970. С. 48.

yozuvlar o`chib ketgan. Bu shaxslar shahrisabzlik ulug` kishilar — saidlardan hisoblangan.

"Gumbazi Sayidon" arxitekturasini jihatidan Samarqand Shohizindasidagi "Qo`sh gumbazli maqbara"ga, naqshlarning tuzilishi jihatidan Bibixonim masjidi va Shohizinda maqbaralariga o`xshab ketadi.

Ulug`bek qurdirgan karvonsaroy haqida ham ikki og`iz to`xtalib o`tmoqchimiz. Ulug`bek karvonsaroydagi tushadigan daromadlarni madrasa xarajatiga sarflashni belgilab bergan. Olimlarimizning fikricha, karvonsaroy bir qavat, katta ichki hovliligi, tashqarisidan jo`ngina me'moriy ko`rinishga ega bo`lgan. U Registon maydonidagi boshqa binolarga nisbatan aytarli ajralib turmagan. Ulug`bek hamma diqqatni ilm markazi-madrasaga qaratgan bo`lishi mumkin. Buning ustiga karvonsaroylar o`sha davrda eng ko`p tarqalgan ommaviy imoratlar qatoriga kirgan. Tabiiyki, shunday bo`lgach Ulug`bek karvonsaroyi Bobur diqqatini o`ziga jalb qila olmagan. Shuning uchun ham Bobur uni o`z asarida zikr etmagan bo`lishi mumkin⁹⁶.

XVI asr o`rtalarga kelib Samarqandda yangi jome masjidiga ehtiyoj tug`ilgandan so`ng, Registon maydonining nufuzli joyligini hisobga olib, masjid uchun ushbu Mirzoyi karvonsaroyining joyi tanlandi. Olimlarimizning aniqlashicha, Tillakori madrasa-masjidi Mirzoyi karvonsaroyining poydevori ustiga qurilgan bo`lib, faqat imoratning g`arbiy va janubiy tomonining markaziy qismlari butunlay buzilib, masjid va markaziy peshtoq uchun qayta qurilib tiklanadi. Sharq va shimol tomonlardagi karvonsaroy hujralari esa o`z holicha qayta quriladi.

Ulug`bek hayotida eng katta o`rin tutgan, yevropada "Samarqand akademiyasi" deb shuhrat topgan, Ulug`bek va u homiylik qilgan olimlarning ilmiy kashfiyotlari, tadqiqot ishlari joyi va oliy mahkamasi hisoblangan, Samarqandda bunyod etilgan mashhur binolardan biri Ulug`bek rasadxonasidir. U 1424—1429 -yillari hozirgi Cho`ponota tepaligida, Obirahmat arig`i bo`yiga yaqin joyda quriladi. Rasadxonaning hajmiy yechimi, bezak va jihozlari haqidahali

⁹⁶Уролов А. Хожихонов М. Улугбек яратган маънавият. Т., 1999. 84-бет.

juda oz, afsuski, faqat umumiy ma'lumotlargagina egamiz, xolos. XVII asrgacha saqlanib, keyinchalik vayron bo`lib ketgan rasadxona qoldiqlarini rus olimi V.L Vyatkin 1908-yili unga taqdim etilgan tarixiy hujjatlar asosida topgan. Shundan keyin rasadxona o`rganila boshlandi. 1941-yili M.E. Masson, 1948-yili qazish va o`rganish ishlarini arxeolog olim V. A. Shishkin davom etirdi. Sovet davrida olib borilgan uzoq tekshirishlardan so`ng bino ustuvon (silindr) ko`rinishida bo`lganligi aniqlandi. Olimlardan V.Vyatkin, M.Masson, V. Shishkin, B. Zasipkin, T. Qori-Niyoziy, G.Pugachenkovalar hamda ke-yingi yillarda M. Bulatov, V Nilsen rasadxona ko`rinishi, shaklu shamoyilini ilmiy asosda aniqlab berishga harakat qildilar⁹⁷.

Rasadxona uch qavatli g`oyat hashamdor va pishiq gishtdan ishlangan ulkan bino bo`lgan. Mutaxassislarning fikricha, bino balandligi 30,4 metr, aylanasing diametri esa 46, 2metrga teng, Binoning asosiy qismini radiusi 40,2 metrli Sudsi fahri (sektant) deb atalgan ulkan kuzatish asbobi tashkil qilgan. Sudsning saqlanib qolgan qismi yer ostida joylashgan bo`lib, qolgan qismi yer sathidan 30 metrcha baland bo`lgan. Rasadxona binosi kattaligi, qurilish uslubining o`ziga xosligi va uskunalash jihatidan Sharq va Yevropa mamlakatlaridagi barcha boshqa astronomik inshootlardan ustun turgan. Sudsi faxri astronomiyaning asosiy doimiyliklar—muaddil (ekvator) va falakul-burj (ekliptika) tekisliklari orasidagi burchakni o`lchash, yillik protsessiya doimiyliklarini aniqlash imkonini bergan. Rasadxonada sayyoralar, oy harakati tekshirilgan. Kichik o`lchamli asboblar, zot ul usturlob (astrolyabiya), zot ul halqa, zot ul-muhbatayn (dioptr), zot ash-shubatayn (trekver), shomila va boshqa maxsus astronomik uskunalar bo`lgan. Rasadxona ichida katta zallar, turli katta-kichik xonalar, qariyb 15 ming kitobga mo`ljallangan kutubxona ham bo`lgan⁹⁸.

Rasadxona binosining sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Rasadxona xonalariga Ulug`bek o`zi va o`zidan oldin o`tgan olimlarning falakiyot sohasidagi muhimyutuqlarini turli shakllar, tasvir va raqam naqshlar

⁹⁷ Кари-Ниязов Т.Н. Астрономическая школа Улугбека. Изб. Труды. Т-VI. Т., 1967. С. 27.

⁹⁸ Щеглов В.П. Улугбек расадхонаси. Т., 1980. 114-бет.

bilanchizdirtirgan. U xuddi shunday uslubni ilgari o'zining Samarqanddagi madrasasida ham qo'llagan edi. Chunonchi, Ulug'bek madrasa ravog'iga sayyoralarining Quyosh atrofida ma'lum tartib bilan joylashishini, boshqacha aytganda, falak burji (zodiak) tasvirini soldirtirgandi. Ushbu tasvir madrasaga kiraverishda bino peshtoqiga ishlangan 12 burjli va uning ichidagi inson ko'zi qorachig'ini eslatuvchi naqsh sifatida hozirgacha saqlanib qolgan. Shakl ichiga, aftidan, Qur'ondan olingan axloq haqidagi suralar yozilgan⁹⁹. Shuningdek, Ulug'bek madrasaga yetti iqlim xaritasi tasvirini ham chizdirtirgan.

Falak burji va yetti iqlim xaritasi kabi ilmiy ma'no anglatuvchi tasvirlar madrasa binosining boshqa peshtoqlari va ichkari hovli bezaklarida ham uchraydiki ular kelajakda o'rgznishga loyiq bo'lgan zaruriy tarixiy ma'lumotlardir. Xuddi shunday tasvirlar Falakiyot, yer kurrasi, yetti iqlim bilan bog'liq bo'lgan kashfiyotlar, muhim belgi va rasmlar bilan rasadxona bezaklari sifatida uning ichki devorlari va shiplariga ham tushirilgan edi. Ularni o'z ko'zi bilan ko'rgan muarrih Abdurazzoq Samarqandiy "shunday yozadi: " U oily bunyod va ulug'sifat imoratning xonalari ichiga to'qqiz falakning hay'atiyuto'qqiz osmon doiralari shakllarini, darajalar, daqiqalar,soniyalardan tortib tooshiralargacha [chizildi] hamda aylanuvchi falaklar, yetti sayyora,sobita yulduzlar ko'rinishi vayer kurrasi hay'atiyu iqlimlar suratlarini tog'lar, biyobrnlar dilpazir naqshlaru benazir raqamlar bilan chizildi"¹⁰⁰. Har qalay rasadxona qurilishi juda murakkab bo'lganligi sababli, u besh yilga cho'zildi. Rasadxona etagida Ulug'bek ikkita mumtoz chorbog' ham qurdirgan edi. Biri Bog'i Maydon (unga Temur asos solgandi), ikkinchisi esa Chinnixona nomini olgandi. Bog'i maydonda ikki oshiyonli Chilstun nomli go'zal va mahobatli ko'shk qurilgan bo'lib, uning devori va ustunlariga marmardan sayqal berilgan. Chinnixona bog'idagi ikki imoratning biri toshdan, yana biri rangli Xitoy chinnisidan ishlangan. Imoratgina emas, hovuzi, quriladi, zinapoyalari ayvonlarigacha chinnidan edi. Bu bog'larda Ulug'bek kezi kelganda davlat kengashlarini ham o'tkazar edi.

⁹⁹Эргашев х., Темиров Х. Улугбек хазинаси тилга кирганда.// Мулокат. 1979. 28 ноябр.

¹⁰⁰ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи биврайн (Форс-тожик тилидан таржима, кириш валуғатлар А.Ўринбоевники). Т.: 1969. 278-бет.

3.2. Mirzo Ulug`bek ilmiy ma`naviyati va u jahon me`morlari madhida.

Rasadxona bitgach, Ulug`bek va uning homiylikdagi taniqli va mashhur olimlar fan ishlarini qizitib yuboradilar. Shoirlar ilmiy kuzatishlarda, jadval tuzishda, hisob kitob ishlari bilan mashg`ul bo`ladilar. Ulug`bek boshchilikdagi "akademiya" olimlari, o`sha davr mezoni bilan olganda, astronomik kuzatishlarda ajoyib muvaffaqiyatlarga erishganlar. Jumladan, ekliptika (falakul burj)ning osmon ekvatori (muaddalu nahor) ga og`ish burchagining miqdorini, beshta sayyoraning Zuhra (Venera), Zuhul (Saturn), Mirrix (Mars), Mushtariy (Yupiter) va Utorud (Merkuriy) ning yillik harakatini, yulduz yilining uzoqligini, 1018 yulduzni o`z ichiga olgan jadval va nihoyat aholi yashaydigan joylardan 633 tasining jug`rofiy koordinatalarini tuzganlar. 1437-yili ko`p yillik kuzatish va ilmiy mulohazalardan so`ng Ulug`bek va uning shogirdlari "Samarqand akademiyasi"da ishlangan buyukasar — "Zij jadidi Ko`ragoniy" ("Kuragoniyning yangi astronomik jadvali"ni yozib tugatdilar. Bu asar keyinchalik Sharq mumtoz astronomiyasining nazariy va amaliy masalalarini o`zida mujassamlashtirgan, uni yangi dalillar bilan boyitgan ulkan kashfiyot sifatida butun dunyoga tanildi. "Zij"da berilgan ilmiy natijalarning aniqligi va mukammalligi pirovardida jahon olimlarini hayratda qoldirdi. Ushbu shohona asar mazmunini vatandoshimiz, taniqli olim, mutafakkir Toshmuhammad Qori Niyoziy o`zining : "Ulug`bek va uning ilmiy merosi" degan kitobida kitobxonlarimizga ilk bor tahlil vatalqin qilib berdi("Zij"ning to`rtinchi kitobi taniqli olim A.Ahmedov mukammal sharhlar bilannashrga tayyorladi. Mazkur asar 1994-yili kitobxonlarga taqdim etildi¹⁰¹).

"Zij"ning dunyoga yoyilishida dastlab Ulug`bekning shogirdi, matematik, astronom Ali Qushchi va Mirim Chalabiy hamda Abdullali Birjandiylarning hisasi u katta bo`ldi. "Zij"dan tashqari, Ulug`bekning riyoziyot va falakiyotga tegishln "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola" hamda "Risolai Ulug`bek" kabi asarlarining yaratilishida ham Samarqand akademiyasining roli katta bo`ldi. Samarqand astronomik maktabida Ulug`bekning ushbu ilmiy ishlaridan boshqa

¹⁰¹Ўролов А,Хожихонов М.Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарқанд., Сугдиён. 1996. 131-бет.

qator ajoyib asarlari ham yaratildiki, ular ushbu maktabning yetuk olimlari G'iyosiddin Jamshid, Qozizoda Rumiy va Ali Qushchilar qalamiga mansubdir.

Jahon fani tarixida Mirzo Ulug'bek faoliyati kamdan-kam uchraydigan hodisa bo'lganligi endilikda keng miqyosda tan olinmoqda. U faqat tabiiy qobiliyati bilan emas, shu bilan birga, ilm-fanga nihoyatda mehrmuhabbat qo'ygan va ilg'or g'oyalarga qotiq ishonganligi, horib-tolmasligi va serqirra hayotining barcha jabhalarini bir zaylda olib borganligi tufayli shunday darajaga erishgandi.

Ulug'bekdavlat ishlarini bajarish bilan birga, odati bo'yicha haftada bir marta madrasada ilmi hay'at va riyoziyotdan ma'ruza o'qirdi. Uning chuqur bilimi, isbotlarning dalillarga asoslanganligi, mahorati va shu fanlarga muhabbati tinglovchilarni hayratga solardi. Bundan tashqari, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchilar bilan bir qatorda ustod Ismoil, Mavlono Ibrohim, Mavlono Badriddin va boshqa olimlar ham ma'ruzalar o'qirdilar¹⁰². Aytish mumkinki, bu ma'ruzalar olimlar orasida o'ziga xos bellashuvilmiy seminar ko'rinishida o'tardi.

Ulug'bekning o'ta kuchli bilimiga tan bergan G'iyosiddin Jamshid Koshiy shunday yozadi: "... yetti iqlimning farmonbardori islom padshohi donishmand kishidurlar ...

Haqiqat shuki, avvalo u kishi Qur'oni karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsirlarni va mufasssirlarning har bir oyat haqidagi so'zlarini aqlida saqlaydilar ... Arab tilining nahv va sarfini yaxshi biladilar va arabchada g'oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishi fiqhdan ancha xabardorlar: mantiq, ma'nolarning bayoni va usullardan ham xabarlorlar.

U kishi riyoziyot [matematika] fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko'rsatganlarki, kunlardan bir kuni otda ketayotib, 818 rajab oyining o'ninchi va o'n beshinchi kunlari orasidagi [milodiy 1415-yil 15—20-sentabr] dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni istadilar. Shunga ko'ra, otda ketayotib hayoliy hisob bilan Quyoshning taqvimi [o'sha kuni] bir daraja va ikki daqiqa ekanligini toptilar.

¹⁰² Ахмедов А. Улугбек. Т., 1991. 55-бет.

Keyin otdan tushgach, [hisob to`g`riligini] bu bandai bechoradan so`rab aniqlab oldilar.

Haqiqatan ham, xayoliy hisobda ko`p miqdorlarni yodda tutmoq va boshqa miqdorlarni bularga asoslanib topmoq kerak. Lekin [insonning] yodlash quvvati zaifdir va u darajada va daqiqalarni u qadar aniq topaolmaydi. Inson bino bo`lgandan beri shu kungacha hali hech kimsa bu qadar aniq hisoblay olmagan edi.

Qisqa qilib aytganla, u kishi bu fan sohasida g`oyat katta mahoratga erishganlar, yulduzshunoslikka taalluqli amallarni yaxshi bajarganlar va chuqur dalillar bilan xuddi keragidek isbotlaganlar: "Tazkira" va "Tuhfa"dan shu qadar zo`r dars o`tadilarki, ularga hech qanday qo`shimcha qilishning hojati qolmaydi"¹⁰³.

Ulug`bek Movarounnahrni barcha musulmon mamlakatlarining ilmiy markaziga aylantirish maqsadida Samarqandga olimu ulamolarni to`play boshlaydi. Poytaxtga Movarounnahrning turli shaharlaridan va Xurosondan to`plangan olimlarning soni 1417 -yilga kelib 100 dan ortib ketgan edi. Ular orasida Qozizoda Rumiylar bilan G`iyosiddin Jamshid Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar¹⁰⁴.

Bobur o`zining "Boburnoma"sida Ulug`bek rasadxonasini 1500-yili busbutun ko`rganligini yozadi. Demak, rasadxona Ulug`bek o`limi (1449)dan keyin ham kamida 50 yil turgan. Ali Qushchi esa ustodidan keyin ham Samarqandda uzoq vaqt yashab, so`ng Istanbul safarini ixtiyor etgan ko`rinadi¹⁰⁵.

Mirzo Ulug`bek zamonida Movarounnahrda dunyoviy fanlardan tashqari tarix, adabiyot, san'at, ayniqsa, tasviriy san'at taraqqiy etgandi. Ulug`bekning ukasi Boysunqur bilan o`zaro yozishmalarida ham ilmiy adabiyot mavzularida mubohasa borgan ma'lum. Ulug`bek she'riyatda ozarbayjon shoiri buyuk Nizomiy Ganjaviy uslubi va maktabini ustun deb isbotlamoqchi bo`lsa, Mirzo Boysunqur buyuk shoir va mutafakkir Amir Xusrav Dehlaviy ijodiyotining haqiqiy muxlisi sifatida bahs qilardi. Ulug`bek o`z ona tili (o`sha davrdagi chig`atoy — turkiy tili)dan tashqari ,

¹⁰³ Юсупова Д.Ю. Письма Гийас ад-Дина Каши к своему отцу из Самарканда в Кашан. // Истории науки эпохи Улугбека. Т., 1979. С.45.

¹⁰⁴ Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч.Т. II. 1-часть. М.: 1964. С. 128.

¹⁰⁵ Мамадазимов М. Улугбек ва унинг расадхонаси. Т., 1994. 49-бет.

arab, fors tillarini mukammal bilardi. Muhammad Haydar o'zining mashhur "Tarixi Rashidiy" asarida Mirzo Ulug`-bek: Donishmand "tarixnavis edi va "To`rt ulus" tarixini ham yozib qoldirgan edi", —deb yozadi. Bu asar Ulug`bekning "Tarixi arba ulus" kitobi bo`lib, unda bir vaqlar Chingizxon bosib olgan mamlakatlarning XIII asr —XIV asrning birinchi yarmidagi siyosiy hayoti aks ettirilgan edi¹⁰⁶. "Shuni alohida ta'kidlash zarurki, buyuk olim va jamoat" arbobi Mirzo Ulug`bek davrida Samarqandda faqat O`rta Osiyodagina emas, balki butun Sharqda ma'lumu mashhur bo`lgan sozanlalar, bastakorlar, xonanda va raqqosalar ijod etardilar. Ulug`bekning o`zi ana shu istedod egalarining birinchi muxlisi va homiysi ham edi. Tarixchi G`iyosiddin Ali kundaliklarining dalolat berishicha, Samarqandga kelgan chet ellik elchilar ham saroy qabul marosimlarida qatnashib, bu yerda musiqa tinglar, tasviriy san'at asarlarini tomosha qilardilar.

Ulug`bek nafaqat o`zini, balki Samarqandu Turkistonni, temuriylar ilmu — ma'naviyatini butun dunyoga abadiy tanitib ketdi¹⁰⁷.

1991 -yili Samarqand shahrida Mirzo Ulug`bek tavalludining 600-yillik yubileyiga atab buyuk ma'rifatparvar olimning nomi berilajak madaniy majmua loyihasini tayyorlashga qaror qilindi. Bo`lajak me'moriy majmuani Samarqandning tarixiy yodgorliklari qad ko`targan joyda, xususan, Registon maydoniga yaqin, hozirgi Ulug`bek, madrasasining sharqiy tomonida yangi shahar bilan ko`hna shahar chegarasida yotgan 50 gektar maydonda bunyod etish rejalashtirildi. Bu bilan qadimiy Samarqand shahrini qayta tiklash, uning qiyofasini me'moriy yangilash ko`zda tutildi¹⁰⁸.

O`ylaymizki, Ulug`bek xotirasiga bag`ishlanib qad ko`targan ushbu me'moriy majmua nafaqat Ulug`bek yurtdoshlaridan unga ajoyib tuxfa, balki olamshumul voqea bo`ldi.

Zotan, Ulug`bek bobomiz o`zi ta'riflaganidek, o`tmish dunyo o`tib ketmoqda, ammo yaratilgan ishlar abadul-abad qolajak.

¹⁰⁶ Mirzo Ulug`bek. Tўrt ulus tarixi (kiриш сўз, изоҳлар ва таҳрири Б. Аҳмедовники. Форс тилидан Б. Аҳмедов ва бошқ. Тарж.). Т., 1994. 58-бет.

¹⁰⁷ Аскаров А. Темур ва Улугбек. Тошкент. Қомуслар бош таҳририяти. 1996.54-бет.

XULOSA

Siz bilan buyuk sarkarda va salohiyotli davlat arbobi Amir Temur va uning avlodlari — temuriylar ma'naviy dunyosiga, ularning yaratuvchanlik va bunyodkorlik ishlari, madaniy ma'rifiy faoliyati bo`ylab muxtasar bo`lsa-da, sayohat qildik. Ko`rdikki, ulug` bobokalonlarimiz nafaqat jangu jadallar va siyosat, balki shaharsozlik, me'morchilik, bog`-istirohatchilik, el-yurt ma'murchiligi, obodonchilik, ilm-ma'rifat va madaniy sohalarga ham katta e'tibor berib, bu jabhalarda ulkak amaliy ishlarni amalga oshirganlar. Shuning uchun ham tarix oldida Temur va temuriylarning amaliy-ijtimoiy faoliyati ularning o`zlaridan avval o`tgan podshohlarga nisbatan qanday ijobiy yangiliklarni amalga oshirganliklariga qarab baholanishi zarur. Xususan, ana shu nuqtai nazardan aytishimiz mumkinki, Amir Temur va temuriylarning faoliyati, shubhasiz, taraqqiyot va ma'naviyat bilan sug`orilgandir.

Amir Temur o`z zamonasining qanday buyuk jahongiri bo`lsa, shunday ulkan bunyodkori ham edi. Muhimi shundaki, u o`zining keng bunyodkorlik va ma'murchilik ishlarini nafaqat ona Vatani Turonda, balki undan uzoq bo`lgan o`zga yurtlarda ham muvaffaqiyatli olib bordi.

Amir Temurning Markaziy Osiyo bog`-istirohatchilik san'atini rivojlantirishdagi xizmatlari ham alohida diqqatga sazovordir.

Markaziy Osiyo xalqlariga qadimdan ma'lum bo`lgan bog`lar oroyishi amaliyoti bu o`lkada 150 yilga yaqin davom etgan mo`g`ullar istilosi davrida tamoman to`xtab qolgan va deyarli unut bo`lgan edi. Sohibqiron Amir Temir Markaziy Osiyo xalqlarining bu nodir amaliyotini nafaqat yangitdan rivojlantirdi, balki uni bog` istirohatchilik va bog`lar oroyishi san'ati darajasiga ko`tardi. Temur shahar ichi maydonlaridagi mo`jaz bog`lar bilan chegaralanmasdan shahar atroflaridagi xushman'ara joylarda katta istirohat bog`larini va ulardagi turli xil go`zal oroyishlar va bog` ziynatlarini avj oldirdi.

Amir Temur davrida xalq amaliy san'atining barcha turlari, ayniqsa, musavvirlik, xattotlik va naqqoshlik yuksak san'at darajasiga ko`tarildi. Samarqand va Shahrisabzda shaharsozlik, me'morchilik, san'at, dinu islom, madaniyat va

ilm-ma'rifat tengsiz rivoj topdi. Markaziy Osiyo shaxarsozligida bino va in-shootlarni qurishda yangicha ansambl uslubi, yangidan-yangi jamoa binolari: timlar, usti berk savdo rastalari, maxsus bozorlar vujudga keldi.

Me'morchilik san'atining rivojlanishi yangi pog'onaga ko'tarildi. Peshtoq va gumbyazlar binolarga mahobat baxsh etuvchi asosiy shakllarga aylantirildi. Gumbuzlarning ichki va tashqi ko'rinishlariga e'tibor kuchaytirildi. Bino shakllari va qismlarini bir-biriga hamohang va uyg'un, miqyosiy o'lchovlarda shakllantirish avj oldirildi. Bu esa, o'z navbatida, bino qismlari o'lchovlarini mutanosib nisbatlarda bo'lishligini, bino tarzini esa me'moriy jihatdan shaklan mukammal va go'zal chiqishini ta'minladi. Muhandislik san'atidagi yutuqlar ham me'morchilikning yanada ravnaq topishiga yaqindan yordam berdi. Temur davrida yaratilgan o'zaro kesishuvchi ravnoq g'ishtli qurilmalar keng xonalarning tomlarini yopishda, ularning ichki va tashqi ko'rinishlarini mahobatli qilib ishlashda qo'llanildi. Me'-morchilikka tatbiq etilgan xattotlik san'atining rivoj topishi esa bino va in-shootlarning yanada munaqqash va serjilo yaratilishini tashkil etdi. Naqshinkorlikda girih, islimiyia husnixat bezaklaridan tashqari muqarnas va „kundal“ uslubi keng qo'llanildi. Binolar yaqindan va yiroqdan ko'rishga mo'ljallangan naqshlar bilan bezatildi. Tarixiy manbalar bunday noyob tasvirlar bilan Temur bunyod etgan Bog'i Shamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Naqshi Jahon bog'-saroylari, Ulug'bek barpo etgan rasadxona, Husayn Boyqaro zamonasida Hirotda bunyod etilgan Tarabxona kabi ko'shk devorlari bezalganligini ko'rsatadi.

Amir Temur O'rga Osiyoda qadimdan mavjud bo'lgan madaniy an'analarni rivojlantirgani holda o'z saroyiga san'at, madaniyat, ilmu fan va hunar ahllarini yig'ib ularga keng ijodiy va moddiy imkoniyatlar yaratib beradi. Ayni paytda, Ko'ksaroyda saltanatlikka xos ulkan ilmgoh — kutubxona tashkil etib, uni olimlar ixtiyoriga topshiradi.

Temurningo'zida ham ilmu fanga ishtiyoq zo'r bo'lgan. U tarixni, harbiy ilmni joni dilidan sevar, ilmi kalom va ilmi hikmat, jug'rofiyani yaxshi bilar, me'morchilik, yulduzshunoslik, she'riyat va musiqaga qiziqar, o'zi ham she'rlar

o`qir edi. U olimlar va ulamolar bilan tez tez suhbatlar uyushtirib turar, ilmu fan va saltanat muammolarini ular bilan bamaslahat xal qilar edi.

Temur saroyidagi olimlar Temur va temuriylar, Turkiston va Xuroson tarixiga oid noyob asarlar yozib qoldirdilar. Temur ma'naviyatining yana bir muhim qirrasini uning „Tuzuklar“i bo`ldi. „Tuzuklar“ni yaratishda u o`zigacha o`tgan sultonlarning tartib qoidalari, yo`l-yo`riqlari, turish-turmushlarini o`rganish, xushaxloq va ma'qul sifatlaridan namuna oldi, o`zi ham ularga amal qilib, yozib „tuzuk“ ka soldi. Temur Samarqand va Shahrisabzda yosh avlodlarga ta'lim olishga sharoit yaratdi, madrasa-yu xonaqohlar qurilishiga hayrixox bo`ldi. U „Tuzuklar“da madrasa va xonaqohlardan tashqari shaharlarda kasallar uchun shifoxona qurish, ularda ishlash uchun tabiblar tayinlash haqida ham amr etgan.

Muxtasar qilib aytganda, Amir Temur nafaqat shohona saroy va ko`shklar, bog`-istehkomlar, masjidu-maqbaralar qurdi, balki el-yurt ma'murchiligi, obodonchiligi, san'at, ilm-ma'rifat taraqqiyoti bobida ham namunali sa'y-harakatlar qildi.

Amir Temur hayotda cheksiz orzular va ezgu niyatlar tafakkurida yashadi. Uning orzulari, tabiiyki, jahonshumul g`oyalar bilan sug`orilgan edi. U nafaqat o`z saltanatida, balki o`zga yurtlarda ham osoyishtalik, hamjihatlik, adolat va taraqqiyot bayrog`ini tiklash tarafdori bo`ldi. Ushbu maqsad yo`lida muloqotga bo`ysunmagan, xalqiga sitam o`tkazgan, beva-bechoralarning haqini yegan mamlakatlar podshohlarini insofga, adolatga, hamjihatlikka chaqirdi. Amir Temur o`ziga quloq solmagan, murosa-yu madoraga ko`nmaganlarga qarshi qilich ko`tarib g`azavot qildi, harbiy yurishlar, qirg`inlar uyushtirdi, ya'ni o`zi yashagan davr — feodal jamiyati tartiblari doirasida harakat qildi. Chunki u hukmron feodal sinf namoyandasi sifatida o`sha sinfiing siyosatini amalga oshirishga majbur edi. Aks holda o`sha hukmron sinf Temurning o`zini saltanat kursisidan uloqtirib tashlar, uning orzu-istaklarini amalga oshirishga yo`l bermas edi. Demak, Amir Temur hokimiyati bir tarafdin zo`ravon feodal sinf an'analari turgan, ikkinchi tarafdin esa Temurning ezgulikka, taraqqiyotga intilgan orzu-niyatlari, qarama qarshiliklari ishtirokida kechdi. Ana shu qarama-qarshiliklar charxpalagida Amir

Temur Turon zaminni mustamlakachilar zulmidan ozod etdi, uni yuksak ma'naviyat va moddiy kamolot darajasiga ko'tara oldi. Va nafa-qat Turonu—zaminga, balki G'arb va Sharqqa ham ma'rifat ziyosini, ma'naviyat zarrini sochuvchi ulkan bir davr g'ildiragini yurgizib ketdi. Amir Temurning buyukligi va abadiyati ham ana shundadir.

Temurning kenja o'g'li Shohruh Mirlo ma'naviy jihatidan otasidan qolishmasdi. Shohruh, ayniqsa, saltanat poytaxti Hirotida me'morchilik va shaharsozlik rivojiga, tijorat va savdo ishlariga hamda madaniy-ma'rifiy taraqqiyotga zo'r beradi. Shaxarning buzilgan hisori o'rniga tosh va pishiq g'ishtdan yangi istehkom devorlar, darvozalar qurdiradi. Ichki qal'a ham mustahkamlanib, kengaytiriladi, Shahar rejasi qayta ishlanib, ta'mirlanadi. Shaharda chorsu binosi, shuningdek shahar markazidan o'tgan bosh ko'chalar bo'ylab Amir Temur Samarqandda bunyod ettirgan usti toq va gumbazlar bilan yopilgan savdo rastalari va do'konlariga o'xshash savdo ko'chasi-tim qurdiradi.

Shohruh Mirzoning el-yurt ma'murchiligi va bunyodkorlik faoliyati faqat poytaxt Hirot shahri bilan chegaralanib qolmagan. U chingiziylar vayron etgan qadimiy Marv shahrini ham obod etadi. Buning uchun dastlab Murg'ob daryosidan to'g'on bog'latib, Marvgacha ariq qazdirib, suv keltiradi. So'ngra shahar tarhini qayta ishlatib, hududini kengaytiradi, mudofaa devorlari, burjlar, darvozalar qurdiradi. Shahar atrofida bog'lar tashkil bo'lib, shahar ichida masjid-madrasalar, bozorlar, hammomlar va boshqa xayrli imoratlar quriladi. Shohruh Mirzo shunday xayrli ishlarni Balx shahrida ham amalga oshiradi. U shu-ningdek, Mashhad shahrida hamda Hirotning Gozurgoh mavzesida bunyodkorlik ishlarini olib boradi. Shohruh o'z atrofidagi aslzodalar, malika-yu shahzodalarni ham mamlakat, xalq farovonligi uchun xayrli ishlarga undaydi.

Shohruh, ayni paytda, tarix va she'riyatga qiziqar, ko'p mutolaa qilar edi. U o'z atrofiga ko'pgina iqtidorli olimu fuzalolarni yig'ib, ularga turli xil ijodiy topshiriqlar berib turardi. Chunonchi, Abdurazzoq Samarqandiy va Hofizi Abro' kabi muarrixlar. Shohruh taklifi bilan chiroyli tarixiy va jug'rofiy asarlar yozib qoldirganlar.

Shohruh Mirzoning o'zi bilan Hirotda faoliyat ko'rsatgan o'g'li Boysunqur Mirzo xam temuriylar ichida ma'rifatparvarligi, adabiyot va san'at ahliga ho-miyligi bilan shuhrat qozongan edi.

Boysunqur yoshligidan boshlab adabiyot, san'at, xattotlik va naqqoshlikka qiziqadi. Boysunqurning she'riyatga, ma'rifatga qiziqishida otasi Shohruhning, ayniqsa u tashkil qilgan shohona kutubxonaning o'rni katta bo'ladi. Shohruh shahzoda Boysunqurni saltanatining g'arbiy viloyatlariga hokim egib tayinlaydi. Boysunqur mamlakatni itisodiy-madaniy jihatdan yuksaltirishga, ilm-fanni rivojlantirish, qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalarni yaxshilashga e'tibor beradi. Shundan so'ng iqtidorli Boysunqurni Shohruh o'z davlatining vaziri qilib tayinlaydi. Boysunqur vazirlik ishlari bilan bir qatorda Hirotda otasi tashkil qilgan kutubxona faoliyatini rivojlantirib, uning asosida katta san'at, ilmiy-ijodiy va madaniy markaz — „Nigoriston“ni tashkilqiladi. Bu yerga mamlakatning turli shaharlaridan iqtidorli shoirlar, xattotlar, naqqoshlar va boshqa ahlu hunar egalarini to'plab ularning ijodiy ishlariga rahnamolik qiladi.

Ulug'bek ilm-fan, maorif, madaniy-ma'rifiy ishlarga rivoj berish maqsadida Movarounnahrning nufuzli shaharlari bo'lmish Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda yangi madrasalar, xonaqo-yu ilmgohlar qurdirdi. Madrasalar faoliyati, ta'lim muddati va uslubini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar o'tkazdi. Madrasalardagi o'quv jarayonida ko'proq dunyoviy ilmlarni o'rgatishga e'tibor berdi. Shaxsan o'zi mudarris sifatida Samarqanddagi madrasalarda dars berdi, talabalarning moddiy hayoti bilan qiziqdi. Bu davrda Samarqandda Amir Temur davrida qurilgan Bibixonim madrasasi va Muhammad Sulton madrasalari ham ishlab turgan bo'lsa-da, Ulug'bek madrasasining o'quv faoliyati va ta'lim-tartibiga qiziqish katta edi. Bu yerda Ulug'bek rahnamoligidagi ilmi hay'at va riyoziyotni, qomusiy olimlar Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi va dunyoviy ilmlar allomalari mavlono Muhammad Havofiy, Mavlono Ibrohim, Mavlono Badriddinlar dars berar edilar. Ma'lumotlarga ko'ra Ulug'bekning Samarqand madrasasi XVII asr boshlarigacha ishlab turgan.

Ulug`bekning bunyodkorlik ma'naviyati ham juda serqirra. U nafaqat madrasalar, balki xonaqoh, masjid, karvonsaroy, hammomlar qurdiradi. Ilgari Amir Temur davrida qurilgan me'moriy obidalarni ta'mirlash, mustahkamlash kengaytirish ishlarini olib boradi. Eng muhimi Samarqandda hozirgi Registon me'moriy majmuasining shakllanishiga ilk bor asos soladi. Bobosi Amir Temurning ona yurti Shahrisabz, shuningdek, Marv shahrida, Yassida qator xayrli qurilishlarni amalga oshirib shahar ma'murchiligiga avj beradi. Ulug`bek Movarounnahrning boshqa shaharlarida ham ko`plab chorsu savdo rastalari, karvonsaroy, hammom, sardobalar, Samarqandda Obirahmat anhuri bo`ylab bir necha ko`rkam bog`-rog`lar barpo etadi.

Ulug`bek hayotida eng muhim o`rin tutgan, Yevropada „Samarqand akademiyasi" nomi bilan shuhrat topgan, Ulug`bek va uning homiyligidagi olimlarning ilmiy kashfiyotlari, kuzatuv va ilmiy tadqiqot markazi bo`lgan mashhur inshoot — Ulug`bek rasadxonasi edi. Bu ilmiy muassasa nafaqat o`zining mukammal me'moriy tuzilishi va qurilishiga ko`ra, balki maxsus ishlangan ilmiy-tadqiqiy asbob-uskunalar va qurilmalari bilan ham o`z davrining tengi yo`q mo`jizasi edi. Ana shu mukammal va munaqqash rasadxonada Ulug`bek va uning atrofiga birlashgan olimlar: Qozizoda Rumiy, G`iyosiddin Koshiy, Ali Qushchilar o`zlarining qator ilmiy va ilmiy-tadqiqiy kuzatuv ishlarini olib bordilar.

Shunday qilib, Turkiston xalqlari tarixida temuriylar sulolasi davrini “oltin davr” deb atash mumkin. Bu sulola Osiyoda qariyb besh yuz yil hukimronlik qildi. Amir Temurdan tortib Hindistonda hukimronlik qilgan eng so`ngi shaxzoda Baxodirshox II gacha bunyodkor bo`lmagan sher bitmagan ijod qilmagan, musiqa va san`atni sevmagan birorta shoxni uchratish qiyin. Demak, temuriylar tarixida Turkiston, Afg`oniston, Hindiston xalqlari shuxratini, madaniyatini tiklab ketganlar. Ular, ayni paytda, o`zbek xalqining butun imkoniyatlarini, yaratuvchanlik ma'naviyati, boy, xavas qilgulik siyosiy, madaniy va ma'naviy olamini jahonga tanitgan suloladir.

Hozir respublikamiz mustaqillik nashidasini surmoqda. Bu istiqlol tuyg'usi xalqimiz yuragida asrlar davomida orzu bo'lib keldi. Endigi navbat shu murg'ak; istiqlolni mangulikka aylantirish, unga qanot berib, yangi cho'qqilarga ko'tarishdir. Buning uchun esa biz o'z navbatida ildizlarimiz bo'lmish — ajdodlarimiz ma'-naviyati, an'analarini unutmasligimiz va o'z qanotlarmiz sanalmish bobokalonlarimizning taraqqiyot haqidagi orzu-niyatlari, qadriyatlarini saqlab qolishimiz, rivojlantirishimiz zarur. Ayni paygda, ularni umum-dunyo xalqlari madaniyati g'oyalari bilan boyitib, mil-latimiz va vatanimizni yuksak ma'naviyat va moddiy kamolot darajasiga ko'tarmog'imiz lozim.

Bizning kelajagimiz o'tmishimizdagi ma'naiy qadriyatlarimiz va madaniy boyliklarimizni jaxonga ko'z-ko'z qilishimizda emas, balki O'zbekistonimnzn bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga ko'tarish uchun shu moddiy va ma'naviy boyliklar, qadriyatlarni o'zimizga singdirib, ulardan unumli foydalana olishimizda, ziyolilarimiz, olimlarmiz, ijodkorlarimiz yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni umumbashariyat darajasiga ko'tarib hayotga tezroq tatbiq qila bilishimizdadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

- 1.1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. Т.: Ўзбекистон. 1993.
- 1.2. Каримов И.А.Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. - Т.: Ўзбекистон, 1996. 380-б.
- 1.3. Каримов И.А.Ватан саждагоҳ, каби муқаддасдир. Т.3. - Т.: Ўзбекистон, 1996. 348-б.
- 1.4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.6. - Т.: Ўзбекистон, 1998.
- 1.5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., 2008. 174-b.

II. Umumiy adabiyotlar

- 2.1. Абдуллаев В.А., Валиходжаев Б.Н. Дыхание веков. Самарканд., СамГУ. 1970.
- 2.2. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн (Форстожик тилидан таржима, кириш ва луғатлар А.Ўринбоевники). Т.: 1969.
- 2.3. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент. 2000.
- 2.4. Алексеров Ю.Самарканд. страницы истории.Т.: 1967.
- 2.5. Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли. (Таржимаи ҳол). Нашрга тайёрловчи, таржимон, сўз боши ва изоҳлар муаллифи А.Аҳмедов. Тошкент.,Нур. 1992.
- 2.6. Амир Темур ўғитлари. Тўплам , Тузувчилар: Б.Аҳмедов, А.Аминов, Тошкент. Наврўз, 1992.
- 2.7. Асқаров А. Темур ва Улуғбек. Тошкент. Қомуслар бош таҳририяти. 1996.
- 2.8. Аҳмедов А. Улуғбек. Т., 1991.
- 2.9. Аҳмедов Б. Мирзо Улуғбек. Т., 1994.
- 2.10. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана.- Вкн.: Бартольд В.В. Сочинения Т.П, 4.1, М., 1963.

- 2.11. Бартольд В.В. Мечеть Биби-Ханым // Русский Туркестан, 1899, №34.
(Бартольд В.В. Сочинения. Т.IV. М.,1966.
- 2.12. Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч.Т. II. 1-часть. М., 1964.
- 2.13. Бердимуродов А. Гўри Амир макбараси. Самарқанд., 1996.
- 2.14. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Т. 8, М.: Стройиздат, 1969.
- 2.15. Герасимов М. Портрет Тимура // Курьер ЮНЕСКО, М., 1972, №10.
- 2.16. Засыпкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. М., 1948
- 2.17. Захидов П.Ш. Мавзолей Биби-Ханым В кн.: Архитектурное наследие Узбекистана, Сборник статей, Ташкент., 1960.
- 2.18. Зоҳидов П. Зеб ичра зийнат. Т., 1985.
- 2.19. Зоҳидов.П Темур даврининг меъморий кахкошони. Т.,1996.
- 2.20. Ибн Арабшоҳ. Темур тарихида тақдир ажойиботлари.(араб тилидан таржима, изоҳлар ва сўз бошт У.Уватовники). 2-к.Т.,1992.
- 2.21. Кари-Ниязов Т.Н. Астрономическая школа Улугбека. Изб. Труды. Т-VI. Т., 1967.
- 2.22. Мамадазимов М. Улуғбек ва унинг расадхонаси. Т., 1994.
- 2.23. Мамараҳимов К., Бердимуродов А. Самарқанд., Т., 2000.
- 2.24. Массон В.М., Ромодин В.А. Тимур и тимуриды. - В кн.: Массон В.М., Ромадин В.А. История Афганистана. Том I. С древнейших времен до начала XVI в. М., 1964.
- 2.25. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи (кириш сўз, изоҳлар ва таҳрири Б. Аҳмедовники. Форс тилидан Б. Аҳмедов ва бошқ. Тарж.). Т., 1994.
- 2.26. Муҳаммаджонов А. Темур ва Темурийлар салтанати, Тошкент, 1994.
- 2.27. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тугган ўрни ва роли. Т., 1968.
- 2.28. Немцева А. Шахи Зинда. Т., 1987.
- 2.29. Пугаченкова Г.А, Ремпель А.И. Выдающийся памятники архитектуры Узбекистана. Т., 1958.
- 2.30. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга-Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406йиллар). Т.,2010.

- 2.31. Т.Н Қори-Ниёзий. Улуғбек ва унинг илмий мероси. Т., 1971.
- 2.32. Тахиров М. Педагогические взгляды Мирзы Улугбека. Т., 1984.
- 2.33. Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси. Т., 1996.
- 2.34. Тоҳир Малик. Фалак.(қисса). Т., 1973.
- 2.35. Sodiqov H. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati. Т., 2010 у.
- 2.36. Усмонов О. Камолиддин Бехзод ва унинг наққошлик мактаби. Т. 1977.
- 2.37. Ҳомидов Ҳ. “Шоҳнома” нинг шуҳрати. Т.:1991.
- 2.38. Ёролов А,Хожихонов М.Темурийлар маънавияти ва маданияти. Самарқанд., 1996.
- 2.39. Ёролов А,Хожихонов М. Улуғбек яратган маънавият. Т., 1999.
- 2.40. Щеглов В.П. Улуғбек расадхонааси. Т., 1980.
- 2.41. Юсупова Д.Ю. Писма Гийас ад-Дина Каши к своему отцу из Самарканда в Кашан. // Изистории науки эпохи Улугбека. Т.,1979.

III. Ro`znomalar

- 3.1. Аҳмедов Б. Амир Темурга мактублар. Мулоқат, 1992. 5-сон.
- 3.2. Каттаев К. Гўри Амир макбараси. Мерос газетаси, 1992. Феврал.
- 3.3. Каттаев К.Гўри Амир макбараси. Самарқанд газетаси, 1992. №8, 15 август.
- 3.4. Маҳкамов М. Бойсунғур ибн Шоҳрух. Мулоқот, 1986, № 1.
- 3.5. Муҳаммаджонов А. Самарқанд-жаҳон жамоли. Мозийдан садо(34)2002.
- 3.6. Саидхонова С. Темурийлар меъроси намойиши. Ўзбекистон адабиёти ва санъати // 2010. 9-апрел.
- 3.7. Файзиев Турғун. Темур харами маликалари. //фан ва турмуш, 1993, 1-сон.
- 3.8. Ҳаққулов А. Тамирлаш санъати. Т. Мулоқат, 1988, 12 март.
- 3.9. Ёролов А. Амир Темурнинг жомеъ масжиди. Зарафшон, 1992. 25 август.
- 3.10. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Форс тилидан А.Ўринбоев ва Ш.Мусаевларни терма таржимаси. Мулоқот. 1991. 1-сон.

3.11. Эргашев Х., Темиров Х. Улуғбек хазинаси тилга кирганда.// Мулоқат.
1979. 28 ноябр.

IV. Internet manbalari

- 4.1. www.uzhurriyat.uz
- 4.2. www.uz.wikipedia.org
- 4.3. www.ziyonet.uz
- 4.4. www.xabar.uz
- 4.5. www.api.uz
- 4.6. www.jahonnews.uz
- 4.7. www.turklib.ru
- 4.8. www.vsetut.uz